

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
AL-XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**


Qo‘lyozma huquqida
UDK : 811. 512. 133

OCHILOVA OZODA BAXTIYOROVNA

“Mehrobdan chayon” romanining lingvopoetik xususiyatlari

5A 120102-Lingvistika (o‘zbek tili)

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**



Ilmiy rahbar:
f.f.n., dots. Primov A.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIMI VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Fakultet: Filologiy va san'at
Kafedra: O'zbek tilshunosligi.
Quyuv yili: 2012-2014.

Magistratura talabasi: Ochilova O.
Ilmiy rahbar: f.f.n., dots. A.I. Primov
Mutaxassisligi: Lingvistika (o'zbek tili)

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI

Mavzuning dolzarbligi. Badiiy til bobida benazir ibrat maktabini yaratgan Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanining tili hozirga qadar lingvopoetik nuqtayi nazardan o'rganilmagan. Ushbu roman adib badiiy til mahoratining noyob namunalaridan biridir. "Mehrobdan chayon" romanini lingvopoetik jihatdan o'rganish uning badiiy til xususiyatlarini to'raligicha ko'rsatish imkonini beradi. Asardagi umumbashariy g'oyalar hozirgi avlod fikriyatida ma'naviy qarashlarining shakllanishida alohida ahamiyatga ega. Bundan tashqari asarni filologik nuqtayi nazardan o'rganish o'zbek tilshunosligini yangi ilmiy ma'lumot va natijalar bilan boyitadi. Shu nuqtayi nazardan olib tashvaksak, mazkur mavzuning tadqiq qilinishi nihoyatda dolzarb ekanligi oydinlashadi.

Ishning maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi "Mehrobdan chayon" romanining til xususiyatlarini tahlil qilish shu bilan birga Qodiriyning o'ziga xos so'z tanlashi, so'z qo'llashi, asar matnidagi frazeologizmlar va maqollarning badiiy nutqning ta'sirchanligi, tasviriyliigi va obrazlilikini ta'minlashdagi ahamiyatini ko'rsatis, badiiy tasvir vositalaridan foydalanishi asosida namoyon bo'luvchi badiiy til mahoratini ochib berishdan iborat.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Tadqiqot obyekti sifatida Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanining matni olingan. Asosan, roman matnidagi leksik birliklar, iboralar-frazeologik birliklar va maqollar, shuningdek, romandagi she'riy parchalar lingvopoetik tahlilga tortilgan.

Tadqiqot uslubiyati va uslublari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov tomonidan ilgari surilgan badiiy istiqloq g'oyasi tadqiqotning nazariy asosini tashkil qiladi. Masalani o'rganishda keyingi yillarda o'zbek filologiyasi, xususan, o'zbek tilshunosligi qo'lga kiritgan yutuqlardan hamda rus va boshqa xorijiy tilshunosliklarda qilingan nazariy fikrlardan keng va ijodiy foydalanilgan. Shuningdek tadqiq qilinayotgan materialning asosidan kelib chiqqan holda ishda tavsifiy, qiyosiy-tasnifiy, kontekstual, komponent tahlil kabi tadqiqot metodlariga foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi shundan iboratki, "Mehrobdan chayon" romanining birinchi marta lingvopoetik aspektida o'rganilgan. Unda Qodiriyning o'zbek tilidagi leksik va frazeologik birliklar asosiy tasviriy vositalardan foydalanishdagi o'ziga xosligi, bundagi lingvopoetik qonuniyatlar ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tatbiqi. Dissertatsiyadagi ilmiy xulosalar ham tilshunoslik, ham tilshunoslikning tegishli muammolarini ma'lum ma'noda oydinlashtirishga ko'maklashadi. Tadqiqot natijalari materiallaridan badiiy matnning lisoniy tahlili bilan bog'liq o'quv kurslari uchun qo'llanmalar yaratishda, shuningdek, oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlarida maxsus kurs o'qitishda foydalanish mumkin.

Ish tuzilishi va tarkibi. Ish kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning umumiy hajmi 74 sahifani tashkil etadi.

Bajarilgan ishning asosiy natijalari. Ishning asosiy mazmuni va natijalari ilmiy to'plamlarda nashr qilingan maqola, shuningdek, o'zbek tilshunosligi kafedrasida qoshidagi ilmiy-nazariy seminar va universitetda o'tkazilgan konfrentsiya anjumanlarda o'qilgan ma'ruzalarda o'z aksini topgan.

Xulosa va takliflarning qisqacha umumlashtirilgan ifodasi. Abdulla Qodiriy o'z ijodi, xususan, "Mehrobdan chayon" romanida o'zbek tili o'zining estetik vazifasini nechog'lik mukammal bajara olishini katta mahorat bilan ko'rsatib bergan. Romanda qadimiy va boy o'zbek tilining betakror salohiyati, tuganmas xususiyatlari to'la aks etgan. Qodiriy keng ommaga tushunarli bo'lgan o'zbek adabiy tilini shakllantirish, bu tilni jonliq yaratishga katta hissa qo'shgan.

"Mehrobdan chayon" romani tilini badiiy nutqda so'z qo'llash jihatidan o'ziga xos ibrat maktabi deyish mumkin. Qodiriy tilidagi so'zlarning semantic qurilishida bir paytning o'zida aks etib turadigan ham ifodalanayotgan ma'no, ham nutq subyektining bu predmetga o'z munosabati, uning so'zlash paytidagi hissiy holati, ruhiyati haqidagi ma'lumotlarni nozik ilg'aganligi uchun bu axborotlarning barchasini o'z estetik niyatiga ustalik bilan xizmat qildirgan.

Ilmiy rahbar
Magistratura talabasi

Abdulla Qodiriy

f.f.n., dots. A. Primov

Ochilova

THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
THE MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY EDUCATION
URGENCH STATE UNIVERSITY

Faculty: Philology and art

Master degree student: Ochilova O.

Department: Uzbek linguistics

Supervisor: phd., dots. Primov A.I.

Academic years: 2012-2014

Specialty: Linguistics (Uzbek language)

ANNOTATION OF MASTER DEGREE DISSERTATION

The actuality of the work: The author of wonderful works, A. Qodiriy was honored member of Uzbek literature, and his novel "Mehrobdan chayon" has not been researched from linguapoetic feature. This work is one of the masterpieces of the author. Researching the novel gives the chance of learning characteristics of Bells-letters fiction. The idea of the work helps to shape positive mind in youth. Moreover, philological researching enriches Uzbek linguistics. That's why it is crucial to make research on the topic.

The purpose and tasks of the research: The aim of the work is analyzing the language, style of choosing words, effectiveness of using phrases and proverbs, descriptiveness, showing proficiency of literary language.

The object and subject of the work: The object is "Mehrobdan chayon" novel by A.Qodiriy. On the work mainly lexical morphemes, idioms, proverbs, poetic parts were analyzed linguapoetically.

The style of the research: Idea of National Independence by the President of the Republic of Uzbekistan, I.Karimov is the foundation of the work. During the researching procedure the student used several Uzbek and foreign linguistic scholars' ideas and works. Furthermore, descriptive, comparative descriptive, contextual, component analyzing methods are used for analyzing the materials.

The novelty of the work: Novel "Mehrobdan chayon" has been researched linguapoetically for the first time. And using phraseological unites, lexical, descriptive features helped to uncertain linguapoetic features.

The structure of the work: It includes Introduction, 3 chapters, conclusion, used literature list, it is 74 pages.

The result of the research: Dissertation helped to find solutions which exist in literature and linguistics. It may be as a manual for teaching the students of the faculty of philology.


Conclusion and suggestions to the work: A.Qodiriy proved the aesthetic proficiency of Uzbek language with his novel "Mehrobdan chayon". Historical and rich Uzbek language beauty, incredible possibilities of the language were presented on the novel. Qodiriy initiated to present clear Uzbek language and fasten its actuality.

One should accept that "Mehrobdan chayon" is the exact marvelous sample of using literary words. Qodiriy used masterly semantic structure for conveying the author's attitude, emotions, psychological position white expressing the character's speech.

Supervisor:

Student:



phd., dots. A.Primov
 O. Ochilova

MUNDARIJA

Kirish	3-8
I bob. Lingvopoetika-tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohasi	9-26
1. Lingvopoetikada badiiylilik va til munosabati.....	9-18
2. “Mehrobdan chayon” romani-o‘zbek nasri lingvopoetikasini o‘rganish obyekti sifatida.....	19-25
I bob bo‘yicha xulosa	26
II bob. “Mehrobdan chayon” romanida leksik va barqaror birikmalarning uslubiy qo‘llanilishi	27-46
1. “Mehrobdan chayon” romanida so‘zlarning konnotativ ma’nolari.....	27-35
2. “Mehrobdan chayon” romanidagi maqol va frazeologik birliklar tahlili.....	36-45
II bob bo‘yicha xulosa	46
III bob. “Mehrobdan chayon” romanidagi tasviriy vositalarning lingvopoetik tahlili	47-67
1. “Mehrobdan chayon” romanida troplarning ishlatilishi.....	47-55
2. Roman tilidagi badiiy sintaksisning lingvopoetik tahlili.....	56-66
III bob bo‘yicha xulosa	67
Xulosa	68-69
Adabiyotlar ro‘yxati	70-74

Kirish

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Filologiya ilmidagi badiiy asar turli maqsad va nuqtayi nazarlardan o'rganiladi. Badiiy asar xalq tili o'zining barcha imkoniyatlarini bor bo'yicha namoyon qila oladigan, yozuvchining mahorat darajasiga ko'ra bu imkoniyatlarni to'laligicha ishga solish mumkin bo'lgan o'ziga xos maydondir. Bu imkoniyatlar cheksiz-chegarasiz bo'lib, muayyan asarda uning ro'yobi masalalarini o'rganish, avvalo, yozuvchining badiiy til borasidagi mahoratini, qolaversa, xalq tilidagi ifoda vositalarining boyligini namoyish etishga asos bo'ladi.

Ming yillik adabiyotimiz tarixida tilimizning ana shunday bepayon imkoniyatlarini o'zida xolis mujassam etgan badiiy asarlar benihoya ko'p. Ammo mustabid tuzum davrida milliy istiqloq g'oyalarini kuylagan Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat kabi yirik so'z san'atkorlarining bunday asarlarini o'rganishga imkoniyat berilmadi. Yurtimiz istiqloli bu yo'ldagi barcha g'ovlarni olib tashladi. Mustaqillik arafasidagi tarixiy jarayonni ko'z oldimizga keltirar ekanmiz, 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan "Davlat tili haqida"gi Qonun istiqloqning ma'naviy poydevori bo'ldi, deb aytish mumkin. Ushbu Qonun millatning tarixiy xotirasini uyg'otishda muhim tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridayoq mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov shunday degan edi: "...Mustabidlik zamonida xalqimiz xotirasidan ataylab o'chirilgan mo'tabar insonlarning nomlari birin-ketin tiklanyapti. Abdulla Qodiriy va Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat va Usmon Nosir kabi Vatanimiz, millatimiz ozodligi yo'lida shahid ketgan o'nlab siymolarning ma'naviy meroslari bugun xalqimiz bisotiga qaytmoqda"¹.

Yangi asr dunyo miqyosida barcha fan sohalarida misli ko'rilmagan yangilik va kashfiyotlar asri bo'lishi kutilmoqda. Fan va texnikaning bu kungi taraqqiyoti ta'sirida davrimiz ilm-fan oldiga qo'yayotgan maqsad va talablar barcha fan sohalarida shu kungacha erishilgan yutuqlarning birlashtirilishi, tahlil etilishi, barcha sohalar uchun samarali uslub va texnologiyalarning ommalashtirilishini

¹ Каримов И. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1.- Тошкент: Ўзбекистон, 1996, 88-бет.

ko'zda tutmoqda.

Prezidentimiz: "...maqsadimiz-jahon fani va tafakkuri cho'qqilarini o'zlashtirishga doimiy intilishdir. Boshqacha aytganda, biz o'tmishdan olayotgan merosni hozirgi kunda yaratilayotgan buyuk kashfiyotlar bilan uyg'unlashtirmog'imiz kerak"²,-deb ta'kidlaganlaridek, o'zbek tilshunosligi oldiga ilm-fan qo'yayotgan talablardan biri sifatida o'zbek adabiyotidagi nodir badiiy asarlarning til xususiyatlarini tahlil qilish masalasini ham alohida ta'kidlab ko'rsatish mumkin.

Badiiy asarning turli insonshunoslik fanlari hamda matematika, semiotika, kibernetika, informatika kabi sohalar talqinidagi yangicha tahlillari yangi-yangi yo'nalishlarni keltirib chiqarishi tabiiy. Oliy filologik ta'lim tizimida mantiq, informatika, semiotika fanlari haqida tushunchalar berilayotgani; filologiya sohasida lingvopoetika, germeneytika kabi atamalar faol qo'llanila boshlangani fikrimizning dalili bo'la oladi.

Badiiy til bobida benazir ibrat maktabini yaratgan Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanining tili hozirga qadar lingvopoetik nuqtayi nazardan o'rganilmagan. Ushbu roman adib badiiy til mahoratining noyob namunalaridan biridir. "Mehrobdan chayon" romanini lingvopoetik jihatdan o'rganish uning badiiy til xususiyatlarini to'laligicha ko'rsatish imkonini beradi. Asardagi umumbashariy g'oyalar hozirgi avlod tarbiyasida ma'naviy qarashlarining shakllanishida alohida ahamiyatga ega. Bundan tashqari asarni filologik nuqtayi nazardan o'rganish o'zbek tilshunosligini yangi ilmiy ma'lumot va natijalar bilan boyitadi. Shu nuqtayi nazardan olib qarasak, mazkur mavzuning tadqiq qilinishi nihoyatda dolzarb ekanligi oydinlashadi.

Tadqiqotning obyekti va predmetining belgilanishi. Tadqiqot obyekti sifatida Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanining matni olingan. Asosan, roman matnidagi leksik birliklar, iboralar-frazeologik birliklar va maqollar, shuningdek, romandagi she'riy parchalar lingvopoetik tahlilga tortilgan.

² Каримов И. Ватан равнаки учун хар биримиз масъулмиз.- Тошкент: Ўзбекистон,2001. Т.9.- Б.278.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. O'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida keyingi yillarda badiiy asarlarning lingvopoetikasini tadqiq etish bo'yicha bir necha ishlar qilindi. Tabiiyki, bu sohada avallo yirik adiblarning asarlari tadqiqot obyekti qilib olindi. Jumladan, Oybek romanlari tili (SH. Shoabdurahmonov, M. Samadov), G'afur G'ulom poeziyasi (B. Choriyev), M.Shayxzoda she'riyati tili (B. Yoriyev), Said Ahmad asarlari tili va uslubi (B. Yo'ldoshev), Cho'lponning badiiy til mahorati (M.Yo'ldoshev) va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Abdulla Qodiriy asarlarining badiiy xususiyatlari esa alohida monografik tadqiqot obyekti sifatida atroflicha o'rganilmadi. Adib ijodi haqidagi monografiya, risola va ko'plab maqolalar asosan adabiyotshunoslik yo'nalishida yozilib, xususan romanlarning g'oyaviy mazmuniga asosiy e'tibor qaratildi, lisoniy-badiiy xususiyatlar haqida yo'l-yo'lakay fikrlar aytili, xolos.

"O'tgan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlari adib badiiy mahoratining yuksak namunasi bo'lib, unda xalq tilining boy imkoniyatlari butun yorqinligi bilan namoyon bo'ladi. Bu xususda, ayniqsa, birinchi romani haqida P.Qodirov va I.Sultonov kabi olimlar ayrim fikrlar bildirganlar³. "Mehrobdan chayon" romanining lingvopoetikasiga doir ba'zi ma'lumotlar istiqlol davrida yaratilgan ilmiy ishlarda qisman uchraydi⁴. Ammo, bularni tizim sifatida, badiiy mahoratining yetakchi unsur tarzida izchil yoritish maqsadi qo'yilgan emas. Lekin ularning hammasida bir fikr- romanning badiiy til sohasini, adibning xalq tildan foydalanishdagi mahoratini o'rganish zarurligi yakdillik bilan qayd etilgan. Jumladan professor U. To'ychiyev romanning badiiy nafosatini adibning xalq tili unsurlaridan, so'zning ko'pma'noliligi, evrilishlari, xalq maqollari, aforizmlar, badiiy tasviriy vositalar, yangi va eski so'z, xalq iboralaridan foydalanishdagi

³ Qodirov P. Xalq tili va realistik proza. T.: Fan. 1973. 166 b.; Sultonov I. Abdulla Qodiriy ijodi haqida. P'essalar. Maqolalar. 2 tom. T.: 1954. 314 b.

⁴ Normatov U. Abdulla Qodiriy bo'gi. T.: E'zuvchi. 1995. 220 b.; U'sha muallif. Qodiriy mu'jizasi. T.: U'zbekiston. 2010. 272 b.; Ba'ohdir Karim. Abdulla Qodiriy. Toshkent. Fan. 2006. 231 b.; Tuiychiev U. U'zbek adabiyatida badiiylik. T.: Yangi asr avlodi. 2011. 508 b.; Ra'himov A. Solih ma'hdumda nima gu'nox? // U'zbekiston adabiyati va san'ati. 1990,3 avgust.; Lut'fid'dinova X. Gul'larning Ra'ynosi. T.: U'zbekiston. 1997.; Sho'fazarov Yu. Yana Solih ma'hdum haqida // U'zbekiston adabiyati va san'ati. 1991,25 yanvar.

mahoratini aniqlashdan boshlash zarurligini ta'kidlaydi. Shu bois ushbu ishda ana shu masalalarni qisman bo'lsa-da yoritib berishga harakat qildik.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi "Mehrobdan chayon" romanining til xususiyatlarini tahlil qilish shu bilan birga Qodiriyning o'ziga xos so'z tanlashi, so'z qo'llashi, badiiy tasvir vositalaridan foydalanishi asosida namoyon bo'luvchi badiiy til mahoratini ochib berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun tadqiqot oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- Lingvopoetikaning asosi lisoniy va estetik tahlil uyg'unligi ekanligini ko'rsatib berish;
- romanining o'zbek nasri lingvopoetikasini o'rganishdagi o'rnini belgilash;
- romandagi so'zlarning lisoniy-estetik qimmat olishida konnotatsiyaning salmog'ini ko'rsatib berish;
- adibning so'z tanlash va so'z qo'llashdagi o'ziga xosliklarning lisoniy va badiiy-estetik asoslarini ochib berish;
- asar matnidagi frazeologizmlar va maqollarning badiiy nutqning ta'sirchanligi, tasviriyligi va obrazlilikini ta'minlashdagi ahamiyatini ko'rsatish;
- romandagi she'riy parchalarning lisoniy-estetik vazifasi va ahamiyatini ko'rsatib berish.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romani misolida asarning lingvopoetik xususiyatlarini tahlil qilish va xulosalar chiqarish tadqiqotning asosiy masalalaridan hisoblanadi. Ushbu masalalarni yechishda quyidagi farazlarga tayaniladi:

- O'zbek romanchiligi lingvopoetikasini o'rganishda "Mehrobdan chayon" romanini eng noyob manbalardan biri ekanligi;
- so'z tanlash va qo'llash tamoyillarida asar mazmuni va shakli mutanosibligiga e'tibor berilganini ko'rsatish;
- so'zning asl (tub) va majoziy (ko'chma) ma'nolaridan foydalanishning

ahamiyatining katta ekanligi;

- frazeologizm va xalq hikmatlarining lisoniy va estetik funksiyalarini misollar asosida tahlil qilinishi;
- romandagi o'xshatish, metafora, jonlantirish, badiiy san'atlarni qo'llashda adib o'ziga xosligini belgilash;

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. O'zbek filologiyasida badiiy tili muammolari, xususan bir qancha adiblar badiiy asarlarining lingvopoetikasi masalalariga bag'ishlangan bir qator tadqiqotlar yaratilgan⁵. Badiiy asar tilini stilistik aspektda o'rganishga qaraganda lingvopoetik o'rganish bir qator ilgari qo'yilgan qadam va ancha samarali yo'l ekanligi bugun oydinlashib bormoqda. Ayni paytda badiiy asar tilining lingvopoetik tahlili lingvostilistik tahlil natijalariga asoslanishi ham tadqiqotchilar tomonidan ta'kidlanadi. Aynan lingvostilistik yo'nalishda yaratilgan ilmiy ishlarda to'plangan natijalar lingvopoetik tadqiqotlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Ularda o'zbek adabiyotida yuksak mahorat bilan yaratilgan she'riy va nasriy asarlar tili ana shu nuqtayi nazardan tahlil qilingan, tegishli ilmiy xulosalar umumlashtirilgan.

Masalan, N. Mahmudovning bir qator maqolalarida ayrim shoir va yozuvchilar asarlari tilining lingvopoetikasi bo'yicha qiziqarli fikrlar ilgari surilgan.⁶ L. Jalolova, G. Rixsiyeva kabi tadqiqotchilarning maqolalarida ham badiiy asardagi muayyan usul va shakllarning lingvopoetik mohiyatini tahlil qilishga harakat qilingan.⁷ M.Yo'ldoshevning nomzodlik dissertatsiyasida Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani lingvopoetik tahlilga tortilgan.⁸ Keyingi

⁵ Шоабдурахмонов Ш. Ойбек романларининг тили // Шарқ юлдузи, 1995, 10-сон; Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати (Маҳорат ва тил ҳақида мулоҳазалар). – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1962; Самадов Қ. Ойбек- сўз санъаткори.- Тошкент, 1965; Кучкартаев И. Фразеологическое новаторство А Каххара. Автореф. дис...канд. филол. наук.- Ташкент, 1965; Кўчқортоев И. Бадий нутқ стилистикаси.-Тошкент, 1975; Мамадов Х. Лексико-стилистикалык особенностии художественной прозы Алишера Навои. Автореф. дис...канд. филол. наук.- Ташкент, 1969; Юлдашев Б. Язык и стиль произведений Саида Ахмада. Автореф. дис...канд. филол. наук.- Ташкент, 1979; Каримов С. Язык и стиль произведений Зульфии. Автореф. дис...канд. филол. наук.- Ташкент, 1983; Қозоқов Ш. Ҳамза драмаларидаги эмоционал баҳо билдирувчи лексиканинг семантик-стилистик хусусиятлари. Филол. фанлари номзоди ... диссертация.- Тошкент, 1990 ва бошқалар.

⁶ Маҳмудов Н. Ойбек шеърларидаги ўхшатишларнинг лингвopoетикаси. // Ўзбек тили ва адабиёти. 1995, № 6. 48-51 -бетлар. Шу муаллиф. Абдулла Каҳҳор ҳикояларининг лингвopoетикасига доир. // Ўзбек тили ва адабиёти. 1987, № 4. 34-36-бетлар.

⁷ Жалолова Л. Абдулла Қодирий асаридаги жонлантиришнинг лингвopoетик таҳлили. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2000, № 4. 33-35-бетлар.

⁸ Юлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати («Кеча ва Кундуз» романи мисолида). Филол. фанлари номзоди ... диссертацияси.- Тошкент, 2000.

...yillarda o'zbek tilshunosligida lingvopoetika muammolari tadqiqiga bag'ishlangan
...nechta dissertatsiyalar yoqlangan.⁹

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov tomonidan ilgari surilgan milliy istiqlol g'oyasi tadqiqotning nazariy asosini tashkil qiladi. Ishni yozishda keyingi davrda o'zbek filologiyasi, xususan o'zbek tilshunosligi, adabiyotshunosligining yangi yutuqlaridan foydalanildi. Sh. Abdurahmonov, A. Hojiyev, G'. Abdurahmonov, X. Doniyorov, S. Mirzayev, S. Mirvaliyev, U. Normatov, P. Qodirov, U. To'ychiyev, B. Karimov kabi olimlarning qarashlariga suyanildi. Shuningdek tadqiq qilinayotgan materialning ehtiyojidan kelib chiqqan holda ishda tavsifiy, qiyosiy-tasnifiy, kontekstual, komponent tahlil kabi tadqiqot metodlariga murojaat qilingan.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati shundaki, undagi ilmiy xulosalar ham adabiyotshunoslik, ham tilshunoslikning tegishli muammolarini ma'lum ma'noda oydinlashtirishga ko'maklashadi. Dissertatsiya materiallaridan badiiy matnning lisoniy tahlili bilan bog'liq o'quv kurslari uchun qo'llanmalar tayyorlashda, shuningdek, oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlarida maxsus kurs o'qitishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, "Mehrobdan chayon" romanining tili birinchi marta lingvopoetik aspektda o'rganilgan. Unda Qodiriyning o'zbek tilidagi leksik va frazeologik birliklar hamda asosiy tasviriy vositalardan foydalanishdagi o'ziga xosligi, bundagi lingvopoetik qonuniyatlar ochib berilgan.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning umumiy hajmi 74 betni tashkil qiladi.

⁹ Masalan: Muhammajonova G. 80-yillar oxiri-90- yillar boshlari uzbek she'riyatining lingvopoetik tadqiqi: Filol. fanlari nomzodi ... dissertatsiyasi.- Toshkent, 2004; Shodieva D. Sh. Muhammajonovning she'riyatining lingvopoetikasi. Filol. fanlari nomzodi ... dissertatsiyasi.- Toshkent, 2007.

I BOB. LINGVOPOETIKA-TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK SOHASI

1. Lingvopoetikada badiiylik va til munosabati

Badiiy asr tili filologiya ilmining eng murakkab va dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelgan. Hozir ham shunday. O'zbek filologiyasida bu masalaga qiziqishning tobora ko'payib borishi tasodifiy hodisa emas. Chunki asar tili uning har bir qismida, epik bayon, obrazlar talqini, poetikasi va boshqalarda ishtirok etadi. Shu bois badiiy asarlarni yaxlit holda, matn asosida kompleks o'rganishga e'tibor kuchaymoqda. Bu jarayon esa asar tilidagi lisoniy va badiiy jihatlarni- lingvopoetika hodisasini o'zaro aloqada tahlil qilishni taqazo qiladi.

Badiiy asr tili tilshunoslar uchun ham, adabiyotshunoslar uchun ham tadqiq obyektidir. Lekin bularning o'ziga xos xususiyatlarini ham inkor etib bo'lmaydi. Tilshunoslar fonetika, leksika, semantika, morfologiya kabi sohalar bo'yicha badiiy tilni izohlasalar, adabiyotshunoslar tilga badiiy-estetik tomondan yondashadilar. Boshqacha aytganda, asar tilini o'ziga xos xususiyatlarini to'la ochib berish uchun lisoniy va badiiy tahlil, ya'ni tilshunoslik va adabiyotshunoslikning mustahkam aloqasi asosiy shart hisoblanadi. Zero, lingvistik tahlil bilan estetik tahlil uyg'unlashgan bo'lishi shart. Bunday uyg'unlik asosida, tabiiyki, "so'z" deb atalgan tushuncha va unga munosabat yotadi.

O'zbek xalq og'zaki ijodining nodir namunalarining betakror badiiyati, sir-u sinoatga to'la qonuniyat tilsimlari, lingvofolkloristika masalalarini teran tadqiq etgan serqamrov filolog B. Sarimsoqov til badiiyati muammosini o'rganishda tilshunos va adabiyotshunoslarning doimiy hamkorligini targ'ib etishdan charchamagan olimlardan hisoblangan. U shunday yozadi: "...Tilshunosmi yoki adabiyotshunosmi, lingvopoetikada, badiiylik (obrazlilik) masalalarida birlashib ketishlari lozim, shundagina ular haqiqiy filologga aylanadilar. Badiiylik muammolari esa sof filologik muammolardir"¹⁰

¹⁰ Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари.- Тошкент: ТАИ, 2004, 27-бет.

Filolog mutaxassislar badiiy asarni tahlil qilish malakasiga yetarlicha ega bo'lganliklari uchun talabalarga nima "berish"ni ham, ulardan nimani "olish"ni bilishmaydi. Shu bois, adabiyot darslarida talabalar zimmasiga g'oyat yengil keraksiz "yuk" qo'yiladi. yengil-yelpi, talabalarning xayolotini ishga solmaydigan, aqlini zo'riqtirmaydigan "javob"lar adabiyot bo'yicha ijobiy baho uchun yetarli hisoblanib kelinadi. Chunonchi, fizika darsida butun olam yaratish qonunini yaratish uchun Nyutonning boshiga tasodifan tushib ketgan olma tushib ketgan bo'lganini aytgan, ammo qonunning mohiyatini bilmagan o'quvchiga "yomon" baho qo'yiladi va to'g'ri qilinadi. Ammo "Xamsa" asarining 2,5 yil avval yaratilgani va uning besh dostonidan iboratligini bilgan talabaga, garchi "Xamsa"ni ochib ko'rmagan bo'lsada, "yomon" baho qo'yish mumkin emas. Chunki adabiyot predmeti uchun o'sha "bilim" ham yetarli deb qaraladi.

Badiiy asar matni bilan ishlashni o'z faoliyatining markaziy masalasi deb hisoblamaydigan adabiy ta'lim muvaffaqiyatsizlikka mahkumdir. Badiiy tahlilsiz adabiy ta'lim ma'naviyatsiz shaxs, bilimsiz mutaxassis demakdir. Yangilangan milliy pedagogika o'z oldiga ma'naviyati yuksak shaxslarni shakllantirish maqsadini qo'ygan ekan, adabiy ta'limda badiiy tahlil hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi shubhasizdir. Malakali badiiy tahlil bo'lmagan joyda mo'jizaviy asarning siri, siri, jozibasini yo'qqa chiqadi, uning zamiridagi badiiy va hayotiy ma'no poyqalmay qolaveradi. Adabiyot o'qitishda badiiy tahlilga e'tibor g'oyat sust bo'lganligi uchun ham millat ahlining bir necha avlodi Navoiy, Bobur, Mashrab va Qodiriysiz yashab kelmoqda.

Tilshunoslar ta'limotiga binoan har bir so'z-ma'lum tovushlar yig'indisidan iborat. Bu fikr "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "O'z tovush qobig'iga ega bo'lgan, narsa-hodisalar, jarayonlar, xususiyatlarni, harakat va holatni, aloqa va munosabatlarni nomlash uchun xizmat qiladigan, mustaqil lug'aviy ma'noga ega bo'lgan, shuningdek, turli grammatik ma'no va vazifalarda qo'llanadigan eng muhim til birligi; gapning qurilish materialini" shaklida bayon etilgan¹¹. Muhimi

¹¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. III tom. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. B.608.

shunda-ki, soʻzga berilgan barcha taʼriflarda soʻz mohiyatini “tovush”, “maʼno”, “nutq” kabi tayanch iboralar ifodalashi taʼkidlanadi. Bu jihatdan “Oʻzbek sovet ensiklopediyasi”da soʻz taʼrifi va maʼnolarining nisbatan batafsil izohi xarakterlidir. Unda yozilishicha, “tovush yoki tovush birikmasi soʻz boʻlishi uchun maʼniga ega boʻlishi, yaʼni bir til yoki sheva egalari shu tovushlar vositasida biror insonni bir-biriga anglatishi va anglashi shart, soʻz, odatda, koʻp maʼnoli boʻladi”¹². Ushbu taʼrifda qayd etilgan soʻzga xos xislatlar asar tilining yuksakligini taʼminlovchi unsurlar boʻlib, lingvopoetikada soʻzning koʻp maʼnoli (polisemiya) boʻlishi, narsa yoki hodisalarning turli nomlarini bildirishi va ifodaning sodda, anglashuvli boʻlishiga imkon beradi. Zero, asar muvaffaqiyatini taʼminlovchi asosiy, yetakchi omillardan biri uning tilidir. Chunki, asarning barcha materiallari, adibning butun tajribasi, mahorati tilda ifodalanadi.

Maʼlumki, lingvopoetikada ikki jihat mavjud. Birinchisi- lisoniy jihat boʻlib, unda soʻzning shaxs, son, zamondagi holati, fonetik, morfologik, sintaktik, semantik xususiyatlari nazarda tutilsa, soʻzning asar qurilmasidagi oʻrni, badiiyati, tasvir va ifodadagi taʼsirchanligi, poetik xususiyatlari aks etadi. Bularning har ikkalasi ham soʻz talqinlariga asoslanadi va til badiiyatini shakllantiradi. Til esa soʻzlar xazinasidan iborat. Uning muayyan vazifa bajarishi nutq jarayonida (yozma yoki ogʻzaki) voqe boʻladi. Asar tili esa badiiy nutqdir. Uning mohiyatini soʻzning maʼno qirralari belgilaydi. Chunonchi soʻzda ikki xil maʼno bor: 1) nomlash, atamalik (denotativ); 2) qoʻshimcha ekspressiv-emotsional (konnotativ) maʼno. Ikki xil maʼnoga ega soʻz uch xil vazifani bajaradi: 1) nomlash (nominatsiya); 2) axborot berish (informatsiya) va 3) ekspressiya (estetik taʼsir va baho).

Bulardan denotativ maʼno ilmiy, rasmiy idora uslubida ishlatilsa, konnotativ maʼno badiiy ijodga xosdir. Ikkinchi maʼno orqali soʻzlar obraz yaratiladi, badiiy tasvir, umuman asar matni taʼsirchanlik, joziba kasb etadi. Ammo har qanday soʻz emas, balki estetik kontekstdagi soʻzgina obrazga aylanadi. Bunday soʻzlar lingvistik jihatdan ot, olmosh, feʼl hamda otlashgan barcha soʻz turkumiga mansub boʻladilar. Sababi- obrazga aylanuvchi soʻz turkumi narsa, shaxs yoki uning holati-

¹² Ўзбек совет энциклопедияси. X том. Т.: “Энциклопедия” нашриёти, 1978. В.472.

barakatini ifodalay olishi lozim. Fe'lda predikativlik xususiyati obrazga aylanishni o'zlashtiradi.

Tilshunoslikka oid zamonaviy adabiyotlarda tilning, asosan, to'rt-besh vazifasi qayd etiladi. 1. Kommunikativ vazifa - tilning kishilar o'rtasida asosiy aloqa vositasi ekanligi. 2. Ekspressiv vazifa - turli fikr va tuyg'ularni ifodalash vazifasi. 3. Konstruktiv vazifa - fikrlarni shakllantirish, tartibga solish va ifoda tarzini belgilash vazifasi. 4. Akkumulyativ vazifa - ijtimoiy tajriba va bilimlarni to'plash, saqlash vazifasi.

Badiiy asar tili tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda tilning ayni "ekspressiv vazifasi" atamasi bilan bir qatorda "tilning poetik vazifasi", "tilning badiiy vazifasi", "tilning estetik vazifasi" kabi atamalar ham qo'llanadi.

Lingvopoetika odatiy asar tilining badiiyatini o'rganar ekan, bu badiiyat unsurlarini umumxalq tili imkoniyatlaridan oladi va lisoniy hamda estetik jihatdan baholaydi. Bunday badiiyatni quyidagi unsurlar yaxlitligi tashkil etadi:

- 1) So'z ma'nolarining ko'chishi (o'z ma'nosining kengayishi va yangi ma'noga ega bo'lishi). Metafora, metonimiya, sinekdoxa, ramz, majoz va boshqalar;
- 2) O'zga tillardan o'zlashtirilgan so'zlar (arab, fors-tojik, rus va rus tili orqali boshqa tillardan o'tgan so'zlar);
- 3) Tildagi eski va yangi so'zlar. Hayot bilan bog'liq holda eskirgan yoki yangidan paydo bo'lgan so'zlar ham qo'llaniladi;
- 4) Sheva va lahjalarga mansub so'zlar ham til badiiyatiga o'ziga xoslik bag'ishlaydi;
- 5) Tildagi frazeologik birliklar, maqol, aforizmlar, iboralar, badiiy san'atlar ham til badiiyatida salmoqli o'rin tutadi;
- 6) Tovushlarning o'rni almashishi, qatorlashuvi hamda boshqa sohalarga oid atamalar va hakazo.
- 7) Ko'rinadiki, lingvistik poetika adabiy asar badiiyatini batafsil o'rganishning muhim sharti bo'lib, hozirgi filologiya ilmida tobora

kengayib bormoqda.

Nasriy asar tilining badiiyati o'zgacha, unga she'riyat mezonlari bilangina yondashib bo'lmaydi. Deylik, nasriy asar tilidagi ko'chimlar, turli uslubiy figuralar haqida gapirish bilan cheklansak, u haqda deyarli hech narsa aytmagan bo'lib chiqamiz. Zero, badiiy nasr tilining sehri, jozibasi chuqurroq qatlamlarda botindir. Taassufki, nasriy asar tilini badiiyatga doxil etuvchi nutqiy omillar va nutqdan tashqari hodisalar bizda yetarlicha o'rganilgani yo'q. Fikrimcha, bu nasriy nutqqa anchayin sodda, kundalik muloqot tiliga yaqin nutq deb, biroz mensimasdanroq qarash oqibatidir. Holbuki, bu — mutlaqo xato tasavvur. Axir, yaxshi nasriy asarlarni o'qiganimizda, ularda tasvirlanayotgan narsalarni go'yo "ko'rib", qahramonlarning gaplarini go'yo "eshitib" turgandek bo'lishimizning o'zi mo'jizadir. O'quvchini beixtiyor irreal olamga — badiiy voqelikka ko'chirgan, uni o'sha olam qonunlariga amal qildirib yashatgan narsa so'z, aniqrog'i, shu tabarruk ashyodan tarkib topgan matn hisoblanadi. Shunday ekan, adabiyotshunoslik ham tilshunoslik ham shu mo'jiza sirlarini ochib bermog'i, badiiy matni kognitiv aspektda — ham badiiy informatsiyaning hosil qilinishi va ham qabul qilinishi nuqtayi nazarlaridan tadqiq etishga kirishmog'i zarurdir. Badiiy matn strukturasi, nasr ritmi va uning rivoya ritmi yoxud tasvir predmeti bilan uzviy bog'liqligi; jumla qurilishining jarayon tasvirida bir turli, narsa tavsifida boshqa bir turli ekanligi kabi qator muhim masalalar borki, ular atroflicha chuqur o'rganilishi lozim.

XX asr boshlariga kelib so'zni o'z nutqiy tarkibida-badiiy asar kontekstida tahlil qilish, badiiy asar tiliga ham adabiyotshunoslik, ham tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashish, matnning nutqiy tarkibini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlarga keng yo'l ochildi. Badiiy matndagi lisoniy birliklarning qo'llanilishida qanday o'ziga xosliklar mavjudligi borasida bahs yurituvchi tadqiqotlar soni ko'paydi. B.A.Larinning 1925-yilda yaratgan semantik etyudlari "Badiiy nutqning o'ziga xos turi-lirika haqida" dastlabki tadqiqotlardan biri sifatida maydonga chiqadi¹³.

¹³ Ларин Б.А. Эстетика слова и язык писателя. — Л.: Худож.лит., 1974.-288 с.

V.P. Grigorev badiiy asar tilini lingvistik aspektda o'rganish masalasi qirqdan ortiq tilshunos va adabiyotshunoslarning qariyb oltmish yillik tortishuv va munozaralariga sabab bo'lganini, mutaxassislarning badiiy tilni o'rganish masalasida bir qarorga kelishlari qiyin bo'lganini alohida ta'kidlaydi¹⁴. Quyidagi bir necha iqtibos vositasida bu masaladagi g'oyalar, talqinlar kelishmovchiligi haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Masalan, V.V.Kojinov badiiy nutqni tilshunoslar tadqiq etishga qarshi chiqadi¹⁵. A.V.Chicherin adabiyotshunoslarni "o'z tilshunosligi"ni barpo qilishga chaqiradi¹⁶. A.A.Zvoznikov: "Poetikaning hududlari va predmeti to'g'risidagi masalani hal qilishda uning (poetikaning) lingvistika bilan aloqasi, uning adabiyot nazariyasida tutgan o'rni, uning badiiy nutq bilan, badiiy asar tili haqidagi fan bilan, shuningdek, lingvistik poetika yoki adabiyotshunoslik lingvistikasi deb nomlanuvchi soha bilan munosabatidagi asosiy yo'nalishlarni ko'rib chiqish foydali bo'lar edi"¹⁷, -deb yozadi. N.M.Shanskiy badiiy asar tilini o'rganish filologik analiz tarzida amalga oshirilib, bunday tahlil tilshunoslik, stilistika va adabiyotshunoslikning bilim hamda yutuqlarini o'zida mujassamlashtirmog'i lozim ekanini ta'kidlaydi¹⁸. M.A.Alekseyev, V.V.Vinogradov, G.O.Vinokur, B.A.Larin, L.V,Shcherba kabi filolog olimlar badiiy asar matnini xuddi ana shu tartibda o'rganish tarafdori sifatida maydonga chiqdilar.

V.P.Grigorev lingvistik poetikani filologiyaning mustaqil va muhim bir sohasi sifatidagi xususiyatlari nuqtayi nazaridan chuqur va atroflicha o'rganib chiqdi. U lingvistik poetikaning kelib chiqishi, hozirgi zamon filologiyasidagi mavqeyi, uning maqsadi, vazifalari, filologiya ilmining boshqa sohalari bilan munosabati masalalarini ishlab chiqdi. Uning fikriga ko'ra, lingvistik poetika filologiyaning tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlari erishgan zamonaviy yutuqlaridan foydalangan holda asar matni ustida tadqiqot olib boruvchi alohida sohasidir.

Uning xulosasiga ko'ra: "Lingvistik poetika lingvistik soha bo'lib qolavergani

¹⁴ Григорьев В.П. Поэтика слова. М.: Наука, 1979.- Б.9.

¹⁵ Кожин В.В. Об изучении художественной речи//Контекст. - М.:Наука, 1975, -С.254-258.

¹⁶ Чичерин А.В. Ритм образ. Стилистические проблемы. - М.:С. Писатель, 1973. -278 с.

¹⁷ Звозников А.А. Поэтика Пушкина в современных исследованиях// Русск. Литер., 1976. №3-С.197.

¹⁸ Шанский Н.М. Лингвистический анализ художественного текста.- Л.: Просвещение, 1990.-С.8.

...da, adabiyotshunoslik taraqqiyoti bilan uzviy boo'liqligi sababli adabiyot
...riyasi va adabiyot tarixining turli muammolarini keng ko'lamda hal etishga
...maklashadi hamda har-xil soha filologlarining hamkorligi uchun shart-sharoit
...g' diradi"¹⁹

Modomiki, lingvopoetika qorishiq atama ekan, uning mutaxassislari ham har
...tala fan sohasi vakillari bo'lishi mumkin deb o'ylaymiz. Ularning har ikki
...hadagi fan yutuqlaridan boxabar bo'lishlari zarurligi esa hech qanday e'tiroz
...g' dirmaydi. Avgustin: "Poetikani tushunmagan odam hech qachon yaxshi
...shunos bo'la olmaydi",- deya ta'kidlagan edi²⁰. Poetikani tushunish uchun esa
...adabiyotshunoslikka doir bilimlarga ega bo'lmoq zarur.

Ko'rinib turibdiki, badiiy asarning lingvopoetik xususiyatlarini aniqlash
...uchun 'maxsus bilim va tayyorgarlikka ega bo'lgan filologik yo'nalish
...taxassislarning nazariy jihatdan asoslangan maqsadli tadqiqotlari zarur.

Demak, bizningcha, lingvopoetika-lisoniy badiiyat, bu badiiyat til
...surlarining badiiyat mezonlariga bo'ysunishi natijasi o'laroq vujudga keladi.
Yirik rus filolog olimi G.Vinokur badiiy asar tili nima degan savolga jo'ngina qilib:
"Badiiy til deganda badiiy asarlar yozishda ishlatiladigan til tushuniladi deb yozgan
...". Tabiiy bir savol tug'iladi: badiiy asarlar yozishda ishlatiladigan til "umumxalq
...", "milliy til", "adabiy til" atamalari bilan yuritiluvchi, biz kundalik aloqa-
...aralashuvda foydalanadigan tildan boshqami, boshqa bo'lsa nimasi bilan
...farqlanadi? Bu savolga javob berish uchun har ikki til bajarayotgan funksiyalardagi
...farq va mushtaraklikka diqqat qilish zarur. Kundalik muloqotda ishlatiluvchi til
...ham, badiiy til ham informatsiya yetkazish va informatsiya olishga xizmat qiladi.
Biroq bu o'rinda o'sha yetkazilayotgan informatsiyaning tabiatiga diqqat qilish
...zarur. Muloqot tili yetkazgan informatsiya oddiy informatsiya bo'lsa, badiiy til
...badiiy informatsiyani yetkazadi, shunga ko'ra, muloqot tili aloqa-aralashuv vositasi
...bo'lsa, badiiy til badiiy muloqotning amalga oshishiga xizmat qiladi. Tilshunoslar
J. Azizov va G. Usovalarning qalamiga mansub "Adabiy tahlil nazariyasi va
...analizoti" risolasida: "...tahlil adabiy asarning badiiy mantig'iga singishish

¹⁹ Григорьев В.П. Поэтика слова. М.: Наука, 1979.- Б. 300.

²⁰ Любсон Р. Работы по поэтике. -М.: Прогресс, 1987. -С.12.

pad qilib qo'yilgan ilmiy izohdir" tarzida ta'rif beriladi. Badiiy asar tahlilining mantig'ini aks ettirish jihatidan J. Azizov hamda G. Usovalarning qarashlari diqqatga yaqinroq. Haqiqatan ham, "muallif obraziga yetishish" ham, "adabiy fikran qism va unsurlarga ajratish" ham o'z holicha badiiy tahlil mohiyatini aks ettira olmaydi. Ular badiiy mantiqni kashf etish, uni anglash yo'lidagi bosqichlardir. Biroq, yurtdosh olimlarning mazkur xulosalarida ham, bizning davrimizda, kichik bir yoqlamalik borday. Chunonchi, ularning ta'rifida hayotiy mantiqni anglash bosqichi ko'zda tutilmaydi. To'g'ri, badiiy adabiyot uchun estetik mantiq birlamchi ahamiyat kasb etadi, ammo bu holat adabiy asarlardan kelib chiqadigan hayotiy mantiqning muhimligini aslo inkor etmaydi. Shuning uchun badiiy asar tahlili tushunchasini xarakterlashda badiiy va hayotiy mantiq tushunchalari yonma-yon qo'yilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, badiiy asar tahlili tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Badiiy tahlil adabiy asarning badiiy va hayotiy mantiq'i hamda estetik jozibasini anglashga yo'naltirilgan ilmiy faoliyatdir. Adabiy tahlilga ana shu tariqa ta'rif berilganda, hodisaga xos deyarli barcha asosiy xususiyatlar qamrab olinadi deyish mumkin. Aslida "tahlil" atamasi arabcha "talala" o'zagidan kelib chiqqan bo'lib, "eritib yuborish", "murakkab butunni qismlarga ajratish" ma'nolarini anglatadi.

Qanday qilib badiiy til yetkazayotgan informatsiya badiiy informatsiyaga aylanadi? Bu savolga javob berish uchun poetik tilning spetsifik (belgilovchi) xususiyatlariga diqqat qilish zarur. Poetik tilning o'ziga xosligini belgilovchi eng muhim spetsifik xususiyatlari sifatida obrazlilik va emotsionallikni ko'rsatish kerak.

Poetik til deyilganda ko'pchilik (ayniqsa, adabiyotshunoslikdan yiroq kishilar) go'zal tashbeh-u istioralar yoxud boshqa tasvir va ifoda vositalari (ko'rsatish, metafora, ramz va h.) ishlatilgan, bezakdor, bo'yoqdor, jimjimador tilni nazarda tutishadi. Suhbat asnosi sal chiroyliroq, jimjimadorroq gapirgan kishiga nisbatan

bu'zan "juda badiiy qilib gapirarkanmi" tarzidagi ta'nalarni eshitib qolishimiz ham shu xil tushunishning natijasidir.

Badiiy asar tilini o'rganishda keng tarqalgan ikki asosiy yo'nalish mavjud. Bu ikki yo'nalishni X. Doniyorov va S. Mirzayevlar quyidagicha ta'riflaganlar: "Tildagi o'sish-o'zgarishlarni o'rganishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadigan aspekt- lingvistik aspekt, yozuvchining umumxalq tiliga bo'lgan munosabati, til boyliklaridan foydalanishi, yozuvchi mahorati, stili haqida xulosa chiqaruvchi aspekt-stilistik aspekt"²¹. Adabiy asar tilini lingvistik jihatdan o'rganishning nazariy masalalari G'. Abdurahmonov tomonidan mufassal yoritib berilgan²².

Ma'lumki, tilning kommunikativ, estetik, kumulyativ kabi bir qancha vazifalari bor. Har qanday badiiy asarda tilning kommunikativ vazifasi ham callashadi, ammo estetik vazifa birinchi o'rinda turadi.

Badiiy asar tilini o'rganishdagi ikkinchi, ya'ni "stilistik" yo'nalish tilning aynan estetik vazifasini tadqiq etishga qaratilgan. Tilning estetik vazifasi bevosita badiiy asar matnida namoyon bo'lar ekan, bu vazifaning o'ziga xos xususiyatlarini faqat tilshunoslik yoki faqat adabiyotshunoslik doirasida o'rganish qiyin. Buning uchun adabiyotshunoslik va tilshunoslik sohalari bir-biri bilan hamkorlikda ish ko'rishi lozim. Tilning estetik vazifasi masalasi bu ikki yirik fan oralig'idagi murakkab muammodir. Badiiy asar tilini aynan estetik vazifaning namoyon bo'lishi tarzida o'rganuvchi sohani "lingvistik poetika" – "lingvopoetika" deb nomlash filologiya ilmida ancha turg'unlashgan.

Har qanday badiiy asar tilida yozuvchining so'zga munosabati, so'z tanlash va so'z qo'llashdagi o'ziga xosligi muhim o'rin tutadi. Zotan, aynan so'zlarni, umuman, til vositalarini qo'llashda yozuvchining o'ziga xos uslubi namoyon bo'ladi.

Badiiy nutqda hatto o'zining to'g'ri ma'nosi bilan qo'llangan so'z lug'atdagi ayni shu so'z bilan aynan teng emas. U estetik butunlik bo'lgan yaxlit badiiy asar

²¹ Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати (Маҳорат ва тил ҳақида мулоҳазалар). Тошкент: Ўздабийнашр, 1962. Б. 173-174.

²² Абдурахмонов Ф. Адабий асар тилини ўрганиш ҳақида/Ўзбек тилини ўқитиш методикаси масалалари. Ф Тошкент, 1966

ni tarkibida boshqa soʻzlar bilan faqat semantik-grammatik jihatdangina emas, balki hissiy-estetik jihatdan ham munosabatda boʻladi.

Tildagi nominativ birliklarning maʼno tuzilishini oʻrganishda tilshunoslikda semantikaning konnotativ jihati tushunchasiga alohida eʼtibor qilinadi. V.N.Teliya taʼkidlaydi, “konnotatsiya- til birliklari semantikasiga usul yoki okkozional jihatda kiradigan, nutq subyektining borliqni jumlada ifodalashida uning ayni shu jihatga boʻlgan hissiy-baholash va stilistik munosabatini ifodalaydigan hamda maʼlum axborotga koʻra ekspressiv qiymat kasb etadigan mazmuniy mohiyat”dir²³. Konnotatsiya semantikaning ekspressiv qiymatga ega boʻlgan uzvi sifatida ifodalash jarayonlaridagi borliqni baholagan holda idrok qilish va aks ettirish usuli hisoblanadi. Tadqiqotchi M.A.Mamadaliyeva ham konnotatsiyaning ekspressiv vazifasi soʻzlovchining ifodalanayotgan predmetga subyektib munosabatini aks ettirish asosida taʼsir etish, taʼsirchanlikni taʼminlash ekanligini alohida taʼkidlaydi²⁴.

H.Neʼmatov va R.Rasulovlar oʻzbek tili leksikasini uzviy (komponent) tahlil asosida yoritish ekan, soʻz maʼnosining tarkibidagi ifoda semalariga “semema tarkibidagi atash semasidan tashqari turlicha qoʻshimcha maʼnolarni (uslubiy boʻyoqni, shaxsiy munosabatni, qoʻllanish doirasini) anglatuvchi semalar” deb taʼrif beradilar.

Til oʻzining estetik vazifasini bajarishida ayni shu ifoda semalari-konnotativ maʼnolar favqulodda muhim rol oʻynashi tabiiy. Konnotatsiya semalarining oʻz oʻrnida, badiiy tasvir maqsadiga tamomila muvofiq tarzda reallashishini taʼmin etish yozuvchi mahoratining darajasiga bogʻliq.

²³ Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц, - Москва, Наука, 1986, с.5.

²⁴ Мамадалиева М.А. Оʻzbek tilida nominativ birliklarning konnotativ aspekti. Filol.fanlari nomzodi...dis.avtoref.- Toshkent, 1998, 10-bet.

2. "Mehrobdan chayon" romani-o'zbek nasri lingvopoetikasini o'rganish obyekti sifatida

Ma'lumki, o'zbek milliy nasri o'zining muayyan tarixiy bosqichlariga ega. XIX asr boshida shakllangan tom ma'nodagi nasr namunalari, xususan roman va hikoyalari hozirgacha milliy prozamidagi salmoqli o'rin tutib kelmoqda. Hamza, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon nomlari bilan bog'liq nasrimizning ilk namunalari yangi o'zbek adabiyotining keyingi bosqichlarida jadal davom etdi, mavzu va uslub jihatdan takomillashdi. Yangi o'zbek nasrining 30-80 yillardagi rivojida G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor, Odil Yaqubov, Pirimqul Qodirov, Mirmuxsin, Shukur Xolmirzayev, Said Ahmad, O'lmas Umarbekov, O'tkir Hoshimov va boshqa adiblarning xizmatlari katta bo'ldi. Ular badiiy nasrning ocherk, hikoya, qissa, roman, epopeya kabi shakllarida mavzudagi asarlar yaratdilar va o'zbek adabiyoti xazinasini boyitdilar.

O'zbek adabiyotining yorqin siymolaridan biri Abdulla Qodiriy badiiy til mahorati o'ziga xos maktab yaratgan so'z san'atkoridir. Uning betakror til mahorati juda ko'p yozuvchilarga ibrat bo'lganligi va bundan keyin ham badiiy so'z olamiga qadam qo'yadiganlarning necha-necha avlodlari bu badiiy mo'jiza sirlaridan saboq olishi shubhasizdir.

Alohida ta'kidlash joizki, Qodiriy o'zining barakali badiiy ijodi bilan o'zbek adabiy tilining rivoji va boyishiga jiddiy hissa qo'shgan xassos adibdir. Uning she'riy, nasriy, dramatik, publitsistik va boshqa asarlarida o'zbek tilining go'zalligi, boyligi, tunganmas ifoda imkonlarini o'zini to'liq namoyon eta olgan. Bu asarlarni o'qiganda mahoratli adibning o'zbek xalq tili xazinasini nechog'li tugal egallaganligiga, betakror so'z ijodkori sifatida bu xazinadagi unsurlarni o'z badiiy mahoratiga muvofiq tarzda saylay bilganiga, tildagi tovlanishlarga yanada sayqal-ustalik bilan foydalana olganiga takror va takror amin bo'lmoq va hayratlanmoq mumkin.

Qodiriyning nasriy nutqdagi badiiy mahoratining na'munasi bo'lgan "Mehrobdan chayon" romani nafaqat yozuvchining estetik idrokini, balki yaxlit o'zbek tilining estetik mohiyatini ham namoyon eta oladigan asardir. Bu roman

ning lingvopoetikasini o'rganish asosida Abdulla Qodiriyning badiiy til shoratini ko'rsatish mumkin. Shu bilan birga bu go'zal romanning lingvopoetik adiqi usta so'z san'atkori tasarrufidagi o'zbek tili o'zining estetik vazifasini uchog'li mukammal bajarishini dalillaydi.

Qodiriy "Mehrobdan chayon" asarini 1928-yil 15-fevralda tugatgan, 1929-yilda u Samarqandda bosilgan. Abdulla Qodiriy "Mehrobdan chayon" asarida tarixiy haqiqatni, shaxslarni "ortirmay va kamitmay", "o'z holicha ko'rsatish", "yo'qni yo'ndirmay, bor gaplarni yozish" yo'siniga amal qilgan.

Tarixdan ma'lumki, 30-yillardagi "ma'shum shamollar" Qodiriyning ham o'z shahidiga tortib ketdi. Uni jisman yo'q qildilar, ammo u yaratgan ma'naviy boyliklarni yo'qotolmadilar. Adib yaratgan ma'naviy meros-uning nodir asarlari muvaffaqiyatga erishilganlikka dahldordir.

O'tgan davr mobaynida yuzaga kelgan nasr namunalarining muvaffaqiyatida shubhasiz xalq og'zaki ijodi, mumtoz milliy hamda jahon adabiyoti an'alarining ta'siri muhim omil bo'ldi. Natijada 50-60 yillardagi nasriy asarlar adabiyotshunoslik uchun boy manbaga aylandi. Bu manba tarkibida shubhasiz roman janri, xususan Abdulla Qodiriy romanlari alohida qiziqish uyg'otdi va ta'limga tortildi. Ammo, qodiriyshunoslarning 20-30 yillardagi taqrizlarida romanlarning lingvopoetikasi emas, g'oyaviy yo'nalishi, ijtimoiy talqiniga e'tibor qaratilgan edi. 1956-yildan Abdulla Qodiriy romanlari to'la holda nashr etila boshlangach, ularni xolis, o'z holicha o'rganishga yo'l ochilsa ham, bu ish ancha davom etdi. Qodiriy asarlarini o'rganish va targ'ib qilishda faol qatnashgan olim Izzat Sultonning katta o'rni bo'lsa ham u romanlarni asosan umumiy tarzda, metod asosida tekshirdi, lisoniy xususiyatlari yoritilmadi. "O'tgan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlari o'zlarining badiiyati, til boyliklarini ifodalashi, shu lingvopoetikasi bilan betakror asarlar bo'lib qolmoqda. O'zbek milliy muhojiranchiligina emas balki, badiiyati, lisoniy va estetik xususiyatlari, ayniqsa adabiy asarda so'z, ibora va birikmalardan foydalanish, xalq tili imkoniyatlarini shorat bilan qo'llanilishi jihatidan ham ibratlidir. Bu hol muallifning til va badiiyat ilmining yirik bilimdoni, so'z ustasi ekanidan guvohlik beradi.

Adibning "O'tgan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlari badiiy til mahoratining keng ko'lamli qirralarini aks ettirish namunasidir. Yozuvchi o'zining birinchi romanidayoq til xususiyatlari bilan badiiy asarga qo'yiladigan barcha talablarga javob bergan edi va roman tili soda, bo'yoqdor, ifoda va tasvir kuchi jumboq edi. Bu tajriba "Mehrobdan chayon" romanida yanada boyidi, adibning mahorat unsurlarini qo'llashdagi iste'dodining ko'lami kengaydi. Bu xususiyat, ya'ni romanning lingvopoetik fazilatlari, badiiyati, taniqli adabiyotshunos U.Normatov ta'kidlaganidek, yetarli tadqiq qilingan emas.²⁵ Darhaqiqat, muallifning har ikkala romani ham tarixiy mavzuda yozilgan bo'lsa ham, ularda muayyan fikrlar ham yo'q emas. Jumladan, "Mehrobdan chayon" romani hikoya tarzi, bayon-ifoda o'zgarishi tomonidan o'zgacha. "O'tgan kunlar" esa ko'p ohangli bo'lib, unda mazmun, tahliliy psixologik tasvir yetakchilik qiladi. "Mehrobdan chayon"dagi manzarada ham hujjatli proza, ham hajviy-yumoristik, ham liro-romantik uslub ko'rinishlari tutashib, alamashinib turadi. Bu hol asarning badiiy til tizimiga, ifoniy va estetik xususiyatlarida ham aks etadi.

So'z va so'z birikmalarining ma'noviy va uslubiy-struktural shakllarini qo'llash badiiy yuksaklikka erishsa romanning yutuqlaridan biridir. Bunda ayniqsa so'zning polisemantik (ko'p) ma'noliligi, majoziy xususiyati alohida o'rin tutadi. Bir so'zni ko'p ma'noda ishlatish hamisha mahorat belgisi bo'lib kelgan. Bu jihatdan buyuk Navoiy ijodi ibrat ekanini eslash o'rinlidir. Chunki ustoz shoir "ahl" so'zini 183 ma'noda, "bosh" so'zini 61, "gavhar" so'zini 42, "gul" so'zini 59, "jom" so'zini esa 101 ma'noda qo'llagan ekan.²⁶ Qodiriy romanida ham so'zning tajnislik xususiyatlari "gul", "ayol", "bog" kabi so'zlar talqinida ko'rinadi. Eng muhimi-so'zdagi majoziylik asarning boshidan oxirigacha davom etadi. Chunonchi romanning "Mehrobdan chayon" deb atalishida katta ma'no bor. Mehrob- eng ozoda saqlanishi zarur muqaddas joy. Chayon esa eng iflos va tashlandiq joylarni makon qiluvchi jirkanch, zaharli mahluq. Shuning uchun mehrobdan chayon chiqishi favqulodda bir hodisa. Sarlavhada "chiqibdi" yoxud "chiqqan" so'zlari yo'q, aniqrog'i ular shunday ham anglashiladi. Natijada ibora

²⁵ Qarang: Normatov U. Qodiriy mo'jizasi. Toshkent. O'zbekiston. 19... B.147.

²⁶ Salohiy D. Navoiydan nur// Kitob dunyosi. 1913-yil, 8-may.

qoqarib, ritm kuchayadi, ifoda kuchi oshadi. Bu sarlavha umumlashma ramziy obrazni ifodalaydi va muallif shu orqali mehrob obraziga ham, chayon obraziga ham munosabat bildiradi, so'zlarning lug'aviy ma'nosini estetik talqin etadi.

Zero, "Mehrobdan chayon" romani nasriy asar lingvopoetikasi tizimidagi barcha xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiruvchi asar. Unda badiiy matndagi lisoniy-fonetik, morfologik va semantik jihatlarni o'z o'rnida to'la qo'llanilganini, estetik jihatdan esa har bir so'z va iboraning badiiyat mukammalligiga qaratilganini ko'rish mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, nasriy asarning lisoniy tahlili badiiy matnning barcha qismlariga daxldordir. Shu jihatdan ushbu romanga yondoshganda avvalo epik bayonga xos badiiy tilning quyidagi holatlari aks etadi:

1) nasriylik (rivoyaviylik); 2) tasviriylk; 3) aniqlik. Bularning har birida tilga xos nasriy unsurlar qatnashadi. Ularda bu unsurlarning qorishiq holatlarini ham ko'rish mumkin. Masalan, she'riy parchalarning, ya'ni o'lchovli ohangning yoki dramaga xos dialog va monologlarning qisman uchrashini ko'ramiz.

Romanda tasviriylk va ifoda aniqligi, lisoniy va badiiy-estetik imkoniyatlar yorqin namoyish etilgan. Tasviriylk voqealar va personajlar talqiniga so'z orqali jziba bao'ishlaydi, epik bayonda uzviylkni vujudga keltiradi va kitobxonda yaxlit tushuncha hosil qiladi. Aniqlikda esa adib tildagi turli davr, voqea va shaxslarga mansub so'zlardan foydalanadi (davr-XVIII asr, voqea- Qo'qon xoni saroyi hodisalari, shaxslar- Xudoyorxon, munshiylar va boshqalar).

Badiiy asar tili nihoyatda murakkab va o'ziga xos hodisa hisoblanadi. Tilshunoslik, umuman, filologiya tarixida uni o'rganishga turlicha yondashib kelingan. Badiiy asar tili tadqiqi bilan bir umr shug'ullangan V.Vinogradov o'zining "Badiiy adabiyot tili haqidagi fan va uning vazifalari" nomli ma'ruzasida badiiy adabiyot tili to'g'risida gap ketganda, "til" so'zi ikki xil ma'noda qo'llanishini ta'kidlaydi, ya'ni; 1) u yoki bu milliy tilning sistemasini aks ettiruvchi "nutq" yoki "matn" (adabiy til tarixi, tarixiy grammatika va leksikologiya uchun tahlil material) ma'nosida; 2) "san'at tili", badiiy ifoda vositalari sistemasi ma'nosida.

Adabiyotning soʻz sanʼati ekanligi, uning birlamchi unsuri til ekanligi qoidadagi haqiqatni hech kim hech qachon inkor etgan emas. Kishilik tarixida adabiyot atalmish dunyoni obrazli idrok etish sanʼati yaralibdi-ki, bu sanʼatning asosiy ifoda vositasi boʻlgan soʻz, tilni tadqiq etishdek mashaqqatli yumush inson tasavvuri va tafakkurini muttasil band etib keladi.

Buyuk maʼrifatparvar adib Abdurauf Fitrat “Adabiyot qoidalari” qoʻllanmasida “Goʻzal sanʼatlarda tovar (materiyol) tovush, ohang boʻlsa, goʻzal sanʼat musiqiy boʻladir; boʻyovlar, chiziqlar boʻlsa, rasm boʻladir; tosh yo boshqa qattiq maʼdanlar esa, haykalchilik boʻladir; tosh yogʻoch, kirpich, ganj, tuproq boʻlsa, qimmatli boʻladir; tan, mugʻa (muqom, mimika) harakatlari esa, oʻyun (tans) boʻladir; gap, soʻz esa, adabiyot boʻladir” deb yozadi va adabiyotga shunday taʼrif beradi: “Adabiyot – fikr- tuygʻularimizdagi toʻlqunlarni soʻzlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu toʻlqunlarni yaratmoqdir”

Soʻzning maʼno jihatdan koʻlamdorligi ham til badiiyatining eng muhim omillaridir. Bular romanda quyidagi turlar shaklida uchraydi: xalq tili unsurlari, folklorga oid ifodalar, diniy soʻzlar, tarixiy voqealar sanalariga doir atamalar, soʻzlar, yangidan yasalgan soʻzlar, hikmatlar, turgʻun va yumoristik ifodalar. Bularni qoʻllashda adib oʻsha davrda isteʼmoldagi soʻzlarni oʻz holicha ishlatadi.

Maʼlumki, roman matnida sheʼrlar va sheʼriy parchalar ham mavjud. Nasr va romanning asardagi munosabati adib uslubiga bogʻliq boʻlib, sheʼrlar syujet va kompozitsiya, kompozitsiya va obrazlar tasviriga singib ketadi va romanga xarakterlik, emotsionallik bagʻishlaydi. Bu sheʼrlarsiz matn tugallik kasb qilmaydi. Eng muhimi nazm namunalari romanning umumiy til badiiyati, lisoniy-estetik qimmatini yaxlit tasavvur qilishga yordam beradi. Bunda ayniqsa tilning asosiy vositalar, badiiy sanʼatlar kabi hodisalari katta rol oʻynaydi. Yuqoridagi hodisalar romandagi personajlar xarakteri, nutqi va xatti-harakatlarini taʼsirchan taʼsirga xos talqin etishga xizmat qiladi.

Tahlil etilayotgan matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini romanda tutish ham yana bir tamoyildir. V.V.Vinogradov “Badiiy adabiyot tili haqida” nomli asarida taʼkidlaganidek, badiiy adabiyot tilining tarixiy harakatini

umumxalq tili hamda uning turli tarmoqlanishi tarixidan tamoman ajratilgan holda o'rganish mumkin emas. Badiiy matnning ikki turini farqlash mumkin: 1) zamonaviy matn (bugun yaratilgan), 2) tarixiy matn (o'tmishda yaratilgan). Zamonaviy matnning ham o'z navbatida ikki turini kuzatish mumkin, ya'ni: a) bugungi kun mavzusidagi zamonaviy matn, b) tarixiy mavzudagi zamonaviy matn.

Badiiy asar tilini umumxalq tilidan butunlay ajratib olgan holda o'rganib bo'lmazligi tabiiy. Ma'lumki, asrimiz boshidagi o'zbek tili va uning uslubiga forsiy, arabiy, usmonli turk, tatar tillarining ta'siri keragidan ortiq edi²⁷. Bu holat badiiy asarlar, publitsistik maqolalar tilida ham aks etar edi. Bu tabiiy ravishda har qanday adabiy-badiiy matnning tushunilishini qiyinlashtirar, ularning ta'sir kuchini susaytirar edi. Aynan shunday paytda ilg'or fikrli ziyolilar qatorida bo'lgan Abdulla Qodiriy tilimizning sofligini, betakror xazinasini saqlab qolish uchun o'z asarlari orqali kurashgan.

Badiiy asar tahlili juda qadim zamonlardan buyon ilm egalarining diqqatini tortib kelgan. Dunyo olimlari unga turlicha ta'rif berishgan. Badiiy tahlil kunchiqish adabiyotshunosligi ilmida ham azaldan muhokama mavzusi bo'lgan. Miloddan to'rt ming yillar oldin hind manbalarida bir adabiy matnni ming xil tushunish mumkinligi to'g'risida gap boradi. Forobiy, Ahmad Taroziy, Navoiy, Bobur singari turkiy mutafakkirlarning asarlarida esa badiiy tahlilga islomiy-turkiy yondashuv aks etgan.

San'at inson hissiy-intellektual va evristik faoliyatining oliy ko'rinishidir. Inson ma'naviyatini shakllantirish imkoniyatining kattaligi va odamga ta'sir qudrati miqyosiga ko'ra badiiy adabiyot san'atning boshqa turlari orasida alohida mavqega egadir. G'oyat ko'p o'lchovli murakkab butunlik bo'lmish badiiy adabiyot o'quvchi tomonidan o'qilib, his etilib, anglanib olingandagina ta'sirchan estetik-ma'naviy energiyaga aylanadi. His etilmagan, anglanmagan go'zallik ma'naviyatga ta'sir ko'rsata olmaydi. Shuning uchun ham adabiyot o'qitishda badiiy asar tahlili alohida

²⁷ Иўлдошев М. Чулпон сўзининг сирлари.- Т.: "Маънавият", 2002. 5-бет.

vqega, ahamiyatga egadir. Adabiy ta'lim oldidagi bosh maqsadga erishish uchun
olog mutaxassis badiiy asarni tahlillash yo'llarini puxta egallab olishi shartdir.

Yetuk badiiy matnlarning to'la anglanishi va badiiy tahliliga erishmay turib,
niyat miqiyosida barkamol shaxs shakllantirishni o'yash amalga oshmaydigan
zudir. Chinakam badiiy tahlil bo'lmagan joyda badiiy matn o'quvchining
yig'ulariga ta'sir etmaydi, binobarin, shaxs ma'naviyatining shakllanishiga xizmat
qilmaydi.

Bob bo'yicha xulosalar.

1. Lingvopoetika-badiiy asar tilidagi lisoniya va badiiy jihatlarni o'zaro aloqada tahlil qilishni talab qiladi. Badiiy asr tili tilshunoslar uchun ham, adabiyotshunoslar uchun ham tadqiq obyekti hisoblanadi.
2. Lingvopoetikada ikki xususiyat mavjud: birinchisi- lisoniy jihat bo'lib, unda so'zning shaxs, son, zamondagi holati, fonetik, morfologik, sintaktik, semantik xususiyatlari nazarda tutilsa, poetik xususiyatda so'zning asar qurilmasidagi o'rni, badiiyati, tasvir va ifodadagi ta'sirchanligi aks etadi.
3. So'z ikki xil ma'noga ega bo'ladi: 1) nomlash, atamalik (denotativ) ma'nosi;
2) qo'shimcha ekspressiv-emotsional (konnotativ) ma'no.
4. Lingvopoetikada so'zning ekspressiv, yani estetik ta'sir ko'rsata olishdagi **ahamiyati** va ahamiyati tahlilga tortiladi.
5. Qodiriyning nasriy nutqdagi badiiy mahoratining na'munasi bo'lgan "Mehrobdan chayon" romani nafaqat yozuvchining estetik idrokini, balki yaxlit o'zbek tilining estetik mohiyatini ham namoyon eta oladigan asarlaridan biri hisoblanadi va uning tili lingvopoetik jihatdan tahlil qilinishi o'zbek tilshunosligini yangi ilmiy ma'lumotlar bilan boyitadi.

II BOB. "MEHROBDAN CHAYON" ROMANIDA LEKSIK VA BARQAROR BIRIKMALARNING USLUBIY QO'LLANILISHI

1. "Mehrobdan chayon" romanida so'zlarning konnotativ ma'nolari

Abdulla Qodiriy so'z va ibora tanlash va ishlatishga nihoyatda mas'uliyat bilan yondashgan. U aytmoqchi bo'lgan fikrining aniq va ta'sirli bo'lishi uchun har bir so'zning turli muqobil (variant)larini qiyoslab, shulardan eng ma'qulini tanlaydi. Bu bilan u so'z va iboralarning shakl va ma'no uyg'unligiga e'tibor beradi, oddiy gaplarni obrazli ifodalar bilan almashtiradi. Masalan, "*bu vazifaga (munshiylikka) o'n, yigirma, balki o'ttiz yillab ko'zini to'rt qilib kelgan munshiyliklar, mufti va shoirlar bor*"(30) jumlasini tahlil qilib ko'raylik. Bu gap muhsiniga intilgan munshiylik haqidagi oddiy xabar emas. Ularning shu lavozimga e'tiborini o'z ichiga olgan "*ko'zini to'rt qilib*" iborasi orqali obrazli va ta'sirli ifodalangan. Agar bu ibora qo'llanilmaganida asarning til xususiyatiga ham, badiyatiga ham putur yetgan bo'lardi.

Navbatdagi gapdagi ibora qiyos, o'xshatishga daxldor bo'lib, unda personajning subyektiv fikri oldingi o'ringa chiqadi va umumlashma xarakter kasb beradi: "... baxt degan narsa yigitga butun umrida faqat bir marta qaraydi, agar shunda mahkam tutib qolmasangiz, hamisha otning keyingi oyog'isiz-da" (32). Bu o'rinda "baxt" va "ot oyog'i" so'zlari tayanch tushunchalardir. Lingvistik jihatdan bu gapdan iborat bu butunlikning birinchisida tasdiq, ikkinchisida shart, uchinchisida xulosa ma'nolari ifodalangan bo'lib, keyingi fe'l o'tlashgan fe'ldir. Poetika jihatdan esa umumiy fikr hikmatona bo'lib, baxtni rad etishning obrazli ta'kidini bildiradi.

Malumki, iboralar ikki yoki undan ortiq so'zlardan tashkil topadi. Muallif romanda ana shu qoidaga amal qilar ekan, iboralarning lingvistik va estetik jihatdan o'ziga xos bo'lishiga intiladi. Ba'zi bir iborada bir so'zni juft holda qo'llanishidan ham o'rinli foydalanadi. Masalan, "*Qush tilini qush bilar*" (38) iborasida "qush" so'zi ikki o'rinda takrorlanib, tub ma'noni chuqurlashtirishga imkon beradi. Bu ibora romanda quyidagi voqea bilan bog'liq. Yosh Anvarni

boqishga qiynalgan opasi Nodira ukasini Solih maxdum xonadoniga olib kelar
ekan, Mohlar oyim va Nigorga shunday deydi: “*Bir parcha nonlaringizni ayamay,
yetim boshini silasangizlar*”-deb keldim”. Bu iltimosni tushunib, muruvvat
ko‘rsatishga rozi bo‘lgan ikki ayol bilan Nodiraning iliq munosabatini yuqoridagi
ibora juda o‘rinli va ishorali ko‘rsata olgan.

Adibning mahorati bir so‘z yoxud iboraga katta ijtimoiy-badiiy ma’no
yuklashda ham yaqqol ko‘rinadi. Bunda u so‘zning ma’no qirralari, qochirim va
ko‘chma talqinlardan foydalanadi. Quyida shunday misollardan birini keltiramiz:
“Maxdum shu kungacha Anvar bilan Ra’nolarning to‘ylarini qilishga shoshmasdan
kelar edi... sababi mumkin qadar to‘yni uzoqqa cho‘zib, shu vositada *Anvarni
sog‘ish*. Chunki to‘y qilinsa, bu daromadning (Anvarning maoshi) qat’iyan
kesilishi ehtimoli bor edi” (81). Bu yerda “sog‘ish” so‘zi diqqatni tortadi. Bu so‘z
odatda sog‘in hayvonlarga (mollarga) nisbatan ishlatiladi. Adib uni insonga tadbiiq
etib, so‘z ma’nosini kengaytiradi va mahdun xarakterini yanada yorqinlashtiradi.

Quyidagi misolda boshqacha holatni ko‘ramiz. Unda bir so‘zning takrori
orqali lingvistik va poetik hamohanglik yuzaga keltirilgan. Anvar do‘sti
Sultonliga yozgan maktubini “Barakallo sizga, barakallo yangamizga, barakallo
odamgarchilikka” deya yakunlaydi (207). Ko‘rinadiki, oltita so‘zning uchtaida
“barakallo” so‘zi takrorlangan. Chunki unda asosiy ma’noga urg‘u berilgan.
Lingvistik jihatdan tugal fikrga, undov ohangiga ega bo‘lsa, badiiy jihatdan his-
layajonni, ekspressivlikni ko‘rsatadi. Bu so‘z o‘rnida boshqa so‘z yoki iborani
qo‘llash shunchalik kuchli ohang va ehtirosni ifodalay olmas edi.

Sinonimlar yozuvchining so‘z qo‘llashdagi individual xususiyatlarini
namoyon etuvchi muhim lo‘aviy birliklardir.

Romanda ma’nodosh so‘zlar muayyan maqsadga ko‘ra saralanib, badiiy
matnga singdirib yuboriladi. Chunonchi, buni maxdum ruhiyatiga oid bir lavha
tasvirida yorqin ko‘rish mumkin: Solih maxdum agar Anvar mirzaboshi bo‘lib,
katta mablag‘ olsa, undan ulish olishi o‘ylab, xavotirga tushadi, shunga intiladi. Bu
vaziyatdagi maxdum ahvolini “bezovtalandi”, “xavotirlandi”, “qisina boshladi”
kabi salbiy bo‘yoqqa ega ma’nodosh so‘zlar bilan ifodalash mumkin edi. Lekin adi

o'rniga "mablag'lar masalasi maxdumning ichini ari bo'lib talaydi" iborasini
'llaydi. Bu bilan, birinchidan, matnga obrazlilik bag'ishlasa, ikkinchidan,
x dum bezovtaligi kuchli va jiddiy ekanligini ifodalagan va kitobxon hissiyotiga
'sir ko'rsatgan.

Ma'nodosh so'zlardan ikki yoki undan ortig'ini ayni bir matnda aniq badiiy
qsadga bo'sundirgan holda qo'llash masalasida ham Qodiriyning mahorati
hida diqqatga sazovordir.

Qodiriyning asl til mahorati uning leksik ma'nodoshlikdan tasvir tiniqligi,
odadagi muayyan nuqtaga urg'u berish maqsadlarida foydalanishida yaxshi
o'rinadi. Masalan, quyidagi gapda "so'kmoq" so'zining bir nechta ma'nodoslari
ketma-ket qo'llanilganligi sababli ayni shu so'zga alohida uro'u, ta'kid beriladi:
*Maxdumning o'qug'uchi bolalar bilan muomalasi juda yaxshi edi. Savog'ini
almagan yoki sho'xliq qilg'an bolalarni har qancha so'kib, koyisa, do'q urib,
davara qilsa ham urmas, bu jihat bilan butun Qo'qon bolalarining muhabbatlarini
o'ziga jalb etkan edi.*

Sinonimlarning badiiy nutq jarayonidagi o'rni tushunchani turli darajalarda
ifodalashi bilan belgilanadi. Chunki sinonimik qatordagi so'zlar tushunchaning
belgisini turli daraja bilan ifodalanishi, emotsional bo'yoqdorligiga ko'ra
farqlanishi mumkin²⁸. Bu xususiyatlar esa badiiy asarda fikrni rang-barang
ifodalash imkonini beradi. Romanda iboralar ham sinonim sifatida ketma-ket
qo'llaniladi va matn ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi: "...Ra'no, o'rdadag'i
bo'kulib turg'an gunohsiz qonlar, doim tevarakdan eshitilib turg'an oh-u zorlar
manim yuragimni ezadir, tinchlig'imni oladir" (68-bet).

Roman lingvopoetikasida saj (nasrdagi qofiyalanish) usuli ham uchraydi.
Bunda tanlangan so'zlar o'zaro ohangdosh bo'lib, musiqiylikka moyil bo'lsa, ular
grammatik jihatdan ham o'zaro uyg'unlikka ega bo'lishadi (shaxs, zamon va
boshqalarda). Masalan, quyidagi parchani shu jihatdan tahlil qilaylik:
"Onhazratimning davlatlari kam, ko'zlarida nam, dushmanlarida zam, qadlarida
zam bo'lmasin" (138). Qiziqchining xonga aytgan bu so'zlarida to'rt so'z o'zaro

²⁸ Ходжиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. Т., 1974, 4-бет.

langan bo'lib, har biri uch tovush va bir bo'g'indan iboratdir. Ulardan birinchi va to'rtinchisi (kam, xam) ravish, ikkinchi va uchinchi (nam, zam) ot qurilmish turkumiga mansubdir. Poetika jihatdan bir xil hijo va ketma-ketlik matnga bog'lanish ravonlik va ohang bag'ishlagan.

Adib mahorati shundaki, u har bir so'z va iboralar orqali davr ruhini, turli madaniyatlardagi kishilarga xos xususiyatlarni aks ettirishga erishadi. Romandagi iboralar XIX asrda Qo'qon xonligida bo'lib o'tganligi sababli davr manzarasi bilan bog'lanadigan monand arxaik so'zlar talqinida yaratiladi. Bu esa voqelikni real tasvirlash, xalqning tarixiylikini ta'minlashga imkon beradi. Jumladan, ijtimoiy tabaqa ta'rifida saroyga dahldor quyidagi *arxaik so'zlarni* uchratamiz: *xon, sarkarda, darholon, shayx-ul islom, mufti, munshiy, rais, ulamo, qo'rboshi, dahboshi, darholonchi* va boshqalar.

Romandagi ayrim *arxaik so'zlar* o'zlarining zamonaviy variantlariga bog'lanadigan ma'noni chuqurroq va vaziyatga muvofiq yorqin va koloritni saqlagan iboralar ifodalaydi. Buni *mursak va chopon* so'zlarining qiyosida aniq ko'ramiz. Muallif yozadi: "*Gulshan bosh egib qulliq qildi. Eshik ochilib, qo'lida adrasak bilan Ahsan kirdi va Gulshan ustida to'xtadi*" (140). Bu o'rin *mursak* so'zining ma'nosidagi sovg'a belgisi *chopon* so'ziga nisbatan ancha ortiq va davrda keng tarqalgan edi. Ikkinchidan, "*mursak*" so'zida yuqori tabaqa iboralariga xos ehtiromi ifoda semasi ham mavjud edi.

Shuningdek, romanda *savm (ro'za), ibtadan (avval), ruku' (bosh egish), darababo (g'arib), mahzar (ariza), ko'ch (xotin), jevak, yumma, nahv, uhda, munshiy, oftobachi, qalamrav, itmon, o'bdon* kabi qator arxaik so'zlar uchraydi va davr o'sha davr og'zaki va yozma nutq xususiyatlarini aks ettiradi.

Romanda *shevaga xos so'zlarni* qo'llashda ham Qodiriyga xos yuksak iboralar, xalq tili tovlanishlarini teran anglash aks etgan. Asar voqealari Farg'ona hududida kechganligi sababli, roman tilida vodiya xos fonetik, morfologik va leksik xususiyatlar ustuvorlik qiladi. Muallif va personajlar nutqlarida leksik iboralar va selektizmlar tasvirda mahalliy koloritni ta'kidlashga xizmat qilgan. Quyida Xudoyorxon nutqidagi xususiyatlarni ko'zdan kechiramiz. Ma'lumki, Xudoyorxon

Qipchoq uruo'iga mansub shaxs. Shu bois uning nutqida qipchoqlarga xos so'z, haralar ifoda tarzi namoyon bo'ladi. Bu jihatdan uning Anvarni mirzaboshilikka yinlash va asar oxirida uni jazoga hukm etishdagi nutqlari xarakterli:

- *Ishlaring yoqshima, mirzo?,-so'radi xon.*

- *Duolari barakasida, qiblagoh,-dedi Anvar.*

- *Bu jigit bizning mirzolar orasida o'bdon ko'rildi,-dedi xon (67).*

U o'rinda uch so'z diqqatni tortadi: adabiy tildagi "yaxshimi?" so'zi qipchoqcha shevada "yoqshima" shaklida aytilib, "ya" o'rnida "yo" tovushi, "i" o'rnida "a" tovushi, "yigit" so'zida "y" o'rnida "j" tovushi qo'llangan. "O'bdon" so'zi ham shevaga xos so'z.

Ikkinchi misol: Xon Anvarga dedi:

-*Sen bizga xiyonat qilding, it uvli!*

-*Iqrorman!*

-*O'luvdan ham qaytmassan. Sening qig'on ishing pusilmonliqda bormi, it uvli?!... (235).*

U o'rinda quyidagi so'zlar qipchoqcha sheva namunasi bo'lib, xon nutqining o'ziga xosligini ko'rsatadi: "it uvli" ("o'g'li" o'rnida), "o'luv" ("o'lim") "qig'on" (adabiy.. "qilg'on" dagi so'zdan "l" tovushi tushirib qoldirilgan), "musulmon" so'zining "pusulmon" shaklidagi talaffuzi qipchoq shevasining yana bir ko'rinishidir. Yana bir jihat, "it uvli" iborasining ikki marta takrori xon g'azabi darajasini ta'kidlashga qaratilgan.

Romanda evfemizmlardan ham o'rinli foydalanilganligini kuzatamiz. Nigor oyim tomonidan aytilgan "Ra'noni egasiga topshirmag'uningizcha,..." birikmasi, ya'ni erga berguncha, oilali qilguncha kabi yuzlab ifodalardan ko'ra o'quvchiga kuchli ta'sir qiladi.

Abdulla Qodiriy romanda tilimizga xos nozik jihatlarni turli birliklar asosida o'ta sinchkovlik bilan yoritib bergan. Yozuvchining izohlovchilarga alohida e'tibor qaratishi ham bejiz emas. Izohlovchilar turkiy tillarda, jumladan o'zbek tilida o'ziga xos mazmun yuklangan sintaktik birliklar hisoblanadi. Ushbu birliklarning qo'llanish o'rni o'zbek tiliga xosligi bilan farqlanadi, ya'ni izohlovchilarning

o'qchiligi izohlanayotgan bo'lakdan keyin joylashadi. Qodiriy o'z qahramonining xarakter-xususiyati, dunyoqarashi, kasb-kori va xulq-atvorini yanada yaxshiroq ko'rib berish maqsadida izohlovchilardan ko'p foydalangan. U izohlovchilarni qo'ng'irlar ekan, nafaqat o'sha timsolga yoki xarakterga xos xususiyatlarni ko'rsatib berish uchun qo'llanib, balki asar syujetidagi voqealarni ham ko'rinmas mazmun ishlari bilan bog'lab beradi. Yozuvchi o'z asarida qahramonlarning o'ziga xosligini quyidagi izohlovchilar vositasida tasvirlagan:

1. Solih mahdum. *"Maxdum"*- arabcha, janob, xo'jayin; ishga oluvchi, yollovchi. Ulamo va ruhoniylar, pir va ustozlarga beriladigan unvon, laqab va shu unvonga ega bo'lgan kishi²⁹.
2. Mohlar oyim. *"Oyim"*- oqsuyaklarga mansub ayollarga murojaatda ularning nomiga, unvoniga qo'shib ishlatilgan yoki uning tarkibiy qismini tashkil etgan so'z³⁰.
3. Mirzo Anvar. *"Mirzo"*- "mirza" shaklida "yozuv-chizuv ishlarini olib borgan lavozimli kishi, savodli, o'qimishli odam. Yana bir ma'nosi: amirzoda, amir o'g'li.
4. Salim bo'yoqchi. *"Bo'yoqchi"*- kasbi bo'yoqchilik bo'lgan kishi. Masalan: "Shu yo'sin Salim boyoqchining mavridsiz laylaklari ichida bemahal g'urrak bo'lib Anvar ham yashay boshladi"(48-bet).
5. Salim bo'zchi. *"Bo'zchi"*- bo'z to'quvchi kosib. *"Safar bo'zchi ko'zida yoshi bilan Anvarni tabrik qildi"*.
6. Abdurahmon oftobachi. *"Oftobachi"*- xonlar saroyida xon, amir va uning mehmonlari qo'l yuvayotganda, ularga oftoba tutuvchi lavozimli shaxs³¹.
7. Darvesh xudaychi. *"Xudaychi"*- xon va amirning huzuriga ish va arz bilan kelganlar haqida xon, amirga xabar beruvchi va xon,

²⁹ O'zbek tilining izohli lug'ati. II jild. "O'zbek milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. T.: 2006. 559-b.

³⁰ O'sha manba. III jild99-bet.

³¹ O'sha manba. III jild160-bet.

amirning javobini ularga yetkazuvchi amaldor³². *“Anvar, xudaychi uchun ajratqan arizalarni qo‘lig‘a olib o‘rnidan turdi...”* (88-bet).

8. Ra‘no opa. *“Opa”*- o‘zidan katta, ba‘zan kichik ayollarga hurmat yuzasidan ularning ismiga qo‘shib ishlatiladi.
9. Anvar aka. *“Aka”*- o‘zidan katta er kishiga murojaatda yoki unga hurmat yuzasidan ishlatiladi (bunda yakka holda yoki nutq qaratilgan shaxsni bildiruvchi so‘z bilan qo‘llanadi)³³. *“”*
10. Mulla Abdurahmon. *“Mulla”*- o‘qimishli, taqvodor odam. O‘rta Sharq, Markaziy Osiyo mamlakatlarida madrasa ta‘limini olgan shaxs³⁴. *“Shu yo‘sin oshiqalar yor vasliga oshiqqandek mulla Abdurahmon ham o‘z shahriga yelib-yugurib yetdi”* (82-bet).

So‘zning ko‘pma‘noliligi badiiy asar lingvopoetikasining muhim xususiyatlaridan biridir. Zero, adib uslubining bir qirrasini ana shu hodisaga munosabatda aks etadi. Buni romandagi qator so‘zlarning turli ma‘noda qo‘llanilganligida ko‘rish mumkin. Hatto bunday so‘zlar badiiy matnda o‘zining aynan lug‘atdagi ma‘nosidan tashqari boshqa ma‘nolarni ham ifodalashi mumkin. Masalan, “gul” so‘zini olaylik, bu so‘z romanda eng ko‘p va faol ishlatilgan so‘zlardan biridir. Adib uni matnda boshqa so‘zlar tarkibida ham, yakka holda ham qo‘llash bilan unga semantik-grammatik jihatdan tashqari hissiy-estetik munosabatda ham bo‘ladi.

Gul o‘zakli so‘zning matn taqozosiga ko‘ra muallif va personajlar nutqida quyidagi shakllarda uchramiz: 1) Gulshan; 2) Gulchin; 3) Gulxan; 4) Gulzor; 5) Guliston; 6) Guli; 7) Gullar; 8) Lolagul. Ko‘rinadiki, “gul”ning asl o‘simlik ma‘nosi muayyan qo‘shimchalar bilan yanada kengaygan bo‘lsa ham tub ma‘no mohiyati saqlanadi. Bu so‘zga –shan, -chin, -xan, -zor, -iston, -i, -lar, lola qo‘shimchalari faqat “gul” so‘zi tarkibidagina lisoniy-badiiy vazifa bajaradilar va shaxs, ism (nom), tabiat hodisasi, o‘rin-joy, ko‘plik va belgi kabi xususiyatlarni

³² O‘sha manba. V jild, 555-bet.

³³ O‘sha manba. I jild, 60-bet.

³⁴ O‘sha manba. II jild, 634-bet.

laydi. Shuninhdek, forsiy izofa shakli ham uchraydi: *Guli Ra'no*.

Romanda bosh qahramonlardan biri Ra'noga nisbatan "Ra'no guli", "Guli Ra'no" so'zlari ko'proq muallif va Anvar nutqida uchraydi. Bu hol voqealaridagi fikr va tasvir talabiga ko'ra bo'lsa ham, mantiqan bu ikki so'zning ta'rifligi qiz go'zalligi ma'nosini qabartib ifoda etadi. Anvarning ruhiy holatidagi kichik ma'no-hissiyot tasviriga e'tibor beraylik: "Shubha ichida qizargan muhabbat g'unchasi visol xabari bilan ochilayozgandek va quruq tomosha bilan kechgan oy, bu kuni bugun Ra'no gulini iskash bashoratiga noil bo'lgandek edi". Bu o'rinda kichik ko'chma ma'no "gul iskash" tushunchasida mujassamlashgan. Zero, "G'uncha" o'simlik sifatidagi o'z ma'nosi nazarda tutilmaydi, balki Anvarning Ra'noga yetishish umidi- orziqib kutgani visol xushxabari yigitga gul iforini iskash yig'usi bo'lib tuyuladi. Bu tasvirda adib bir o'xshatish vositasini ham mahorat bilan qo'llaydi, ya'ni kutilmagan bu xabarni "qizargan muhabbat g'unchasi ochilayotgani"ga qiyoslab, badiiy-ruhiy tasvirni oshirishga erishgan. "G'uncha" va "Gul" so'zlaridagi mantiqiy yaqinlik mazmunga tabiiy ravishda singib ketgan.

Qodiriyning so'z tanlash va qo'llashdagi mahorati romanning barcha qismlarida voqealar bayoni, tabiat tasviri, obrazlar tavsifi, dialog-monolog va boshqalarda yorqin ko'rinadi. Muallif matn talabiga ko'ra har bir so'z va ibora ma'nosidan muayyan maqsadga erishish yo'lida foydalanadi. Bu jihatdan juft va takror so'zlarning talqini e'tiborga molikdir. Romanda 100 ga yaqin bunday so'zlar funktsioniy va badiiy funktsiya bajarishga qaratilgan bo'lib, har birining o'z o'rni bor. Ularni shartli ravishda ma'no ifodasiga ko'ra quyidagicha guruhlash mumkin:

- 1) Aynan bir xil ma'nodagi turli so'zlar juftligi: yig'lab-siqtab, qo'rqa-pisa, kam-ko'st, o'yin-kulgu, qaqir-ququr, o'ylab-netib va boshqalar;
- 2) Bir so'zning takroriy juftligi: tilab-tilab, yo'l-yo'l, entika-entika, maqtab-maqtab, sekin-sekin;
- 3) Zid ma'noli so'zlardan iborat juftlik: chiqar-chiqmas, achchiq-chuchuk, katta-kichik, yaxshi-yomon, sezilar-sezilmas, orqa-o'ng, ichki-tashqi, qishin-yozin, bosar-bosmas va boshqalar;

- 4) Nisbiy mustaqil ma'noli, lekin og'zaki nutqda ko'pincha birgalikda talaffuz qilinadigan ikki so'z juftligi: ko'rpa-yostiqliq, ust-bosh, yedirish-kiyintirish, nao'orachi-surnaychi, uy-ro'zg'or, gap-so'z, harsillash-gursillash, kayflanish-huzurlanish va boshqalar.

Yuqoridagi misollar sondan boshqa so'z turkumlariga mansub so'zlar bo'lib, **lar** orasida ot, sifat, ravish va fe'l turkumi namunalari ko'pchilikni tashkil qiladi. **nan** matnida son ma'nosidagi raqam bildiruvchi so'zlar esa juft so'zlar kabi **fis** (kichik chiziqcha-) bilan yonma-yon yozilgan bo'lsa ham ulardan har biri **di** miqdorni bildiradi. Masalan: besh-olti, yetti-sakkiz, to'rt-besh yil; bir-ikki **ro**taba; yigirma-o'ttiztalab. Juft va takror so'zlar adibga personajlarni **ividuallashtirish**, nutqiy o'ziga xosligini ko'rsatish, ijobiy va fojeaviy vaziyatlar **ratish**, ayrim narsa va hodisalarni ta'kidlashga xizmat qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ba'zan ikki va undan ortiq juft so'zlarni bir **ning** o'zida birdaniga qo'llashga to'g'ri keladi. Quyidagi misollar shundan **olatdir**:

- 1) Ikki marta takror: a) "Har kim o'z ulushiga tushgan osh-suvni qilib, kelinni o'rab-chirmab oladi, vassalom"; b) "Bahrom yelkasini qashib, kafshlik oyog'i bilan kafshsiz oyog'ini tap-chip, tap-chip yerga bosib ichkariga kirib ketdi"
- 2) Uch marta takror kelgan: a) "Mahdum maktabdorlikda yaxshi shuhrat qozonganidek, uy-ro'zg'orini, yurish-turishni, kiyim-bosh va boshqa taraflarini ham tuzatib oladi"(12-bet); b) "Chiqanlardan biri pak-pakana, yum-yumaloq, lo'nda-lo'nda bir maxluq edi"

Ko'rinadiki, ikki marta takrorlangan so'zlar ot va ravishdosh turkumlariga, **ch** marta takrorlangan so'zlar esa ot, ravishdoshdan tashqari sifat turkumiga oid **o**lib, mualiffning badiiy niyatiga, fikr oqimining talabiga ko'ra tanlangan.

2. "Mehrobdan chayon" romanidagi maqol va frazeologik birliklar tahlili

Adabiy asar tilini o'rganish filologiya fanining dolzarb masalalaridan biridir. Zero, u lingvistikaga ham, adabiyotshunoslikka ham bab-barobar dahldor. Bu sohada til muammosini lingvistik va stilistik (uslubiy) tadqiq etish keng tarqalgan. Bularning birinchisida muayyan tildagi tadrijiy evrilish, ichki jarayonlar, ikkinchisida til badiiyati, xalqning lisoniy imkoniyatlaridan foydalanish, adibning poetik mahorati tahlili asosiy obyekt hisoblanadi. Bu jihatdan xalqona iboralar, frazeologik tushuncha, maqol, matal, metafora va boshqa tasviriy vositalarga muhim masabat xarakterlidir. Atoqli adib Abdulla Qodiriy asarlari, jumladan, "Mehrobdan chayon" romani xalq tilidagi ushbu unsurlarni mohirona qo'llash namunasidir.

Ellik yetti bobdan iborat romanning har bir qismida xalq tiliga xos turo'un birlikmalar, aforizm, so'zning ko'p ma'noliligi (polisemiya), ko'chim talqinlarini uchratamiz. Ular epik bayon, personajlar nutqi, obrazlar tasviri va boshqa qismlarda o'rinli keltirilib, asrning tasirchanligi, ekspressivligi, obrazlilikini namoyish qilishga, badiiyligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Bu xususiyat romandagi ilk lavhadayoq ko'zga tashlanadi. Asar qahramonlaridan biri "Ra'no ukalarining loy o'yiniga ishtirok etar, yer supurib yotgan sochlarini tuproqqa belashganidan xabarsiz" ekanidan ranjigan otasi Solih maxdum qiziga:

...shu ukalaring bilan qilib o'lturgan ishingni kishi ko'rsa nima deydi. Insholloh, uy egasi bo'lishg'a yaqinlashib qolding. Endi tosh-tarozuni ham shunga qarab qo'yishing kerak, qizim."³⁵—deydi. Bu o'rinda xalqona iboralarning ikki shakli —so'zning turfa ma'noligi va turg'un birlikma o'z ifodasini topgan. "Uy egasi" birikmasida Ra'noning, birinchidan, balog'atga yaqinlashayotgani", ikkinchidan, "xonadon bekasi bo'lish"ga ishora anglashiladi. Adib bu holning mas'uliyatini obrazli tarzda "tosh-u tarozi" iborasini eslatish bilan ta'sirchan ifodalaydi, "tosh-u tarozi" talqida bekalik shart-u me'yori nazarda tutilishidan

³⁵ Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. Toshkent. "Yangi asr avlodi".2011.-B.5. (Keyingi o'rinlarda ushbu asrdan olingan misollarning sahifa raqami qavs ichida beriladi).

shqari, nasihat ohangi ham bor. Agar bu fikr shunchaki aytilganda, badiiylikka qisman putur yetardi. Ikkinchidan, "egasi" so'zining yana bir ma'no qirradi Ra'noning onasi Nigor oyimning quyidagi nutqida oydinlashadi:

"—Ra'noni egasiga topshirmag'uningizcha, quyulmaydirg'ang'a o'xshaydi"(5). Ko'rinadiki, bu o'rinda "egasi" so'zi bo'lajak kuyov ma'nosini anglatadi.

Romanda nisbatan ko'p ishlatiladigan iboralarning biri barqaror birikmalar — frazeologizmlardir. Ma'lumki, so'zning konnotativ (ko'chma) ma'noga ega bo'lib, so'zning o'z (denotativ) ma'nosiga qo'shimcha, stilistik va ekspressiv munosabatni bildiradi, hamda so'zlovchining shu fikriga bo'lgan ijobiy yoxud salbiy yondoshuvini ko'rsatadi. Masalan, Anvarni Ra'nodan o'ziga turmushga chiqishiga ruxsat so'rash lavhasida shodlik ma'nosining ifodasini ko'ramiz. Anvar qizdan rizolik so'zini eshitgandagi holatini adib shunday aks ettiradi:

"—Ra'noning bu so'zi Anvar ustidagi yukni ko'tarib tashlag'andek bo'ldi"(121). Bu o'rinda "yuk" so'zi orqali uning konnotativ ma'nosiga asosiy urg'u beriladi. "Yukni ko'tarib tashlash" iborasi qahramon ruhiyatidagi vaziyatni va voqea tadrijidagi muhim bir nuqtani ta'sirchan o'xshatish vositasida o'ziga xos tasvirlaydi.

Frazeologik birliklarning semantik doirasi nihoyatda keng. Unda taajub, hayrat, quvonch, nafrat, g'azab va boshqa ma'no qirralari aks etadi. Romanda xalq orasida va badiiy asarlarda nisbatan ko'p uchraydigan "Tarvuzi qo'ltig'idan tushib ketdi// Tarvuzi qo'lidan tushib ketdi" iborasi ikki o'rinda qo'llanilgan. Birinchisi, ijobiy qahramonlardan Sultonali, ikkinchisi salbiy personaj Tunqotar harakati bilan boo'liq bo'lib, afsus va o'azab tuyo'ulari ifodalanadi. Chunonchi, Anvarning do'sti Sultonali xonning "qiztopar" yugurdagi Gulshanni uchratib, undan Ra'no aqida xonga aytnaslikni so'raydi. Ammo ayolning "qizni yoqtirganimdan keyin ne andishalar ichida xonga kelib arz qildim" degan so'zlarini eshitgan holatini eslaylik: "Sultonalining tarbuzi qo'ltug'idan tushib, Abdurahmon va sheriklaridan g'ijing'an holda, Gulshan bilan xayrlashdi"(230).

Bu o'rindagi "tarvuz qo'tig'idan tushish" birikmasi birinchidan, kutilmagan

ziyatni, ikkinchidan, hafsalasi pir bo'lishi, taajub ma'nolarini o'zida jassamlashtirsa ham qahramon xarakteridagi maqsadga intilishni susaytiramaydi.

Navbatdagi misolda boshqacha holatni ko'ramiz. Hikoya qilinishicha, Ra'no Anvar o'z do'stlari yordamida xon ta'qibidan qochib Toshkentga ketadilar. Ularni xonga vaqtida keltira olmagan jallod tunqotarning g'azabli ruhiy holatini shunday ko'rsatadi: "*Tarbuzi qo'ltig'idan tushgan tunqotar yasovullarning qo'ltig'a tushib, tars-turs ko'chaga chiqdi*" (266). Bu o'rinda "tars-turs" so'zi personaj kayfiyatidagi g'azab hissini yana-da kuchaytiradi.

Qayd etilgan ikki misolda ham salbiy ma'no aks etib, uning lingvistik xususiyatlari quyidagicha:

1) turg'un birikmadagi "tarvuz", "qo'ltig'idan" so'zlari narsa, predmet ma'nosida emas, balki ko'chma ma'noda kelgan; 2) "tarvuz" – obraz maqsadini, "qo'ltiq" – uning vositasini, "tushdi" so'zi esa niyatning amalga oshmaganini anglatadi; 3) ot+ot+fe'l shaklidagi bu ifoda faqat bir tomonlama semantikaga ega.

Romandagi ayrim so'z va iboralarning o'z va ko'chma ma'nolari ham aks etib, ulardan birinchisi xira, ikkinchisi yorqin anglashiladi. Masalan, Solih Maxdumning Ra'no va Anvar Toshkentga qochib ketganidan keyingi g'azabli holatidagi "*Meni yerga qaratdi*" degan so'zlari xarakterlidir. (Uning "yuzimni yerga qaratdi" shakli boshqa asarlarda ham uchraydi). Bu o'rinda asosiy semantik turg'u "yerga qaratish"ga tushadi va u ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi: qizi qochgan otani hijolatda yerga qarashi tabiiy. Bu– birinchi ma'no; Ammo asosiy ma'no esa, el–yurt oldida nomusga qolish, sharmanda bo'lishni tashkil etadi. Shu bois "yerga qarash" iborasida ma'noviy ko'chim yetakchidir.

Roman lingvopoetikasida maqol, aforizm, frazeologik birikmalar katta o'rinda ega. Ular muallifning xalq tili imkoniyatlaridan mohirona foydalana olishi va asrni lisoniy va badiiy-estetik qimmatini oshira olganini ko'rsatadi. Asarda xususan maqol va hikmatli so'zlarni qo'llash ko'lami nihoyatda keng. Tadqiqotchi G. Permyakov maqollardagi quyidagi xususiyatlarni alohida ta'kidlaydi: "Bir tomondan, maqol-til hodisasi, ko'p jihatdan frazeologik oborotlarga o'xshab

adigan turg'un birikmalardir. Boshqa tomondan bular qandaydir mantiqiy birliklar bo'lib, tugallangan yoki tugallanmagan mulohazalarni ifodalaydi. Uchinchi tomondan esa, ular juda yorqin obrazli shaklda borliqning o'zidagi birliklarni umumlashtirib beruvchi badiiy minnatyuralardir".

Bu o'rinda maqollarning turg'un birliklarga yaqinligi ta'kidlanadi. Quyidagi misolda bu hol yaqqol ko'rinadi: 1) "Oson ishda lazzat yo'q"; 2) "Qordan qutulib, yomg'irga tutildik". Bularning birinchisi-*maqol*, ikkinchisi-*frazeologik birikma*. Maqol yaxlit holda tugallangan ma'noni ifodalaydi. U o'z ma'nosida ham, ko'chma ma'noda ham tugallangan ohang va mazmunga ega bo'laveradi. Romanda qo'llanilgan maqollar, asosan, o'z ma'nosida ishlatilgan. Uchinchi misol esa kontekstga ko'ra frazeologik birlik bo'lib, mazkur holatda tugallangan ma'noni ifodalay olmaydi, ko'chma ma'no uning mohiyatini bildirgilaydi.

Maqol va hikmatlar orasida o'xshashliklar mavjud bo'lsa ham ular o'zaro farqlarni inkor etmaydi. Jumladan, har qanday maqol qisqa, ixcham shaklga ega bo'lono fikr. Aforizmlar bu jihatdan ancha erkinroq. Ulardagi asosiy e'tibor ifodalalanayotgan fikrning ma'nosiga qaratilgani uchun ham shaklda chegara sezilmaydi. Maqol va aforizmlar orasidagi tafovutlar ularning ifodalagan ma'nolariga ko'ra ham farqlanadi. Maqollar, odatda, o'z va majoziy ma'nolarga ega bo'lgani holda hikmatlar esa o'z (tub) ma'nosidagina qo'llanila oladi. "*Fotihahuhri xudodir*", "*Kambag'allik ayb emas*", "*Banda hamisha ma'zur va xatolikdir*" kabi.

Maqollardagi ko'chim xususiyatlar ularni turli-tuman talqinlarda qo'llashga imkon beradi. Misol uchun "Sut bilan kirgan jon bilan chiqar" maqolini olib ko'raylik. U o'z ma'nosida qo'llanilganda insondagi bir biologik xususiyatning davomiyligini, faqat vafot bilan birga barham topishi mumkinligini anglatadi, ko'chma ma'noda esa bu xususiyatning shaxsga xos jismoniy, ma'naviy, ruhiy-aqliy va boshqa qirralarini ham qamrab oladi va asosan salbiy ma'noda tushuniladi. Romanda bu maqol Solih maxdum tilidan Anvarga nisbatan qo'llanilgan. Voqealardan ma'lumki, Solih maxdum Anvarning

bag'alparvarligini, odiiy odamlarga muruvvat ko'rsatishini yoqirmaydi, varning biror kambag'al bilan "ezilishib" o'tirganini ko'rsa, ichidan chig'lanib, past hamisha pastligini qiladi, "Sut bilan kirgan jon bilan chiqar", qoli ko'p to'g'ri so'z" deydi va ensasi qotib, chetga ketar edi".

Ushbu maqolning o'z ma'nosi bu o'rinda muhim emas. "Sut" va "jon" larining lug'aviy mazmuni mohiyatga majoziy ishorani anglatadi, ya'ni varning mazlum kishilar uchun hojatmandligi uning xarakterining asosizgarmas fazilati ekani uqtiriladi. Uning o'zgarmasligini esa faqat ushbu maqolgina yetarli va obrazli ifodalay olgan. Agar maqol boshqa ibora yoxud gap bilan alamashtirilsa, ma'no chuqurligi va tasvir obrazligi ancha xiralashgan bo'lar edi.

"Mehrobdan chayon" romanida maqol, hikmat va frazeologik birikmalar muallifning maqsadiga ko'ra turli o'rinlarda-voqealar bayoni, dialog, personajlar xarakteristikasi va tasvirda uchraydi. Ayrim lavhalarda esa ularni qorishiq holda qo'llanilgan. Bu jihatdan quyidagi talqin xarakterlidir. "Bir necha kundan beri Safar bo'zchi xursand edi, o'z so'zi bilan mulla Abdurahmon kabi bir kishining *svuga tushgan nondek* shilqillab qolishiga: "*Ko'rpangga qarab oyoq uzat, mullavachcha!*",-deb o'zicha kufib qo'yar edi. Kechta Samad bo'qoqni ko'chada ko'rib, piching etdi: "Mirzaboshimizning tagiga suv ketibdi-ya, gapingni to'g'ri qo'llashiga qara, Samad",-dedi va...- "*Bir qo'chqorning boshi ketguncha, minglab bo'qoqning boshi kesilar emish*" deb ayt domlangga",-dedi. Samad bo'qoq qo'llamadi". Bu qisqa parchada muallif nutqi ham, obraz (Safar bo'zchi) nutqi ham mavjud bo'lib, unda xalqona ibora va aforizmlarning bir necha turi mujassamlashgan:

- 1) Obrazli ibora: "*Svuga tushgan nondek shilqillash*" g'iybatchi Abdurahmonning ishdan haydalishi bilan bo'liq ahvolini achinarli ekanini o'xshatish san'ati orqali tasvirleydi;
- 2) Maqol: "*Ko'rpangga qarab oyoq uzat*". Bu maqol o'z ahvolini to'g'ri baholamagan, dimog'dor mullavachchaga yo'naltirilgan ogohlantiruvchi mulohaza ifodasi;

- 3) Frazeologik birikma: *Mirzaboshining tagiga suv ketibdi*. Baxil Samad bo‘qoq tomonidan Anvarga nisbatan aytilgan bu gapning misli chiqqanligi kinoya (piching) usulida eslatiladi. Suv ketish aslida bo‘qoq so‘zining bo‘hton ekaniga ishoradir;
- 4) Xalqona ibora yoxud qanotli so‘z: *Bir qo‘chqorning boshi ketguncha minglab qo‘yning boshi kesilar emish*. Safar bo‘zchi tilidan aytilgan Samadga aytilgan bu obrazli gapda Anvar Mirzoga xalq e‘tiqodining kuchliligi, uning bekorga tuhmatchilar xiylasiga qurbon bo‘lmasligi ta‘sirli aytilgan.

Qodiriy maqollarining lisoniy-estetik va badiiy-mantiqiy mohiyatidan kelib chiqqan holda mavjud xalq maqollaridagi an‘anaviy shaklni (qisqalik, ixchamlik, umlashma) saqlab, ularni goh qisman o‘zgartirib, goh ayrim so‘zni almashtiradi va yangi namuna yaratadi. Bunday maqol avvalo muayyan maqsadga, epik matn yoxud personaj xarakterini ishonarli va tasirli tasvirlashga qaratilgan bo‘ladi. Masalan, quyidagi parchada shunday yondashuvni kuzatamiz: “Safar bo‘zchi mulla Abdurahmonning bo‘shatilganligidan xursandligini izhor qildi va uning *labi gazarib* yurganini so‘zlab, Sultonalini kuldirdi.

- *Shunchalik holing bor ekan, dumingga qumg‘on bog‘lashing nima hojat edi, deb kulaman. Egri to‘nkaga-egri to‘qmoq”.*

Bu parcha mazmuniga salbiy personajni fosh etish ruhi singdirilgan. Shu bois “labi gazarib” yurishi iborasi juda o‘rinli bo‘lib, uning davomi keyingi ikki maqol bilan yanada kengayadi va tanqid ohangi kiradi. “*Dumiga qumg‘on bog‘lash*” iborasidagi ma‘no asli “*Sichqon sig‘mas iniga, supurgi bog‘lar dumiga*” maqolining o‘zgargan, biroz ixchamlashgan shaklidir. “Qumg‘on” so‘zi esa muallif tomonidan qo‘shilgan bo‘lib, “supurgi” bilan almashtirilgan va talqinga ijtimoiy urg‘u berilgan. Mullaning sichqon timsoli ochiq aytilmasa ham, o‘z-o‘zidan anglashiladi.

Mulla Abdurahmonning g‘alamisligi, ichi qora va iflosligi uchun ishdan dumi tugilganini “*Egri to‘nkaga-egri to‘qmoq*” maqoli juda to‘g‘ri va bekam-u ko‘st ifodalay olgan.

Romanda yuzga yaqin maqol, hikmatlar va xalqona iboralar uchrab, ularning biri tasodifiy keltirilgan emas, balki muayyan lisoniy va badiiy-estetik vazifa oʻtashini koʻrsatadi. Muhimi shundaki, ular avtor yoxud obrazlar nutqida bayon etilishidan tashqari nazariy hammasida muallifning maʼlum maqsadi aks etadi. Har bir maqol ijobiy yoki salbiy personaj xarakteriga monand tanlangan. Jumladan, asarda Sultonxonning “maʼmuriyatparvarligi” xususida gap borar ekan, uning ariqlar qurilgan, rabotlar, yangi oʻrda qurdirgan qayd etiladi. Lekin u tadbirlar avom uchun emas, balki *“oʻz kayfiyatiga qaraganda ham rus podshohiga jonlilik koʻrsatish, yaltirasin shaʼn-u shavkat bilan Fargʻonani oʻz qoʻlida saqlab qolish uchun edi”*, deb yozadi muallif va bu ishlarning mohiyatini *“Oʻchadigan charogʻ kabi oʻchadi”* maqolida ifodalaydi. Buning majoziy maʼnosi shundaki, har bir xato uchun urinmasin, xon zulmi barham topadi, chunki charogʻ kabi oʻchishga hukm etilgan. Toʻrt soʻzdan iborat bu maqolning orasida *“Oʻladigan kasal bir kimganday boʻlib koʻrinadi”* degan varianti ham uchraydi.

Adib nutqidagi maqollardan biri asarning ijobiy qahramoni Anvarning doʻsti Sultonali xarakterini koʻrsatishga aloqador. Maʼlumki, Sultonali Anvar bilan Anvarning oʻziga ishlovchi munshiy, chinakam doʻst va halol inson. U Anvar va Raʼno baxti uchun har qanday mushkulga tayyor. Yozuvchi bu xususiyatni Anvar va Raʼnoning Sultonali huzuriga kelgandagi vaziyatda taʼkidlab yozadi: *“Ikki orada kuchli qahramonlar oʻz doʻstlik bhabbat borligiga yana bir karra amalda qanoat hosil qilganidek, ularning doʻstlik qabulini qorongʻilikda koʻrdi. Yana shu ahvolda matonatini yoʻqotmay, doʻsting uchun qon yut”* maqolidagi kabi ularni qahramonlikda tabrik etdi”. Koʻrinadiki, bu oʻrindagi “Doʻsting uchun qon yut” maqoli Sultonali xarakterini Anvarning mohiyatini aks ettiradi. Toʻgʻri xalq orasida bu maqol koʻproq *“Doʻsting uchun zahar ich”* shaklida uchraydi. Lekin, adib “zahar” soʻzini “qon” bilan, “ich” soʻzini “yut” soʻzi bilan almashtiradi. Chunki romandagi voqea aynan shunday oʻzgarishni taqazo etardi, yaʼni, Sultonalining doʻsti uchun zahar ichishdan koʻra oʻlimga tikka borib, qon kechishga tayyoligi ishonarlilik va tabiiylik kasb etgan.

Romanda personajlar tilidan keltirilgan maqollar ham oz emas. Ular har bir obrazning ichki dunyoqarashi, xarakteri, ruhiyatini toʻlaroq ochishga xizmat qiladi.

Masalan, Solih maxdum nutqidagi maqollarda uning ta'magir, o'ta xasis, injiq, manfaatini ustun qo'yuvchi shaxs timsoli ekanligi namoyon bo'ladi. Ma'lumki, ar dehqon va kambag'allarga sahovat ko'rsatib, ishlarini bitirar, lekin evaziga narsa olmasdi. Bu esa Solih maxdumga yoqmas edi. U *"hatto ikki og'iz so'z qaytib chiqqan kishidan ham biror narsa undirishga tirishar, "mushuk bga tekin chiqmaydi" ... menga bir narsa tashlab ketsangiz, o'zim unga berib yarman"*, -deydi. Xalq orasida nihoyatda mashhur bu maqol o'z holicha tanilgan va maxdum ning to'laqonli obrazini tasavvur qilishga ko'maklashgan. Sh maxdum xarakteriga xos ta'magirlik, mansabparastlik illatlari uning deyarlik bir gapida muayyan darajada aks etadi va yuqoridagi maqolni qisman eslatib edi. Masalan uning o'z nutqida *"Qo'li sust kosibdan oyog'i chaqqon gadoy shi"*, *"Oshni sust yegan kishi ishda ham sust bo'ladi"*, *"Osilsang ham landlarga osil"* kabi maqollarni ko'p qo'llashi ham bunga misol bo'la oladi.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, muallif ko'pincha maqollarni gapning imini Grammatik jihatdan, ya'ni shaxs-son, zamon jihatdan ham asosiy matnga la moslashtiradi, maqolning mazmuniga xalal yetkazmagan holda matn qimasiga singdirib yuboradi.

Romanda ayrim maqollar alamzada muftilar tilidan arabcha keltirilgan. Biz ni muallif tarjimasidagi shakllarda izohalab o'tamiz: *"Shahodat mufti o'zicha Arslon changalzorda ochlikdan jon beradir, ammo itni qush go'shti bilan qadilar" desa, ikkinchi yoqdan Kalonshoh mirzo shu maqolning davomini zlab, "To'ng'iz huzur qilib to'shakda uxlaydir, oqillar tuproqda yotadilar" der f".* Ko'rinadiki, har ikkala maqol ham majoziy ma'noda bo'lib, "arslon", "it", "ong'iz", "oqil" obrazlari orqali jamiyatdagi nosozlik, adolatsizlik motivlari aks edi.

Ma'lumki, *aforizmlar* asosan mazmuniga donishmandlik ruhini singdirishga, ayyan fikrni dalillash va ijtimoiy ahamiyatini ta'kidlashga xizmat qiladi. Ular asida xalq ijodida asrlar davomida sayqal topib, keng tarqaladi, og'zaki va yozma nutqda qo'llaniladi. Romanda bunday an'anaviy aforizmlar bilan birga individual, ya'ni muallif yoxud obrazlar tomonidan aytilgan hikmatona fikrlar ham

emas. Ular asosan bosh qahramon Anvar Mirzoga tegishli bo'lib, uning kam inson, keng fikr sohibi, bilimli va adolatli oshiq ekanini gavdalantiradi. Aforistik fikrlarning bir qismi maishiy hayot, oila haqidagi qarashlardir: *"Xotinning charxi bilan o'chog'iga tegma"*, *"Xotinning boshi uy ichining og'ir"*, *"Oson ishda lazzat yo'q"*, *"Bo'ldi"* bilan *"bo'lar emish"* orasida katta bor." va boshqalar.

Anvar Mirzo tilidan aytilgan aforistik fikrlarning asosiy qismi ijtimoiy sivilizatsiya, inson sha'ni, adolatparvarlik, zulmga nafrat kabi masalalarga oiddir. Anvar Mirzodan xon Anvar sevgan qiz Ra'noni tortib olmoqchi bo'lganini eshitgan Anvar g'azablansa ham tushkunlikka tushmaydi, o'zini yo'qotmaydi. Balki zolimni fosh qiladi va o'zining bosiq, vazmin ekanini shunday hikmatli iboralar bilan bayon etadi: *"Xon xazmi har bir ifloslikni ham ko'taradigan katta bir hayvon. Uning tevaragida mayda hasharotlar ko'p, bular ham o'zlariga yarasha hayvonlik qilyadilar"*. Maqolga monand bu gapda xonni hayvonga, atrofidagi ayonlarni esa hasharotlarga o'xshashligi, ular ishini hayvonlik deb atalishi Anvarning original, qimmatli qarashi, to'g'rirog'i ifloslar haqidagi xulosasi aks etgan.

Anvar zulm qanchalik kuchli bo'lsa ham u Ra'nodan ajratishga qodir mas'uliyatiga ishonadi. Bu ishonchni u quyidagi ibratli fikrlarida ancha batafsil bayon qilgan: *"Yo'q! Majoziy ajralish-ajralish emas. Chunki biz bir-birimizga majoziy bog'langanmiz, haqiqiy bog'lanishni esa qat' etish ifloslar uddasidan kelmas"*. Bu fikrni davom ettirib Anvar o'zini ishq, visol va hijron haqidagi yangi qarashlari bilan boyitadi va Ra'no ko'ngliga taskin beradi: *"Ishq davosi avom yilagancha vasl emas-hajrdir. Zero, vasl ishq o'tini so'ndiruvchi, hajr esa yolg'irlotga erishtiruvchidir"*. Bu lo'nda, aniq gaplarda asosiy ma'noni "vasl", "hajr", "so'ndiruvchi", "erishtiruvchi" so'zlari ifodalaydi va ulardan ikkitasi lingvistik jihatdan bosh kelishikdagi ot bo'lsa, keyingi ikkitasi fe'l vazifasida ishlatilgan, poetik jihatdan zid ma'noni ifodalovchi tazod san'ati namunasidir.

Anvarga xos jasorat, do'stga sadoqat, o'limdan qo'rqmaslik, vijdonni yolg'irlash fazilatlari ayniqsa uning jazolanish-o'lim hukmiga doir lavhadagi mavzuda iflos Abdurahmonga qarata aytgan aforistik, chuqur ma'noli so'zlarida

yorqin va ta'sirlidir: *"Faqat siz ifloslik natijasida kulasiz, men...men to'g'rilik samarasini o'raman. Siz iflos vijdon bilan g'olibsiz, men sof vijdon bilan mag'lubman. Men kulaman. Chunki vijdon rohatda, jon tinch, yurakda ishq! Qabrim ustida ko'ksi dog'liq qizil lolalar ko'karar. Bu-Siz kabi tubanlar solgan iz!"* (301-302-bet).

Bob bo'yicha xulosalar.

1. Qodiriy romanida har bir so'zni tanlashga mas'uliyat bilan yondashib, aytmoqchi bo'lgan fikrining aniq va ta'sirli bo'lishi uchun har bir so'zning turli muqobil (variant)larini qiyoslab, shulardan eng ma'qulini qo'llagan, oddiy gaplarni obrazli ifodalar bilan almshtirgan.
2. Qodiriy romanda jonlantirish usulidan unimli foydalanib, uni mohirona qo'llab, yangi poetik timsollar yaratgan va asar ta'sirchanligini yanada oshirgan.
3. Adib romanda har bir personaj nutqida ularning xarakter-xususiyatlaridan kelib chiqib maqol va iboralarni qo'llagan, natijada ularning maqsad va muddaolari yanada yorqin namoyon bo'lgan.
4. Asardagi voqealar XIX asrda Qo'qon xonligida bo'lib o'tgan, ayni shu davr ruhini berish uchun adib arxaik so'zlardan unimli foydalangan.
5. Romanda ma'no ko'chimlaridan biri bo'lgan metaforaning go'zal namunalari yaratilgan. Ular yordamida kitobxonga yetkazilmoqchi bo'lgan fikr obrazli tarzda manoyish etilgan.
6. Romanda adibning o'ziga tegishli bo'lgan xususiy-muallifiy metaforalari o'zlarining takrorlanmas til xususiyatlari bilan ko'rinadi.

III BOB. "MEHROBDAN CHAYON" ROMANIDAGI TASVIRIY VOSITALARNING LINGVOPOETIK TAHLILI

1. "Mehrobdan chayon" romanida troplarning ishlatilishi

Abdulla Qodiriy faqat nasriy asarlarida (hikoya, qissa, romanlarida) emas, balki she'riy asarlarida ham xalq tilining boy imkoniyatlaridan, ularning lisoniy va badiiy shakllaridan mohirona foydalandi. Ma'lumki, she'riy asar ham, nasriy asar ham badiiy matnga asoslanadi. Lingvopetika hodisasi har ikkala matn uchun umumiy shart bo'lib, unda har bir janrga, adib uslubiga mos holda namoyon bo'ladi. O'z ijodini she'riyatdan boshlagan Qodiriy bu haqiqatni chuqur anglab asar tili badiiyatiga barcha asarlarida, jumladan romanlarida ham katta e'tibor berdi. Shu sabali uning she'riyatdagi ilk tajribalari nasrga o'tishda yanada boyidi va takomillashdi. Shu bois "Mehrobdan chayon" romanidagi lingvopoetika xususiyatlarini aniqlashda muallifning she'riy asarlaridagi izlanishlarini, ya'ni badiiy san'atlar, tasvir vositalarini chetlab o'tib bo'lmaydi. Ular haqida muxtasar ma'lumot berish birinchidan, Qodiriyning iste'dodli shoir ekanidan dalolat bersa, ikkinchidan, nasriy asar poetikasining she'riyat badiiyati bilan aloqasini ko'rsatadi.

Lisoniy tahlilning eng muhim tamoyillaridan yana biri yaxlitlikdir. Yaxlitlik talabi, avvalo, o'rganiladigan badiiy asarga istalgancha tarkibiy qismlarga ajratib tushlash mumkin bo'lmagan estetik butunlik tarzida yondashishni taqozo qiladi. Darhaqiqat, asl san'at yaxlitlikdan iboratdir. San'at asarining ichki butunligiga daxl qilinmagandagina uning mohiyatini anglash mumkin. Buning ustiga, tahlil yordamida barkamol shaxs ma'naviyatini shakllantirish ham ko'zda tutilar ekan, shaxs faqatgina yaxlit holda shakllantirilishi hisobga olinishi zarur. Chunki insonga avval aqliy, so'ng axloqiy, so'ngra jismoniy, undan keyin mehnat, undan so'ng vatanga muhabbat, ulardan keyin insonparvarlik tarzidagi sifatlarni singdirib bo'lmaydi. Inson yo turli omillar ta'sirida bir qator ma'naviy fazilatlar majmuiga ega yaxlit bir shaxs sifatida shakllanadi yoxud hech qachon to'la ma'nodagi shaxsga aylanolmay qolaveradi. Ezgu insoniy fazilatlarining biri ikkinchisini, albatta, taqozo qiladi, biri boshqasidan kelib chiqadi, biri o'zgasini keltirib chiqaradi.

Agar badiiy asarga mo'jizaviy bir butunlik tarzida yondashilmaydigan bo'lsa, uning sir-u jozibasi bir zumda yo'qqa chiqadi va adabiy asar o'ziga xos ta'sir kuzatidan tamomila mahrum bo'ladi. Tahlil qilinayotgan asarning barcha jihatiga muvofiq ravajakayiga sinchkovlik bilan yondasha bilish va uning qismlaridagi jozibani tahlil etishga e'ibor qaratish tahlilning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan omildir.

Badiiy asarning lisoniy tahlilida amal qilinishi zarur bo'lgan tamoyillardan birinchi tamoyil tizimlilikdir. Tizimlilik prinsipi yaxlitlik tamoyilining mantiqiy davomi bo'lib, tahlil kechimida badiiy asarni tashkil etgan unsurlarning muayyan tizimli bo'linishiga ega bo'lishi hisobga olinishini talab qiladi. Asl san'at asarida biri ikkinchisiga bog'liq bo'lmagan biror badiiy unsur uchramaydi. Demak, har qanday san'at asari tizimdir va u muayyan ost hamda usttizimlardan iborat bo'ladi. Har qanday badiiy butunlik nimadandir kichik, binobarin, qandaydir buturning qismi bo'lib, nimadandir katta, binobarin, qandaydir qismga nisbatan butun hisoblanadi.

Shuni ham aytish kerakki, ko'chim, portret, o'xshatish, peyzaj, mubolag'a, muqimchraytirish singari qator tasvir vositalari, turli-tuman badiiy san'atlar bir asar tarkibidagi mavjudligiga tasodifiy ravishda yig'ilib qolmaydi. Ularning ayni shu asarda, ayni shu tarkibda guruhlashuvining ichki mantiqiy-kommunikativ, tasviriy-ifodaviy qonuniyati mavjudki, tahlil mobaynida ayni shu qonuniyat ochilishi kerak. Shuning uchun ham tahlilni uyushtirishga tutingan mutaxassis tizimlilikka amal qilishi lozim.

Badiiy tilning tasviriyligi nasriy(epik) asarlarda yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Lirik asarlarda tasvirlangan tashqi manzara link qahramon ichki olamiga olib kiruvchi vositagina (ya'ni, unda voqelikning shu maqsadga yetish uchun zarur fragmentlarigina qalamga olinadi) bo'lsa, epik asarlarda tasvirlangan badiiy voqelik o'zicha mustaqil, obyektivlashgan manzaradir. Shu bois ham epik asarlarda tasvirlangan ijodkor ko'zi bilan ko'rilgan voqelik o'quvchi xayolida ham jonlanadi. O'quvchi asar voqealari yuz berayotgan joy, qahramonlaming xatti-harakatlarini go'yo ko'rib turadi.

Lirik asar tilining emotsionalligi ko‘proq lirik qahramonning konkret paytdagi lirik asarda badiiy vaqtning juda qisqaligi, “hozir” bilan belgilanishini e’tiborga olish zarur) kayfiyati, holati, kechinmalari bilan bog‘liq bo‘lsa, epik asarda emotsionallikning namoyon bo‘lishi o‘zgacharoq tarzda kechadi. Bunday emotsionallik birinchi galdan tasvirlanayotgan predmet mohiyati bilan bog‘liqdir. Epik asarda tasvirlanayotgan narsa, voqeaning o‘zgarishi barobari emotsionallik ham o‘zgarib boradi.

Badiiy nutq ikki shaklda: sochma(nasr) va tizma(nazm) shakllarda mavjuddir. Nasriy nutq tuzilishi jihatidan kundalik muloqot tiliga o‘xshash bo‘lsa, she‘riy nutq qaynagan bir o‘lchovga solingan, hissiy to‘yintirilgan nutq sanaladi. Nasriy nutq epik va dramatik asarlarning asosiy nutq shakli hisoblanadi. Shu bilan birga, she‘riy yo‘lda ham epik va dramatik asarlar yaratilishi mumkinligini unutmaslik kerak. She‘riy nutq esa lirik asarlarning asosiy nutq shaklidir. Badiiy nutq shakllari haqida gapirganda, uning yana ana monologik va dialogik shakllari ham farqlanadi. Monologik nutq shakli bir odam tilidan aytilayotgan nutqni bildirsa, dialogik nutq shakli suhbat-muloqot chog‘idagi bir necha kishining nutqini anglatadi. Lirik asarlarda monologik nutq, dramatik asarlarda dialogik nutq yetakchilik qilsa, epik asarlarda ularning har ikkisi ham keng o‘rin tutadi. Bunda muallif nutqi asosan monologik shaklda bo‘lsa, personajlar nutqi asosan dialogik shakldadir.

Navbatdagi masala — “badiiy til”, “adabiy til” va “milliy til” munosabati. Ma’lumki, umumxalq tili (milliy til) deganda o‘zbek tilida so‘zlashuvchilarning barchasi — yashash hududi, ijtimoiy tabaqaga mansubligi, mashg‘ulot turi va boshqalardan qat’iy nazar foydalanadigan til tushuniladi. Adabiy til deganda esa umumxalq tilining grammatik, imloviy va orfoepik jihatlardan me’yorlashtirilgan shaklini tushunamiz. Badiiy til umumxalq tili bazasida shakllanadi va qisman adabiy til me’yorlariga yaqinlashadi. Shu bilan birga, badiiy til adabiy til me’yorlaridan o‘rni bilan chekinadi(mas., shevaga xos unsurlarning ishlatilishi). Badiiy til o‘zida milliy adabiyotimizda uzoq davrlardan beri shakllanib kelgan an’analarning davomchisi sanaladi va shu bois ham unda uning o‘zigagina xos bo‘lgan unsurlar (an’anaviy sifatlashlar, ramz va majozlar, o‘xshatishlar) majmui

... mavjuddir. Badiiy matn-lisoniy va estetik xususiyatga ega. Bu xususiyat asar
...dagi san'atlar, tasviriy vositalar, ko'chimlar kabi umumfilologik tushunchalarda
... etadi. Darhaqiqat, "badiiy san'atlarda so'zlarning lafziy- ma'noviy bezaklari
...qat markazida turadi, tasvir vositalarining qo'llanishi adabiy asar tilini shirali,
...yoqdor, jozibali qiladi"³⁶. Qodiriyning she'rlarida va romanlarida bu holning
...qin ifodasini ko'ramiz. Chunonchi, ulardagi badiiy san'atlar asarda ifodalangan
...oyalarning hayotiy, ta'sirchan ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning
...qinroq gavdalantirishga, bayt tasvir va bayonning lafziy nazokati, his-
...yig'uni, ifoda musiqiyligi va o'qishligini ta'minlashga xizmat qiladi. Adib
...lamiga mansub nazmiy va nasriy matnlardagi badiiy vositalar esa obrazli
...rlashga, o'quvchi qalbini to'lqinlashtirishga, so'z mo'jizasini ifodalashga
...ratilgan. Bu hol shoirning ilk she'rlarida ham, "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan
...chayon" romanlarida ham ko'rinadi.

Har qanday badiiy nutq nazariyasida ko'chimlar markaziy figura sifatida
qaraladi, chunki ko'chmlarning aksariyati badiiy nutqqa emotsionallik,
ekspressivlik, ta'sirchanlik, obrazlilik kabi muhim sifatlarni beradi.

O'xshatishlar eng qadimiy tasviriy vositalardan biri sifatida nutqimizni,
ayniqsa, badiiy adabiyot tilini bezashda, tasvirning aniqligi va obrazlilikini
ta'minlashda foydalanib kelinadi. Bu muhim va keng qo'llanuvchi vosita tilimizda
xalqimizning tarixiy-madaniy tajribalari, badiiy tasavvurlarining natijalari sifatida
yuzaga kelgan bo'lsa, badiiy asarda so'z ustasining kuzatuvchan ziyrak nigohi
teran va badiiy didining mahsuli sifatida yuzaga keladi.

O'xshatishlarning lisoniy, mazmuniy va uslubiy xususiyatlari o'zbek
tilshunosligida ancha keng tadqiq qilingan. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra har
qanday o'xshatish tilda ifodalanar ekan, albatta, to'rt unsur ko'zda tutiladi, ya'ni:
1) o'xshatish subyekti; 2) o'xshatish etaloni; 3) o'xshatish asosi; 4) o'xshatishning
shakily ko'rsatkichi. Bu yerda yana shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, har qanday
o'xshatishning lingvopoetik asosini o'xshatish etaloni tashkil etadi.

O'zbek tilida o'xshatishlar ayni shu etalonning original yoki original

³⁶ Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent. O'qituvchi, 2002. B. 324.

ligiga ko'ra an'anaviy va xususiy-muallif o'xshatishlariga ajratiladi. chunki, nutqimizda *ayiqday qo'pol, qo'yday yuvosh, tulkiday ayyor, paxtaday toshday qattiq* kabi bir qator o'xshatishlar bor. Bu o'xshatishlar og'izdan-og'izga, asrdan-asrga o'tib kelayotganligi uchun ham ularning o'xshatish etalonlari o'z originalliklarini yo'qotib, an'anaviy tus olgan.

An'anaviy o'xshatishlar ko'p ishlatilaverib, o'z oxorini yo'qotgan, o'xshatish etalonlari tegishli tushunchalarning doimiy ifodachilariga aylanib qolganligi tufayli avvaldan bilingan, kutilgan tasviriy vosita sifatida o'z obrazlilik, emotsional-ekspressivligini kamaytirgan bo'lishi tabiiy.

"Mehrobdan chayon" romanida bunday an'anaviy o'xshatishlarni ko'plab ishlatish mumkin. Masalan, "*...Uning yonida bo'z yaxtak bog'ichini osiltirib, andalakdek bo'qog'i bilan o'ng tomog'ini ziynatlagan o'rta yashar yana bir husni Yusuf*" ko'rinar edi. Uning qatorida *oshlovdek cho'ziq yuzlik, oq bo'z bo'ylagi yerda to'rt enlik ko'tarilib, bo'z sallasi gardani aralash o'ralg'an chunchi nozanin o'lturar edi*" (70-bet).

Odatda bir predmet-holat boshqasiga muayyan bir belgiga ko'ra emas, balki butunicha, to'laligicha, aynan o'xshatilmog'chi bo'lsa, o'xshatish asosi bevosita ifodalanganmaydi. Bunda o'xshatishning shakily ko'rsatkichi sifatida ko'pincha o'xshamoq fe'lidan foydalaniladi: Yurtning vajohati buzuq, taqsir. Gap ko'tarmay qoldi. Asad oyida ro'za tutgan bangiga o'xshaydi, taqsir. Misolda asad oyida ro'za tutgan bangi birikmasi o'xshatish etalonini ifodalagan.

Romandagi o'xshatishlarning aksariyatida o'xshatish asosi harakat-holatdan iborat, ya'ni fe'l turkumidagi so'zlar (ko'pincha, ularga boo'langan boshqa so'zlar bilan birgalikda) bilan ifodalangan. Bunday bo'lishi ham tabiiy, chunki u yoki bu belgiga qaraganda, harakat-holatni ifodalash, ko'rsatish, butun o'ziga xosligi bilan tasvirlash murakkab. Albatta, bunda ham yozuvchi tomonidan tanlanadigan o'xshatish etalonining kutilmaganligi, yangiligi muhimdir: "*Shamol dam ko'tarilib, dam bosilar edi. Shamol asnosi gullar ham kelinlar kabi har tomong'a egilishib salom berishib olar edilar*"(102-bet) misolida gullarning shamolda egilishi "kelinlarning salomga egilishiga o'xshatilgan, ya'ni o'xshatish asosi

harakat bo'lib, u *egilmoq* fe'li bilan ifodalangan. *Kelinlarning egilib salom berishi* o'xshatish etaloni sifatida tanlanishi, avvalo, harakatning nozikligini aniq tasvirlash imkonini bergan, qolaversa, etaloning kutilmaganligi tasvirga ekspressivlik baxsh etgan.

Adib ko'p hollarda harakatdagi yoki muayyan holatdagi o'xshatish etalonlarini tanlaydi. Bu harakat yoki holat ko'pincha sifatdosh yoki sifatdosh oboroti orqali ifodalanadi va bu sifatdosh yoki oborot bevosita etalonni ifodalaydigan bo'lakka aniqlovchi bo'lib keladi. Masalan: *Maxdum, Eshonxonadan yurib kelgan oyoq tovushini eshitib, yomanlag'an otdek qirchiladi. Eshon bo'lsa hamon bulbul kabi sayrab borar edi. (164-bet)* Bu o'xshatishning ma'no-mazmuni shu qadar to'q va ta'sirchanki, Qodiriyning til rangisidan, tilni qahramon ruhiyati va milliy tasavvur bilan uyg'unlashtira olishdan ayratga tushmaslik mumkin emas.

Bir narsa boshqasiga aynan, butunligicha, o'xshatilganda, o'xshatish asosining qo'llanmasligi asosiy holatdir. Bunda, aytish mumkin bo'lsa, fotografik tasviriylilik yuzga keladi, ya'ni o'xshatilgan narsa ko'z oldimizda gavdalanadi: *"Sirlar bilan turlangan qoziqlarning biriga beva xotinning dekchasidek bir salla qilingan edi."* (267-bet).

Romanda metaforalarning ham ko'p o'rinlarda qo'llanilganligini ko'rish mumkin. Metafora aslida nomi yo'q bo'lgan narsa-tasavvurlarga nom berish, ularni atashning eng muhim vositalaridan biridir. Ammo bu vositadan foydalanish faqat ana shu ehtiyojgagina bog'liq emasligini, u inson tabiatidagi obrazli ifodaga o'chlik bilan aloqadorligini, nomi bor narsalarni ham metaforik yo'l bilan ifodalashga insonda ichki bir tabiiy intilish mavjudligini mutaxassislar alohida ta'kidlaydilar. Metaforalar, ayniqsa, xususiy-muallif metaforalari ko'proq estetik maqsad, ya'ni borliqni subyektiv munosabatni qo'shib ifodalagan holda nomlash asosida yuzga keladi. Shuning uchun ham ularda hamisha konnotativ ma'no mavjud bo'ladi. Romanda an'anaviy metaforalar ham, xususiy-muallif metaforalari ham juda katta mahorat bilan qo'llangan.

Konnotativ ma'noning hosil bo'lishida ko'chimlarning muhim rol o'ynashini

aloqida ta'kidlagan tadqiqotchilar quyidagicha yozadilar: "Metafora orqali ma'no ko'chishida konnotativ ma'no yorqinroq aks etadi. Masalan: *ot, eshak, qo'y, ho'kiz, it, bo'ri, yo'lbars, tulki, boyo'g'li, musicha, burgut, lochin, qaldirg'och, bulbul* kabi hayvon va qushlarning nomlari bo'lgan ot leksemalar mavjudki, bu so'zlar o'z ma'nosidan tashqari ko'chma ma'noda juda keng qo'llanadi. Otning baquvvatligi, eshakning aqlsizligi, ho'kizning farosatsizligi, itning vafodorligi, mushukning epchilligi, burgutning changali, burgutning ko'zining o'tkirligi kabi tipik xususiyatlari boshqa predmetlarga nisbatan metaforik usulda ko'chiriladi, natijada konnotativ ma'no yuzaga keladi hamda matnning ta'sirchanligi oshadi".

"Mehrobdan chayon" romanida an'anaviy metaforalar ham, xususiy-muallif metaforalari ham juda katta mahorat bilan qo'llangan.

Qodiriy romanda an'anaviy metaforalarga ham o'ziga xos badiiy-estetik yuk qo'ya bilgan. O'zbek tili an'anaviy metaforalarga juda ham boy, unda o'zbek xalqi tashqi dunyoni, insonniy botinini dunyosini nozik badiiy tafakkur bilan idrok etishi go'zal shakllarda o'z ifodasini topgan. Masalan: "*Omin de, ho'kizlar!-dedi. Ular "omin-omin" deb turdilar.*" (182-bet), "*Bu xon yo'q, bu dayus!...*" (287-bet).

Qodiriyning o'zigagina xos bo'lgan xususiy-muallif metaforalari tasvirning tiniqligi, obrazlilik vat a'sirchanligini ta'minlash uchun xizmat qilgan: "*Ra'no uyalib, boshini chaqaloqning bag'riga tiqib oldi*", "*Madalixon ham shu qizning dardida necha yillar yonadir*", "*Sultonali yengil kulib qo'ydi*", "*-Shu bevafo dunyoga bir ish qilamiz, Qobilboy, -dedi yana ko'zi olalangan Rahim.-Dayusingni zindoni qayerga?*".

Tasviriy vositalarning orasida eng ko'p qo'llanadigan va badiiy nutqda, badiiy asarlarda juda qadimdan ishlatilib kelinadigan turi *jonlantirish* hisoblanadi. Ma'lumki, jonlantirishda insonga xos xususiyatlar hayvonlar, jonsiz predmetlar va tabiat hodisalariga ko'chiriladi. Ayrim adabiyotlarda jonlantirish metaforaning turi sifatida ta'riflansa³⁷, ayrimlarida allegoriya va apostrofaga o'xshab ketishi, ular o'rtasidagi farqlar ko'rsatib beriladi.³⁸

³⁷ Shomaqsudov A., Rasulov I., Rustamov H. O'zbek tili stilistikasi. Toshkent, 1983. 245-b. O'rinboyev B., Qo'g'urov R., Lapasov J. Badiiy tekstning lingvistik tahlili. Toshkent, 1990. 31-b.

³⁸ Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari. Toshkent, 1992. 108-b.

Jonlantirishga o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan mustaqil tasviriy vosita sifatida qarash ham o'rinli. Sababi, unda insonga xos harakat, his-tuyg'u, so'zlash, harakatlash jonsiz predmetlarga ko'chirilsa ham, lekin ular orqali inson tushunilmaydi. Jonsiz predmetlar inson kabi harakat qiladigan, so'zlaydigan qilib tasvirlanadi. Bu usul orqali yozuvchi tasvir obyektini bo'rttirib, jonlantirib, yorqin va ravshan tasvirlab berish imkoniyatini yaratadi.

Beqiyos adib Abdulla Qodiriy o'z asarlarida jonlantirish usulidan unumli foydalanib, uni mohirona qo'llab, yangi poetik timsollar yaratishga erishgan. Adib xususiyat, harakat, belgini jonsiz narsalarga ko'chirib tasvirlashning hech kimda qilmagan ko'rinishlarini yaratgan. Bunday san'atkorona tasvirlarni yozuvchining "Mehrobdan chayon" romani ham ko'plab uchratamiz. Bu misol, ayniqsa, Solih maxdumning kiyim-boshi tasvirida yanada jonliroq ifodalanganligini ko'rish mumkin:

*"Yetti qishdan beri guppi-chopon yangilagani ma'lum emas, faqat qish kelib ketgan savin alak guppining yengi o'zgaribkina turadir va astari yil sayin yangidan yangi yamoqlar bilan boyidir, shu guppi butun umrida birgina harotaba va shunda ham maxdumdan beruxsat ammo, Nigor oyimning zo'ri bilan bog'oraga tushib cho'mildi. Bu kunda bo'lsa to'rt yil burung'i g'usli³⁹, yetiyillik tasi, turlik-turlik yamoo'I bilan sakkizinchi qish maxdum pochchasig'a sodiqona xizmat qilish uchun bog'joma ichida o'ziga kuch yio'ib yotadir"*⁴⁰. Bu misollarda jonlantirishning shaxs bilan bog'liq turi-tashxis qo'llanganini ko'ramiz. Adib bu vosita orqali samimiy kulgi uyo'ota olgan.

Romanda insonga xos xususiyatlarning jonsiz predmetlarga mohirona ko'chirilganini ko'ramiz:

"Ra'no kelib Mansurni turg'izdi va kiyimiga o'lturgan changlarni qoqti..."
(31-b.).

Asarda tabiat tasvirini ifodalashda ham jonlantirish usulidan ustalik bilan foydalanilgan: *"O'n ikki- o'n uch kunli oy ko'kning sharqi, janubi qismidan*

³⁹ G'usl-yuvinish.

⁴⁰ Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. Toshkent. "Yangi asr avlodi".2011.-B.14. (Keyingi o'rinlarda ushbu asrdan olingan misollarning sahifa raqami qavs ichida beriladi).

...sizgina bo'lib ko'tarilib kelmakda, quyosh botqan sayin uning chehrasi har zamon ochilib bormoqda edi". (114-b.). Bu matnda quyosh botishi bilan o'n ikkinchi kun uch kunlik oyning yanada yorqinroq namoyon bo'lishini tasvirlashda oyga xos chehrasi ochilishi holati ko'chirilgan va bu bilan matn ta'sirchanligi yanada oshgan.

Quyidagi misolda ham jonlantirishmatnning ta'sirchanligini yanada oshirish maqsadida qo'llanilganini ko'ramiz: "... Sufa ustidagi so'ri har zamon to'rt tomonga chayqalib, o'z ostida o'tirg'uchilarning betlarini goh ko'rsatib, goh yashirib, ular bilan o'ynashqandek tevarakka husayni g'ujumlarini bir-ikki bora tashlab tashladi". (119-b.).

Ayniqsa, asarning Ra'no bilan Anvarning ilk yashirin uchrashuvi tasvirlangan bobida jonlantirish vositasidan shu qadar mohirona foydalanilgan-ki, asarda kechayotgan voqealar kitobxon ko'z o'ngida sodir bo'layotgan kabi tasavvur uyo'otadi:

"Ra'no Anvarning qarshisig'a o'turdi. O'turishi bilan kuchlik shamol yurib boshidagi ro'molni uchurdi va olib borib Anvarning betiga yopti". (120-b.).
"... Shamol go'yo ko'maklashkan kabi orqadan esib, Ra'noni Anvar tomonga mayl etdirar edi. Terak orqasida qolg'an oy ham kuchlik yelning ko'magida terak boshidan bularga mo'ralab oldi. Ikki yoshning hozirgi holini yaqidan tomosha qilmoqchi bo'lg'an tussiz bir yulduz ko'k sahnining yerga yaqinroq qismig'a uchib tushdi...". (122-b.). Bu kabi tasvirlar shubhasiz adibning borliqqa o'zgacha bir shoirona nigoh bilan qarashining samarasidir.

Abdulla Qodiriy "Mehrobdan chayon" romanida jonlantirishning betakror namunalarini yaratib, ular orqali go'zallik, tabiat jilosi, samimiy kulgu, inson xarakteri va holati, muhabbat va nafrat tuyg'ularini o'quvchi ko'z o'ngida yorqinroq gavdalantirishga, asarning oson tushunilishiga erishgan.

2. Roman tilidagi badiiy sintaksisning lingvopoetik tahlili

Abdulla Qodiriy nazmda ham yetuk shoir tarzida namoyon bo‘lib, o‘z o‘rnida umtoz adabiyotimiz an‘analari yo‘lidan borganligidan dalolat beradi. Bu haqda professor Hasan Qudratillayev shunday yozadi: “Ko‘pgina asarlarda nasr nazmni, nazm nasrni to‘ldirib kelgan yoki boshqacha qilib aytganda mualliflar nasriy asarlarida bayon etgan fikrlarini yanada mantiqiy yuksaltirish, uning shiradorligini oshirish, davr adabiy-estetik talabining so‘z jozibasiga nisbatan qo‘ygan mezonini me‘yorga yetkazish uchun she‘riy parchalardan foydalanganlar”⁴¹.

Adib she‘riyati masalasi qodiriyshunoslikda tesha tegmagan muammolardan biri⁴². Shunga ko‘ra Abdulla Qodiriy she‘rlarining o‘z xarakteriga ko‘ra ikki toifaga ajratib tahlil etish ma‘qul ko‘rinadi. Agar ularning birinchisi sof she‘riy shaklda, mustaqil asar sifatidagi (“To‘y”, “Ahvolimiz” va h.k.) ko‘rinishda bo‘lsa, ikkinchi toifadagi she‘rlari alohida emas nasriy asarlari ichida, qorishma holda, xususan, “O‘tkan kunlar” “Mehrobdan chayon”, “Obid ketmon” kabi romanlarida uchraydigan she‘rlaridir. Ularning ko‘plari lirik ruhda bo‘lib, pafos jihatidan intim, hajviy va hazil she‘rlardan tarkib topgan. Janr jihatidan esa marsiya, qasida, mushoira, g‘azallarga bo‘lish mumkin.

Bu asrlardagi lingvopoetik xususiyatlar ushbu janr, ularning mavzu va uslubi kabi jihatlariga bog‘liq aks etadi.

G‘azallar goh taxallusli, goh betaxallus bitilgan bo‘lib, xajaz, ramal, rajaz va boshqa bahrlarda yozilgan. Nasriy asarlari ichida uchraydigan she‘rlar mustaqil shakldagi she‘rlardan shakl va mazmun jihatidan ancha puxtaligi, g‘oyaviy-badiiy yetukligi bilan alohida ajralib turadi. Zero, mustaqil she‘rlari adib ijodining boshlang‘ich davriga taalluqli bo‘lsa, nasrdagi she‘rlari esa adibning ancha katta hayotiy va adabiy tajribasi shakllangan davriga to‘g‘ri keladi. Buning ustiga Abdulla Qodiriy Moskvada o‘qigan, rus va jahon adabiyoti bilan oshno bo‘lgan, xattoki mohir tarjimon sifatida ham shakllangan davr ekanligi bilan ham izohlash darkor. Abdulla Qodiriyning shoir sifatidagi birinchi she‘ri “To‘y” bo‘lib, u hajv yo‘sinida bitilgan. Zamona kulfati, millatning loqaydligi, mustmlakachilik illatlari

⁴¹ O‘zbek tili va adabiyoti. 2000-yil. 4-son. 3-bet.

⁴² Mirvaliyev S. Abdulla Qodiriy. Toshkent. 2008.B.12

va mavjud qashshoqliklari o'zi pok, dili pok adib to'yg'ularini junbushga keltirar edi. Undagi ziyraklik, nurli, aqlli ko'z va qalb, go'zallik va fojiviylikni tez payqar edi. Xuddi shu jihatdan ilk yaratilgan "To'y" nomli she'ri e'tiborni tortadi. Bizimizki, millatimiz urf odatiga ko'ra bahor, yoz mashaqqatli, zahmatli mehnatdan so'ng qish chillasida to'y qilinadi. To'y boyvachchalar uchun pisand bo'lmasa ham, beva-bechora, mehnat ahli uchun ko'p hollarda fojeaga aylangan. To'y bilan aza almashib turgan, "kim oshish" poygasida ko'pincha yo'qsillar pand yegan, qarzgaga botib taqdiri achinarli holga tushib qolgan.

- *Qildi bul vaqt bizda javlon to'y,*
Aqchasi yo'qni etdi xayron to'y.
Bir-biridan oshirdilar to'yni,
Topdi ravnoq, g'ayrat ila boyon to'y..

Bu o'rinda asosiy ma'no qaratilgan "to'y" so'zi radif bo'lib, javlon, hayron, boyon qofiyalari ifoda ta'sirchanligini oshiradi, "g'ayrat" va "ravnaq" so'zlarida ma'nan yaqinlik ko'rinadi.

Shoir bunday to'ylar Qur'oni Karimda ham, shariatda ham yo'qligini ta'kidlash barobarida, "kori maju-si, kori shayton to'y"lardan voz kechishga da'vat etadi.

Kelingiz do'stlar, din qarindoshlar,
Tashlasun bo'lsa musulmon to'y, -

deya o'z millati boshidagi o'am-kulfatdan ozod etish maqsadini ilgari suradi.

Gap bu o'rinda mazkur she'rning g'oyaviy-badiiy yetuk yoki yetuk emasligi haqida emas, balki shoir ko'targan milliy muammoning o'ta dolzarbligida, hali-hanuz to'y "kimga to'y, kimga aza" bo'lib qolayotganligida hamdir. Shuning uchun bo'lsa kerak adib ushbu mavzuni "Baxtsiz kuyov"da ham, "O'tkan kunlar"da ham, "Mehrobdan chayon"da ham yana qayta-qayta tasvirga oladi. To'o'ri, to'y odamlarni, mahalla, qarindosh urug'larni bir-biriga qovushtiradi, o'zaro oqibat, inoqlik, mehr tuyg'ularini parvarish etadi. To'y milliy urf-odat, millat madaniyati ko'rinishina emas, balki, katta, yoqimli milliy bayram hamdir. Binobarin, adib ana shu ma'nodagi to'y-tomoshani yoqlaydi, isrofgarchilik, kim

hdiga bo'ladigan to'ylarning oqibati fojia bilan yakunlanishidan ogoh etadi.

Adibning "Millatimga bir qaror" she'ri o'azal shaklida bitilgan bo'lib, unda millatni "taraqqiyot yo'li"-ga da'vat yetakchilik qiladi, asarning g'oyaviy pafosini yin etadi. Qoloqlik, nodonlikdan xalos bo'lishning birdan-bir yuli ilm-ma'rifatga etklovchi maktablar, dorilfununlar ochish deb biladi:

*Kel ey millat, bu kun bir maslahat birlan qaror o'lsun,
Bu kunda o'tkan ishlarg'a pushaymon birla or o'lsun .
Qilaylik bul kuni g'ayrat, hama birdan qilib himmat,
Jaholat cho'l-u sahrosiki minba'd sabzazor o'lsin.
Adashmay kumush-u oltinni hama boyonlar aslo,
Solib dorilfununlar ham maktablar hazor o'lsin,
O'qishsin millat avlodi, bizni doim duo aylab,
Qilib tahsil ulumlarni fununa yaxshi yor o'lsin.*

Ko'rinadiki, shoir XX asr ma'rifatparvarlari izidan borib, jaholat, qoloqlik va zulmatdan qutilish yuli ilm-ma'rifat, maktab, dorilfununlar ochish degan xulosani ilgari suradi.

Sakkiz baytlik ushbu g'azalda publisistik ruh ustun bo'lib, unda har bir so'z o'oyani ta'kidlashga qaratilgan. *Millat, maktab, dorilfunun, avlod, ulum* so'zlari tayanch tushunchalardir. Shuningdek, she'r qofiyalari ham o'zak so'zlardan iborat.

Shoirning "Ahvolimiz" she'ri ham o'z mavzui, muammosiga ko'ra o'ta zamonaviy desa bo'ladi. Unda millatning qoloqligi, loqaydligi, bachchabozlik, g'yohvandlik bilan masho'ul bo'lishida deb biladi. Nasha, ko'knori iste'mol qilishni qoralaydi. "*Takyalarda nasha, ko'knori chekib, bachchalarg'a kokil solib, sh-voh*" bilan o'tayotgan umrlarga achinadi:

*Ko'r bizning ahvolimiz, g'aflatda qanday yotamiz,
Joyi kelgan chog'ida vijdonni pulga sotamiz.
O'g'limizga na adab, na fan, na yaxshi suylmak,
Na xudoni buyrug'i bo'lgan ulum o'rgotamiz.
Qornimiz shundan iborat bo'ldi ushbu chog'ida,
O'ntadan bedona boqib, yoz-u qish sayrotamiz.*

*Hamda har kun takyalarda nasha, ko'knori chakib,
Bachchaga kokil solib, oh-voh bilan o'ynotamiz.
Kelingiz yoshlar, ziyolilar, bu kun g'ayrat qiling,
Uxlaganlarni agar Qodir esak uyg'otamiz.*

She'rdagi har bir so'z tanqidiy fikrni ta'kidlashga qaratilgan. "Vijdonini pulga sotish", "uxlaganlarni uyg'otish" ta'birlarida katta tagma'no mujassam.

Mazkur she'r nafaqat mazmuniga ko'ra ma'rifatparvarlik ruhidagi asar, balki o'zining xalqchil tili ifodasi bilan ham o'z davri, adabiy tili shakllanishida ma'lum qiymatga egadir. Ya'ni unda odatdagidek, an'anaviy she'riyatga xos murakkab istiora, o'xshatishlar, tazodlar kam bo'lsa ham sof adabiy til ifodalariga monandligi bilan ajralib turadi. Xuddi shu hol ma'rifatparvarlik yo'nalishining ham madaniy, ham ma'naviy islohotlarini ifoda etardi. Bu davrda Abdulla Qodiriy Oybek ta'biri bilan aytganda jadid adabiyotiga mansub edi⁴³. Shoirning "Fikr aylag'il" degan to'rtinchi she'ri esa o'z mazmuniga ko'ra mavjud uch she'rni yakunlovchi, xulosalovchi she'rga o'xshaydi. Binobarin, "To'y" "Millatimga bir qaror", "Ahvolimi" da ko'tarilgan muammolar qayta sanab o'tiladi, mavjud illatlar qayta fosh etilib, millatni uyg'oqlikka da'vat yetakchilik qiladi. Va nihoyat, "Pildir, piss..." nomli beshinchi she'r hajviya, parodiya tarzida bitilgan bo'lib, 20-yillarda urf bo'lgan futuristik she'rlarga xos shakl bor-u, mazmun yo'qligi qoralanadi. Bunda asosan:

Tir-tir

Traktor

Poq-poq,

Turpoq

qabilidagi tumtaroq shakl ustuvor bo'lib, rus futurist shoirlariga taqlidiy yozilgan Oltoy (Bois Qoriyev) she'rlari tanqid ostiga olinadi. Eng muhimi, she'r xalq yo'lida, ohangida yozilgan bo'lib, hajv o'ti alangalanib turadi. Qizig'i shundaki, she'r oxirida "Mushtum" tahririyati tomonidan quyidagi ilova ham beriladi:

⁴³ Oybek. Mukammal asarlar to'plami. Toshkent, 1979. 14-tom. 113-bet.

“Ey sen, qanaqa futuristsan, taqlid degan so‘z o‘xshatma so‘zdir. Oltoy she‘rining oxiri: "Yoshlar, unday bo‘l, bunday bo‘l" bilan tamom bo‘ladir. A, aniqda bir kalima bo‘lsun yosh oti yo‘qdir. Demak, sening she‘ring Oltoy she‘ridan bus-butun boshqadir. Agar sen:

Guldur-gup

Pildir-pissdan keyin:

Yoshlar yig‘iling , guldur-gup,

Qarilar qiladirlar pildir-piss!

desang edi, xuddi Oltoyga taqlid qilgan bo‘lur eding” (1-jild, 269-bet.) Aytishlaricha, mazkur ilova ham Qodiriy qalamiga mansubdir. Xullas, Abdulla Qodiriy adabiyotimizga shoir sifatida hammasi bo‘lib, bor-yo‘g‘i 112 qatordan iborat 5 ta she‘r qoldirgan bo‘lsa, nasriy ijodida unga qaraganda ikki barobar ko‘p, aniqroo‘i, 198 qator, ja‘mi 306 misra she‘r yaratgani ma‘lum. Xususan, “Kichik asarlari”da 22 qator, “O‘tkan kunlar”da 32 qator, “Mehrobdan chayon”da 98 qator va “Obid ketmon”da 46 qator she‘rdan foydalandi yoki she‘r yaratdi. Mustaqil asarlar sifatida yaratilgan she‘rlari hajmiga qaraganda nasriy asarlarida uchraydigan she‘rlari son, ham sifat jihatidan ustuvorlik qiladi. To‘g‘ri, asarlarida uchraydigan she‘riy parchalar yoki she‘rlar har bir asarning maqsad va g‘oyasidan, qahramon holati va ruhiyatidan kelib chiqib ifoda etiladi. Masalan, “Kalvak Maxzumning xotira daftaridan” qissasida yaxshi va yomon xotin haqida gap ketganda bedana payrovida hajviy misralar tuo‘iladi. Balki bu o‘rinda muallif xalq ijodi namunalaridan foydalangan bo‘lishi ham mumkin:

Yaxshi xotun sahar turib

Charhini tovlar, do‘st bedanam.

Yomon xotun sahar turib,

O‘chog‘in kovlar, do‘st bedanam,

Yomon xotunga kumoch berib,

Qorniga tepsang, do‘st-bedanam

Yaxshi xotunga shakar berib,

Labidan o‘psang, do‘st bedanam.

She'rdan yaxshi-yomon, tepsang- o'psang, tazod (zidd ma'nolar) san'ati, "dar", "turib", "berib" so'zlarining takrori hamda "do'st bedanam" shaklidagi ifodalar uchraydi.

Shuningdek, "Po'st kallasi", "Ro'za" kabi hikoyalarda uchraydigan she'rlar xalq yo'lida, oddiy, sodda til va ifodalarda bitilganligi bilan alohida ajralib turadi. Xulosa qilib aytganda, adibning dastlabki she'riy ijodi uning nasrga kirishida, badiiy so'z tanlash va mazmun mohiyatini umumlashtirishida ham muvaffaqiyatli, ham mazmunan, eng muhimi badiiy-estetik tafakkurini ma'lum bir maqsadli tizimga kirishida muhim bosqich, izlanish va mahorat sari bir pillapoya sifatida ko'rsatib berilganini bajardi.

Adibning nasriy asarlarida uchraydigan she'rlariga kelganda endi o'zgacha, muvaffaqiyatli va samarali natijalarga duch kelamiz. Xususan, katta nasriy epik asarlardagi mavjud she'r butun bir taqdir, butun bir xarakter ma'nosiga ko'chadi. Loqal bu asarlarda "O'tkan kunlar"da uchraydigan she'rlarni qisqacha tahlil qilib ko'raylik. Romanda birinchi bor she'riy parcha Kumush bilan Otabek to'yi arafasida, to'y davridan o'tadigan qizlar bazmida sirli qo'shiq bo'lib yangraydi. Ular masnaviy usulida bo'lib, jami 12 qatorni tashkil etadi. Biroq, mazmun jihatidan esa butun bir romanda ilgari surilgan ishq-muhabbat oila muammosini yechish vazifasini bajarib o'taydi.

Esingizda bo'lsa, romanning o'ninchi fasli: "To'y, qizlar majlisi" deb ataladi. Gap bu yerda asosan to'y arafasida asar bosh qahramonlaridan biri Kumushbibi holati, ruhiyati, orzu-umidlari, kelajagi, aniqrog'i inson-ayol sifatidagi taqdiri haqida. Adib nutqida avval shunday tasvir tiziladi: "Kumushbibini ham bu qiziq bazmdan boshqalardek xis kiladir, suyunib quvonadir, deb o'ylanmasin, chunki vujudi qizlar bazmi ichida bo'lsa ham xayoli allaqayerda uchib yurgandek, ko'zlari o'ynao'uvchi qizlarda bo'lsa ham ammo haqiqatda boshqa narsani ko'rgandek... Ko'rinishdan natija chiqarib aytganda, bu qiziq, majlis uning uchun bazm o'rnini emas, aza joyini tutqondek...". Shu holatda ikki soatlarcha davom etgan bazm tugab, Gulsin bilan Xonimbibining mungli qo'shig'iga navbat keladi. Gulsin kuylaydi:

O'rtoqlarim qo'lg'a olsam torimni,

Beixtiyor yodlaydurman yorimni!

Ana shu "bir ohanglik nafis, musiqaviy tovush "xayol ichida sho'ng'ib
"Iturg'on Kumushbibi"ni bir "seskan"tiradi. Endi Gulsun yoniga Xonimbibi
"shilishib ikkinchi baytni aytadilar:

Bir ko'rib yag'mol qilg'an ko'nolimni,

Qaytib yana ko'rolmadim yorimni!

Shu bayt ijrosidan so'ng "Kumushning ikki ko'zi jiq yoshga to'lg'on"
bo'ladi. Ko'ryapmizki, bayt-baytni to'ldirib, adib kuzatgan sirli maqsad sari tobora
tortib boradi. Endi qo'shiqni o'zgarar emas, go'yo Kumush o'zi haqida o'zi
kuylayotgandek tuyuladi. Ruhidagi fojeiy holat, drammatizm tobora taranglashib
boradi.

Mung'ayib, xayol parishon holatdagi Kumushbibini esa g'am-alam emas,
"kutilmagan baxt" kutardi.

She'ning qurilishi yoki janri haqida gap borganda shuni qayd etish lozimki,
adib endi bu o'rinda o'sha rasmiy she'rlarida uchraydigan murakkab ifodalarni
qo'llamaydi. Aksincha, xalqona usul va uslubidan foydalanadi. Qo'shiq-lapar
go'yo Kumushbibi ohazorini kuylayotganday, ishq o'tida yondirayotganday
baytdan-baytga o'tgan sari alangalanib boradi. Qahramon qalbida yongan otash
tutuni bursiqib, bulutga-yomg'irga, ko'z yoshiga aylanadi.

Yoinki xuddi shu "O'tkan kunlar"da Kumushbibi qabriga qo'yilgan toshdagi
bitikni eslang: G'ayratiy domlaning xotirasiga ko'ra adib avval Fuzuliydan:

Hamrohing eding bu yo'lda ey moh,

Hamrohni tashlab ketarmi hamroh...,-

degan bir baytni yozuvchi Kumushning qabr toshiga romanning dastlabki
qo'lyozmasida foydalangan ekan. Ammo, adibning "Mushtum"dagi do'stlari
bunga e'tiroz bildirib, "O'z asarlariga o'z she'rlari bo'lsa yaxshi jaranglashini
maslahat berish"anda Abdulla Qodiriyga ham ma'qul bo'lib quyidagi to'rtlikni
yaratgan:

*Ayo charx, etding ortuq jabr bunyod,
Ko 'zim yoshliq, tilimda qoldi faryod.
Hayotim lolazoridin ayurding,
Yoqib jonim, kulim ko 'kka sovurding,-*

deya yangidan ushbu to'rtlikni yaratgan. Zero, avvalgi bir bayt bilan mazkur to'rtlik shakl va mazmuniga ko'ra tamoman o'zgacha jaranglaydi. Ayni chog'da o'ta mungli, o'ta ta'sirli bo'lganligidan faqat Otabek holati, ruhiyatinigina emas, butun asar yechimi, mohiyatini ochishga ko'maklashadi. She'r aruzning hazaji musaddasi maqsur (V--- V--- V-) bahrida bo'lib, qofiyalanishi a-a, b-b shaklidir.

Mumtoz romannavis Abdulla Qodiriy ham bunday samarali an'anani muvaffaqiyatli davom ettiradi. Ayniqsa, "Mehrobdan chayon" romanida adibning poetik san'ati, mahorati yana ham yuqori pardalarga ko'chadi. Kuzatishimizcha, "Mehrobdan chayon" romanida she'riy lavhalar yuz misradan oshadi. Ularning har biri o'zicha asarda alohida bir g'oyaviy-badiiy, tarbiyaviy-estetik o'ringa, lingvopoetik xususiyatga ega. Jumladan, asardagi Ra'no va Anvar dueti, aniqrog'i, mushoirasini ko'z oldimizga keltiraylik:

Agar Farhodning Shirin, bo 'lsa Majnunlarning

Laylosi,

Nasib bo 'lmish menga gulshan aro gullarning

"Ra'no" si, (116)

-degan misralar Anvar qalamidan qog'ozga tushsa, Ra'no qalbida:

Agar or etsa Layli haqlidir Qaysning jununidin,

Ne baxt, Ra'no xaridoring talab ahlining "Mirzo" si (116)

bayti quyilib keladi. Xuddi shu bayt romanning boshida asar epigrafi tarzida ham beriladi. Zero, adib ushbu asarda ikki sevishganlar baxti, fojiasi taqdiri haqida hikoya qilishni maqsad qilib olganligidan xabar beradi. Shu tufayli yuqoridagi baytlar ikki yosh muhabbatini tutashgan nuqtasi sifatida asarda alohida o'ringa ega.

Bizga ma'lumki, yozma, mumtoz adabiyotimizda, xalq og'zaki ijodida bunday aytishuv, tortishuv yoki "bellashuv" ko'p uchraydi. Qo'shiq holatida duet ham deyishadi. Ammo bu o'rinda mushoira desa xato bo'lmaydi. Uni muhabbat

ushoirasi, sevishganlar bahsi deyish ham o‘rinli. Yana u odatdagidek taxallusli bo‘lmay tomonlar ismi aytilayotgan baytga singdirilib yuborilganligi bilan ham xarakterlidir. Qahramonlar she‘rda bir-birlari bilan oshiq ekanliklarini ana shu baytda chiroyli, nozik tuyg‘ularda bayon etishadi. Ammo, lirik syujetda, ya‘ni his va fikr rivojida qahramonlar sevgilari, orzulari oldida, aniqrog‘i taqdirida qandaydir xavf ham borligiga urg‘u beriladi. Shu o‘rinda Ra‘no ajoyib o‘xshatishni qo‘llaydi. Ya‘ni insonda safro buzilgach yoki qo‘zg‘agach qon aylanishi buziladi, bayotga xavf soladi. Ra‘no ana shu tibbiy bahsda Anvarni yengadi.

Anvar:

*Haqisha xavfda ko‘nglim bu muhabbat intihosidin,
Meni xam etmasa Majnun debon Ra‘noning savdosi,*

-desa, Ra‘no Anvardan o‘pkalaninb:

*Muhabbat jomidin no‘sh aylagan ahli zako bo‘lmish,
Fununi tibda majnundir kishining kuysa safrosi,*

-degarl javobni qaytaradi.

Bu she‘rda fikr oqimi yetakchi bo‘lib, u sharqona lirikaga ohorli yo‘nalish hadya etadi. Misralarga nasrning fikran siqiqroq uslubi kirib keladi. Mazmun esa oliy tuyg‘u ilmi ba‘diyaning talmeh san‘ati vositasida ifodalanadi. Sevgi qismati qanday kechishdan tashvishlanish ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, bu to‘rtlikda takror (Layli, Laylo, Majnun, Qays), tajnis (“Mirzo” so‘zining ism va munshiy ma‘nolari) hamda so‘z yasash (gulshan, gullar) kabi badiiy tasvir usullari aks etgan, o‘xshatish san‘atidan (tibda safroning kuyishi) foydalanilgan.

Romanda Anvarning bosh munshiylik lavozimiga ko‘tarilishi, oldingi bosh munshiy Mulla Muhammad Rajabbekning vafoti haqidagi xabar butun shaharga o‘rda jarchisi tomonidan quyidagicha e‘lon qilinadi:

*Vaqtiki, ajal paymonasi to‘ldi,
Munshiy mulla Muhammad Rajabbek o‘ldi!*

*Fazl bog‘ida ochilg‘an bir gul,
Ya‘ni gul shoxig‘a qo‘ng‘an bulbul*

*Ba nomi mulla mirzo Anvar,
Kamoliga musallamdir⁴⁴ aksar.*

*Huzuri muborakdan olib yorlig',
Maydoni qalamkashlikda qilur suxandonlig'.*

*Har kimsaningkim baxti kulsa,
Shohiga jon-u dil ila xizmat qilsa.*

*Lutfu shohonaga sazovor bo'lg'ay,
Atrofi zar-u zavar ila to'lg'ay!..*

Ushbu manzuma asar ichida qo'llanilishi uning badiiy va estetik qimmatini yanada oshirishga xizmat qilgan. Adib mahorati she'rdagi *Fazl bog'ida ochilg'an bir gul, Ya'ni gul shoxig'a qo'ng'an bulbul* bayti orqali Anvar nazarda tutilganligida ko'rinadi.

Badiiy asar tili haqida gap borganda uning yana bir jihati — differensatsiyalanganligiga (ya'ni, farqlangan) alohida to'xtalish zarur. Albatta, biz "badiiy asar tili" deganimiz holda, aslida gap badiiy nutq haqida borayotgani ma'lum, chunki til unsurlari ma'lum kontekstni hosil qilgach, nutq hodisasiga aylanadi. Badiiy nutqning farqlanganligi shuki, unda muallif nutqi va qahramonlar nutqi ajratiladi. Ta'kidlash kerakki, mazkur farqlanish asosan epik va liro-epik xarakterdagi asarlarga xosdir. Bu xil asarlarda voqea, voqea kechayotgan joy yoki sharoit tasviri, qahramonlarga berilayotgan ta'rif, muallifning fikr-mulohazalari kabilar bevosita muallif tilidan beriladi. Muallif obrazi asarda tasvirlangan badiiy voqelikni yaxlitlashtiruvchi subyektiv asos bo'lganidek, avtor nutqi asarning moddiy tarafini yaxlitlashtiruvchi unsurdir. Muallif nutqi vositasida asar qismlari, voqealar, tafsilotlar yaxlit bir organizmga - badiiy matnga birikadi. Muallif nutqi grammatik jihatdan adabiy til normalariga yaqinlashadi, biroq uning adabiy til normalariga to'la muvofiq bo'lishini talab qilishlik xato bo'lur edi. Zero, yozuvchi

⁴⁴ Musallam-tan bermoq, qoyil bo'lmoq.

milliy til imkoniyatlarini kengaytirishga, o'zining his-kechinmalarini, o'y-hislarini imkon qadar yorqin ifodalashga intilarkan adabiy til normalaridan chekinishi mumkin. Va ayni shu chekinishlar vaqti kelib adabiy til normasiga aylanishi mumkinligi ham ehtimoldan yiroq emas.

Personajlar nutqini individuallashtirish zarurati badiiy asar tilidagi differentsiyalanganlikni yanada orttiradi. Chunki asardagi har bir personajning nutqi uning xarakter xususiyatlariga, dunyoqarashi, muhiti, ma'naviy qiyofasi, madaniy-ma'rifiy darajasi kabi jihatlarga muvofiq bo'lishi lozim. Sababki, epik va dramatik asarlarda qahramon xarakterini yaratishning asosiy vositalaridan biri personaj nutqi sanaladi.

Badiiy nutq ikki shaklda: sochma(nasr) va tizma(nazm) shakllarda mavjuddir. Nasriy nutq tuzilishi jihatidan kundalik muloqot tiliga o'xshash bo'lsa, she'riy nutq muayyan bir o'lchovga solingan, hissiy to'yintirilgan nutq sanaladi. Nasriy nutq epik va dramatik asarlarning asosiy nutq shakli hisoblanadi. Shu bilan birga, she'riy yo'lda ham epik va dramatik asarlar yaratilishi mumkinligini unutmash kerak. She'riy nutq esa lirik asarlarning asosiy nutq shaklidir. Badiiy nutq shakllari haqida gapirganda, uning yana monologik va dialogik shakllari ham farqlanadi. Monologik nutq shakli bir odam tilidan aytilayotgan nutqni bildirsa, dialogik nutq shakli suhbat-muloqot chog'idagi bir necha kishining nutqini anglatadi. Lirik asarlarda monologik nutq, dramatik asarlarda dialogik nutq yetakchilik qilsa, epik asarlarda ularning har ikkisi ham keng o'rin tutadi. Bunda muallif nutqi asosan monologik shaklda bo'lsa, personajlar nutqi asosan dialogik shakldadir.

III bob bo'yicha xulosalar.

1. Abdulla Qodiriy nafaqat nasrda, balki nazmda ham yuksak mahoratga, salohiyatdga ega bo'lgan adib hisoblanadi.
2. Qodiriy she'rlari o'z xarakter-xususiyatiga ko'ra ikki toifaga ajratib tahlil qilinadi: 1) sof she'riy shakldagi mustaqil she'rlar; 2) nasriy asarlari ichida, qorishma holda, xususan, "O'tkan kunlar" "Mehrobdan chayon", "Obid ketmon" kabi romanlarida uchraydigan she'rlaridir.
3. Qodiriyning mustaqil she'rlari adib ijodining boshlang'ich davriga taalluqli bo'lsa, nasrdagi she'rlari esa adibning ancha katta hayotiy va adabiy tajribasi shakllangan davriga to'g'ri keladi.
4. Adibning nasriy asarlari ichida uchraydigan she'rlari mustaqil shakldagi she'rlaridan shakl va mazmun jihatidan ancha puxtaligi, g'oyaviy-badiiy yetukligi bilan alohida ajralib turadi. Ular asardagi biror shaxs yoki voqeaga asar qahramoni yoki muallifning munosabatini aks ettirishga xizmat qiladi.
5. Abdulla Qodiriy adabiyotimizga shoir sifatida hammasi bo'lib, 112 qatordan iborat 5 ta she'r qoldirgan.
6. Adibning nasriy ijodda 198 qator, ja'mi 306 misra she'r yaratgani ma'lum. Xususan, "Kichik asarlari"da 22 qator, "O'tkan kunlar"da 32 qator, "Mehrobdan chayon"da 98 qator va "Obid ketmon"da 46 qator she'rdan foydalangan.

XULOSALAR

Til o'zining estetik vazifasini butun o'ziga xosligi va murakkabligi bilan bevosita badiiy nutqda namoyon etadi. Tilning estetik vazifasini xolis o'rganish uchun adabiyotshunoslik va tilshunoslik sohalari bir-biri bilan hamkorlikda ish ko'rishi lozim. Tilning estetik vazifasi masalasi bu ikki yirik fan oralig'idagi murakkab muammo bo'lib, uni lingvistik poetika- lingvopoetika o'rganadi.

Abdulla Qodiriy o'z ijodi, xususan, "Mehrobdan chayon" romanida o'zbek tili o'zining estetik vazifasini nechog'lik mukammal bajara olishini katta san'atkorlik bilan ko'rsatib bergan. Romanda qadimiy va boy o'zbek tilining betakror salohiyati, tuganmas imkoniyatlari to'la aks etgan. Qodiriy keng ommaga tushunarli bo'lgan o'zbek adabiy tilini shakllantirish, bu tilni jonli tilga yaqinlashtirishga katta hissa qo'shgan.

"Mehrobdan chayon" romani tilini badiiy nutqda so'z qo'llash jihatidan o'ziga xos ibrat maktabi deyish mumkin. Qodiriy tilidagi so'zlarning semantic qurilishida bir paytning o'zida aks etib turadigan ham ifodalanayotgan predmet, ham nutq subyektining bu predmetga o'z munosabati, uning so'zlash paytidagi hissiy holati, ruhiyati haqidagi axborotlarni nozik ilg'aganligi uchun bu axborotlarning barchasini o'z estetik niyatiga ustalik bilan xizmat qildirgan.

Qodiriy tildagi ma'nodosh so'zlar orasidan tasvir maqsadi va ruhiga muvofiq keladigan aniq so'zni saylab qo'llash orqali mazmunning eng nozik nuqtalari, qahramon ruhiyati, tasvir obyektining eng kichik qirralarigacha real ko'rsatishga erishgan.

Qodiriy nafaqat tildagi zid ma'noli so'zlar, balki xususiy-muallifiy zid ma'nolilik asosida ham tazod, zidlantirish, kontrastlik, qarshilantirish san'atining go'zal namunalarini yarata olgan.

Qodiriy xalq donishmandligining nodir namunalari bo'lgan iboralardan, xususan, obrazli ifodalarning yetuk namunasi hisoblangan frazeologik iboralar va maqollardan juda katta mahorat bilan foydalangan. Roman matni o'zbek tilining nutqiy qoliplashgan obrazli ifodalarga naqadar boyligini yana bir bora namoyish

etadi.

Adib o'zbek tilidagi ko'chimlarning milliy-ruhiy, badiiy-lisoniy voqelanish ildizlari, jarayonlari, mexanizmlarini to'liq anglaganligi uchun ham betakror tasvitiy obrazlar yaratgan.

Qodiriyning badiiy til borasidagi mahorati shunda ham namoyon bo'ladiki, o'zining obrazlilik va emotsional-ekspressivlik xususiyatlarini yoqotgan an'anaviy o'xshatishlarni ham tasviriylik, obrazlilikni yaratishga xizmat qildirgan.

Qodiriy metaforalarning konnotativ ma'no ko'lamlarini kengaytirgan. Uning o'zigagina xos bo'lgan va eng muhimi, mantiqiy-estetik mohiyatining juda ham boyligi bilan kitobxon diqqatini tortadi.

Jonlantirishlar muallif nutqida qo'llanilib qahramon ruhiyati, muhit va tabiat tasvirining ta'sirchanligini ta'minlash uchun xizmat qilgan. Adib yaratgan metaforalar asosida yuzaga kelgan g'ayriodatiy birikmalar o'zlarining yangiligi, odatiy emasligi bilan kitobxonni ayni o'ziga xos obrazlilik ustida to'xtalishga majbur qiladi.

Qodiriy romandagi she'riy parchalarni qahramonlarning ichki kechinmalarini yanada ifodalibroq bayon qildirishga xizmat qildirgan. Ular orqali qahramonlarning ruhiy holatida ro'y berayotgan o'zgarishlarni ko'rsatib, mohirona ifodalab bergan.

Qodiriy, asosan, xalq tilidagi ma'no ko'chimlaridan foydalangan, ular tasvirga reallik, aniqlik baxsh etish bilan birga, xalqona ruh beradigan vositaga aylangan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ// "Мулоқот" журнали, 1998,5-сон.
2. Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкураси халқ эътиқоди ва буюк келажак ишончидир. ("Фидокор" газетаси муҳбирининг саволларига берилган жавоблар).Т.: "Ўзбекистон", 2000.
3. Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз.- Т.: Ўзбекистон, 2001.Т.9.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Т.: Ma'naviyat, 2008.

II. Asosiy adabiyotlar

5. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. -Т.: "Yangi asr avlodi", 2011-yil.
6. Абдурахмонов Ф. Адабий асар тилини ўрганиш ҳақида// Ўзбек тилини ўқитиш методикаси масалалари.- Т.: Фан, 1966.
7. Абдурахмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. -Т.: Фан, 1981.
8. Абдурахмонов Ш. А. Ўзбек бадий нутқида кулги кўзғатувчи лисоний воситалар. НДА. -Т.: 1997
9. Аристотел. Поэтика (поезия санъати ҳақида).-Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980.
10. Бадий текстда тил воситаларининг функциялашуви (илмий мақолалар тўплами).-Самарқанд: СамДУ нашриёти, 1989.
11. Баҳодир Карим. Абдулла Қодирий. Тошкент. Фан. 2006. 231 б.
12. Бобожонов Ф.Қ. Ўзбек жаҳид драмаларининг лисоний хусусиятлари (Беҳбудий ва Авлоний драмалари асосида), НДА.-Самарқанд, 2002.
12. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent. O'qituvchi, 2002. B. 324.
13. Боймирзаева С.У. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи, НДА. - Самарқанд, 2004.
14. Бўронов М. Ҳамза асарлари тилининг баъзи лексик-морфологик хусусиятлари.-Нукус: Билим, 1991.

15. Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати (бадий маҳорат ва тил ҳақида мулоҳазалар). - Т.: Фан, 1962.
16. Дониёрова Ш. Шукур Холмирзаев ҳикояларининг бадий-услубий ўзига хослиги, НДА. - Т.: 2000.
17. Жалолова Л. Абдулла Қодирий асарларидаги жонлантиришларнинг лингвопоэтик таҳлили // Ўзбек тили ва адабиёти, 2000, 4-сон.
18. Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати ("Кеча ва кундуз" романи мисолида). Филология фанлари номзоди даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. Т.: 2000.
19. Йўлдошев М. Қахрамон руҳияти ва сўз.// Ўзбек тили ва адабиёти, 1998, 5-сон.
20. Йўлдошев М. Чўлпоннинг халқ ибораларидан фойдаланиш маҳорати:// Ўзбек тили ва адабиёти, 1999, 6-сон.
21. Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. -Т.: Фан, 2007.
22. Келдиёрова Г. Эркин Воҳидов шеърисида антитеза// Ўзбек тили ва адабиёти, 2000, 1-сон.
23. Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний таҳлил- Т.: Ўқитувчи, 1995.
24. Лутфиддинова Х. Гулларнинг Раъноси. Т.: Ўзбекистон. 1997.
25. Маҳмудов. Н. Абдулла Қаххор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир// Ўзбек тили ва адабиёти, 1987, 4-сон.
26. Маҳмудов Н. Ҳар бир сўз берсин садо // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1987, 7-сон.
27. Маҳмудов Н. Ойбек шеърисидаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси// Ўзбек тили ва адабиёти, 1985, 6-сон.
28. Мелиев С. Контекстда сўз динамикаси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1983, 4-сон.
29. Мелиев С. Шеърини сўз // Ўзбек тили ва адабиёти, 1981, 6-сон.
30. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш - Т.: Фан, 1976.

31. Насриддинов Ф. Адибнинг ёъли (Абдулла Қодирий маҳорати). Т.: Фан, 1971.
32. Норматов У. Абдулла Қодирий боғи. Т.: Ёзувчи. 1995. 220 б.
33. Нормуродов Р. Шукур Холмирзаевнинг метафорадан фойдаланиш маҳорати// Ўзбек тили ва адабиёти, 2001, 6-сон.
34. Омонтурдиев А.Ж. Ўзбек нутқининг эвфемик асослари. - Т.: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2000.
35. Омонтурдиев Ж. Сўз кўллаш санъати- Термиз: Жайхун, 1994.
36. Қодиров П. Халқ тили ва реалистик проза. - Т.: Фан, 1973.
37. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. - Т.: Фан, 1977.
38. Қодиров М. Бадиий асар тилини ўрганиш масалалари// Ўзбек тили ва адабиёти, 1987, 3-сон.
39. Қўнғуров Р., Каримов С. Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти (библиографик кўрсаткич). - Самарқанд: СамДУ нашриёти, 1984.
40. Қобулжонова Г.К. Метафоранинг системавий лингвистик талқини, НДА, - Т.:2000.
41. Раҳимов А. Персонаж нутқи ва миллий характер// Ўзбек тили ва адабиёти, 1981, 1-сон.
42. Раҳимов А. Солиҳ маҳдумда нима гуноҳ? // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1990,3 август.
43. Рихсиева Г. Лингвопоетик тадқиқ асослари бўйича мулоҳазалар. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1993, №2.
44. Рустамов Х,- Сўз кўллаш эстетикасига доир// Ўзбек тили ва адабиёти, 1975, 5-сон.
45. Сайидов Й.С. Фитрат бадиий асарлари лексикаси, НДА, Т.: 2001.
46. Самадов Қ. Ойбекнинг тил маҳорати.-Т.: Фан, 1981.
47. Султонов И. Абдулла Қодирий ижоди ҳақида. Пьесалар. Мақолалар. 2 том. Т.: 1954. 314 б.
48. Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. Т., 1974, 4-бет.

49. Шоназаров Ю. Яна Солиҳ махдум ҳақида // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1991,25 январь.

50. Шукуров Н. Сўз сеҳри, шеър меҳри (адабий-танқидий мақолалар), Самарқанд: Зарафшон, 1992.

III. Qo'shimcha adabiyotlar

51. Ибрагимова Е.И, Ўзбек тилида ирония ва иронис мазмун ифодаланишининг усул ҳамда воситалари, НДА.-Т.: 2001.

52. Каримов С. А., Жўраев Т.Т. Ўзбек тили услубияти ва нутқ маданияти (библиографик кўрсаткич). - Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2001.

53. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. -Т.: "Ўзбекистон", 2000.

54. Кўчқортоев И. Бадиий нутқ стилистикаси.- Т.: ТошДУ нашриёти,1975.

55. Кўчқортоев И. Бадиий сўз устаси. -Т.: Фан, 1967.

56. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. - Т.: Фан, 1987

57. Қобулжонова Г. Метафора моҳияти ва турлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007, №6.

58. Самадов Қ. Ўзбек тили услубияти (бадиий услуб). - Т.: Ўқитувчи, 1991.

59. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари.-Т.: 2004.

60. Хўжанова Н. Мақол, бадиий матн ва ифода // Ўзбек тили ва адабиёти, 2000, №3.

61. Ўзбек совет энциклопедияси. X том. Т.: "Энциклопедия" нашриёти, 1978. В.472.

62. O'zbek tilining izohli lug'ati. III tom. Т.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. В.608.

IV. Internet saytlari.

63. www.ziyonet.uz

64. www.dissertant.uz

65. www.ta'lim.uz

**Ochilova Ozoda Baxtiyorovnaning “Mehrobda chayon” romanining
lingvopoetik xususiyatlari” mavzusidagi dissertatsiyasiga**

TASHQI TAQRIZ

Ming yillik adabiyotimiz tarixida tilimizning bepayon imkoniyatlarini oʻzida mujassam etgan badiiy asarlar benihoya koʻp. Shunday ekan oʻzbek tilshunosligi oldiga ilm-fan qoʻyayotgan talablardan biri oʻzbek adabiyotidagi nodir badiiy asarlarning til xususiyatlarini tahlil qilishdir. Badiiy til bobida benazir ibrat maktabini yaratgan Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanining tili hozirga qadar lingvopoetik nuqtayi nazardan oʻrganilmagan. Ushbu roman adib badiiy til mahoratining noyob namunalariidan biridir. “Mehrobdan chayon” romanini lingvopoetik jihatdan oʻrganish uning badiiy til xususiyatlarini toʻlaligicha koʻrsatish imkonini beradi. Shu jihatdan ushbu magistrlik dissertatsiyasi har tamonlama ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir.

Dissertatsiya hozirgi tilshunoslik ilmidagi eng yangi qarashlar, mustaqillik mafkurasi asosida boy faktik materiallarga tayangan holda tayyorlangan. Ish mundarijasi dissertatsiyada qoʻyilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan boʻlib, kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat. Har bir bob muayyan fasllarni qamrab olgan. Boblar va fasllar oʻzaro ichki mantiqiy izchillikka ega va tadqiqotning yangiligini taʼminlagan.

Tadqiqot obyekti qilib Abdulla Qodiriy asarining tanlanishi ham oʻzini oqlaydi. Chunki, bu adib asarlari badiiy tilga xos jozibadorlik, koʻp maʼnolilik va taʼsirchan ifodaliligi bilan ajralib turadi.

Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi oʻrganilgan mavzuning ilk marta manografik yoʻnalishda yoritilgani va shu asosda muayyan ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilganidadir.

Ishning **“Lingvopoetika – tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohasi”** deb nomlangan birinchi bobi, odatdagidek, muammoning nazariy jihatlariga qaratilgan boʻlib, u ikki fasldan iborat: “Lingvopoetikada badiiylik va til munosabati” “Mehrobdan chayon” romani-oʻzbek nasri lingvopoetikasini oʻrganish obyekti

sifatida". Ushbu bobda asar tili badiiylik mezonlaridan biri ekanligiga alohida urg'u berilgani juda o'rinli va asosli bo'lib, ishga o'ziga xos ilmiylik bag'ishlagan. Muhimi, magistrant bu faslda badiiy asar tili xususidagi bugungi yangicha qarashlarni chuqur anglagan va ishga tadbiiq eta bilgan. Shuningdek, bobdagi A.Qodiriyning so'z tanlash va obraz yaratishda xalq tili imkoniyatlaridan foydalanishdagi mahorati, so'zning mavzu va personaj xarakteriga ko'ra o'z va ko'chma ma'nolaridagi shakllarini qo'llash uslubi yetarli yoritilgan.

Hikmatli so'zlar, aforizm, maqol, matal va yumoristik tushunchalar asar badiiy tili silsilasida katta salmoqqa ega. Dissertatsiyaning **"Mehrobdan chayon" romanida leksik va barqaror birliklarning uslubiy qo'llanilishi**" deb atalgan ikkinchi bobi badiiyatning ushbu jihatlari talqiniga bag'ishlangan. Tadqiqotchi bu o'rinda A.Qodiriyning tadqiqot obyekti qilib olingan asariga ko'proq to'xtalar ekan, undagi aforistik va yumoristik ifodalarning badiiy niyatni aks ettirishdagi ijtimoiy-estetik vazifalarini aniq tahlil eta olgan.

Ishning **"Mehrobdan chayon" romanidagi tasviriy vositalarning lingvopoetik tahlili**" nomli uchinchi bobi badiiy asar tilining ta'sirchan va bo'yoqdor bo'lishining omillariga bag'ishlangan. Shunday omillardan biri bu nutqdir. Ishda badiiy matndagi nutqning muallif, hikoyachi va personajga tegishli shakllari haqidagi fikrlar misollar tahlili asosida asoslangan. Xususan, epik bayonda diologik, dramatik bayonda monologik nutqning ustuvorligi qayd etilgan.


Dissertatsiyaning e'tiborli jihatlaridan biri har bir bobning muayyan xulosalar bilan yakunlanishidir. Bular magistrantning mavzu mohiyatini to'g'ri anglagani, mustaqil fikrlay olishini ko'rsatadi va quvvatlashga arziydi.

Magistr Ochilova Ozoda ishni tayyorlar jarayonida ko'plab ilmiy adabiyotlarga murojaat qilgan, faktik materiallarga tayangan.

Ish yuqorida ta'kidlangan muvaffaqiyatlar bilan bir qatorda, ba'zi juz'iy kamchiliklardan ham holi emas. Ishda ayrim o'rinlarda jumlar g'aliz, ko'p so'zlar takror qo'llanilgan. Texnik xatolar anchagina. Ish himoyasiga qadar ko'rsatilgan kamchiliklar bartaraf qilinishi zarur.


Ochilova Ozoda Baxtiyorovnaning “Mehrobdan chayon” romanining lingvopoetik xususiyatlari” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan qo‘yilgan talablarga to‘la javob beradi. Uning muallifi magistr akademik darajasini olishga loyiq deb hisoblayman va ishni ochiq himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi



Farhod Bobojonov

QQDU o‘zbek filologiyasi kafedrası
mudiri, filologiya fanlari
nomzodi, dotsent



UrDU magistraturasining 5A 120102 – Lingvistika (o‘zbek tili)
mutaxassisligi bitiruvchi kurs magistranti Ochilova Ozoda Baxtiyorovnaning
“Mehrobdan chayon” romanining lingvopoetik xususiyatlari
mavzusida yozgan magistrlik dissertatsiyasiga

T A Q R I Z

Badiiy til bobida benazir ibrat maktabini yaratgan Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanining tili hozirga qadar lingvopoetik nuqtayi nazardan o‘rganilmagan. Ushbu roman adib badiiy til mahoratining noyob namunalaridan biridir. “Mehrobdan chayon” romanini lingvopoetik jihatdan o‘rganish uning badiiy til xususiyatlarini to‘laligicha ko‘rsatish imkonini beradi va o‘zbek tilshunosligini yangi ilmiy ma’lumot va natijalar bilan boyitadi. Shu nuqtayi nazardan olib qarajak, mazkur mavzuning tadqiq qilinishi nihoyatda dolzarb ekanligi oydinlashadi.

Ochilova Ozoda Baxtiyorovnaning “Mehrobdan chayon” romanining lingvopoetik xususiyatlari mavzusida yozgan magistrlik dissertatsiyasi roman matnidagi leksik birliklar, iboralar-frazeologik birliklar va maqollar, shuningdek, romandagi she’riy parchalar lingvopoetik tahlilga tortilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, ilova va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, o‘rganilishi, maqsad hamda vazifalari, ilmiy yangiligi, himoyaga olib chiqilayotgan holatlar, ishning tuzilishi va hajmi haqida ma’lumot berilgan.

Ishning birinchi bobi “Lingvopoetika ilshunoslik va adabiyotshunoslik sohasi” deb nomlanadi. Mazkur bob “Lingvopoetikada badiiylik va til munosabati”, “Mehrobdan chayon” romani - o‘zbek nasri lingvopoetikasini o‘rganish obyekti sifatida” deb nomlanuvchi ikkita paragrafdan tashkil topgan. Bobda lingvopoetika yo‘nalishi va uning boshqa fanlar bilan o‘zaro munosabati, lingvopoetikaning roli masalasiga e’tibor qaratilgan bo‘lib, unda lingvopoetika tushunchasi va uning o‘rganilish tarixi, o‘zbek adabiyoti asarlarini lingvopoetik

xususiyatlari jihatidan tadqiq qilish usullari daliliy ma'lumotlar, shu kungacha bo'lgan adabiyotlarning chuqur tahlili asosida yoritib berilgan. Magistrantning o'z qarashlari, munosabatlari ham keng qamrovli bayon qilingan.

Ishning ikkinchi bobi "Mehrobdan chayon" romanida leksik va barqaror birikmalarning uslubiy qo'llanilishi deb nomlanadi. "Mehrobdan chayon" romanida so'zlarning konnotativ ma'nolari "Mehrobdan chayon" romanidagi maqol va frazeologik birliklar tahlili" nomli paragraflardan iborat. Bobda asarda qo'llangan so'zlarning konnotativ ma'nolari, maqol va frazeologik birliklar tahlili tadqiq qilinadi, bu masala to'plangan boy materiallar vositasida ko'rsatib beriladi. Bobda ishning asosiy muammolari aks ettirilgan. Bobning xulosa qismida esa magistrantning yakuniy umumlashma fikrlari aks etgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "Mehrobdan chayon" romanidagi tasviriy vositalarning lingvopoetik tahlili" deb ataladi. U "Mehrobdan chayon" romanida troplarning ishlatilishi" va "Roman tilidagi badiiy sintaksisning lingvopoetik tahlili" deb ataluvchi mavzulardan iborat bo'lib, paragraflarda ko'rsatilgan masalalar chuqur yoritilgan.

Magistrant dissertatsiyada "Mehrobdan chayon" romanining til xususiyatlarini tahlil qilish shu bilan birga Qodiriyning o'ziga xos so'z tanlashi, so'z qo'llashi, badiiy tasvir vositalaridan foydalanishi asosida namoyon bo'luvchi badiiy til mahoratini ochib bera olgan. Magistrant ishni yozish jarayonida bir qancha ilmiy manbalar bilan tanishib chiqqan hamda o'zining kuzatishlari natijasida ilmiy xulosalar chiqara olgan, tadqiqot maqsadiga o'zi belgilab olgan vazifalarni bajarish orqali erisha olgan. Foydalanilgan adabiyotlar ishning mazmuniga mos. Dissertatsiyani tayyorlash jarayonida professional etika qoidalari buzilmagan.

Ishda ayrim juz'iy nuqsonlar mavjud. Bu asosan texnik jihatdan qo'yilgan talablarning ba'zilariga rioya qilinmaganlik holatlarida ko'zga tashlanadi. Adabiyotlar ro'yxatini va iqtiboslar keltirishni ham talab darajasida shakllantirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, Ochilova Ozoda Baxtiyorovnaning "Mehrobdan chayon" romanining lingvopoetik xususiyatlari mavzusida yozgan magistrlik dissertatsiyasi tugallangan, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilab qo'yilgan talablarga to'la javob beradi, binobarin, uning muallifi 5A 120102 – Lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi bo'yicha filologiya magistri akademik darajasiga loyiq, deb hisoblayman va ishni ochiq himoyaga tavsiya qilaman.

Taqrizchi



Sarvar Ro'zimboyev,



UrDU o'zbek tilshunosligi kafedrası
dotsenti, filologiya fanlari nomzodi



UrDU magistraturasining 5A 120102 – Lingvistika (o‘zbek tili)
mutaxassisligi bitiruvchi kurs magistranti Ochilova Ozoda Baxtiyorovnaning
“Mehrobdan chayon” romanining lingvopoetik xususiyatlari
mavzusida yozgan magistrlik dissertatsiyasiga

T A Q R I Z

Badiiy til bobida benazir ibrat maktabini yaratgan Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanining tili hozirga qadar lingvopoetik nuqtayi nazardan o‘rganilmagan. Ushbu roman adib badiiy til mahoratining noyob namunalaridan biridir. “Mehrobdan chayon” romanini lingvopoetik jihatdan o‘rganish uning badiiy til xususiyatlarini to‘laligicha ko‘rsatish imkonini beradi.

“Mehrobdan chayon” romanining tili hozirga qadar lingvopoetik nuqtayi nazardan o‘rganilmagan. Ochilova Ozoda Baxtiyorovnaning “Mehrobdan chayon” romanining lingvopoetik xususiyatlari mavzusida yozgan magistrlik dissertatsiyasi roman matnidagi leksik birliklar, iboralar-frazeologik birliklar va maqollar, shuningdek, romandagi she‘riy parchalar lingvopoetik tahlilga tortilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, ilova va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, o‘rganilishi, maqsad hamda vazifalari, ilmiy yangiligi, himoyaga olib chiqilayotgan holatlar, ishning tuzilishi va hajmi haqida ma’lumot berilgan.

Ishning birinchi bobi “Lingvopoetika ilshunoslik va adabiyotshunoslik sohasi” deb nomlanadi. Bobda lingvopoetika yo‘nalishi va uning boshqa fanlar bilan o‘zaro munosabati, lingvopoetikaning roli masalasiga e’tibor qaratilgan bo‘lib, unda lingvopoetika tushunchasi va uning o‘rganilish tarixi, o‘zbek adabiyoti asarlarini lingvopoetik xususiyatlari jihatidan tadqiq qilish usullari daliliiy ma’lumotlar, shu kungacha bo‘lgan adabiyotlarning chuqur tahlili asosida yoritib berilgan.

Ishning ikkinchi bobi “Mehrobdan chayon” romanida leksik va barqaror birikmalarning uslubiy qo‘llanilishi deb nomlanadi. “Mehrobdan chayon”

romanida soʻzlarning konnotativ maʼnolari” “Mehrobdan chayon” romanidagi maqol va frazeologik birliklar tahlili” nomli paragraflardan iborat. Bobning xulosa qismida esa magistrantning yakuniy umumlashma fikrlari aks etgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “Mehrobdan chayon” romanidagi tasviriy vositalarning lingvopoetik tahlili” deb ataladi. U “Mehrobdan chayon” romanida troplarning ishlatilishi” va “Roman tilidagi badiiy sintaksisning lingvopoetik tahlili” deb ataluvchi mavzulardan iborat boʻlib, paragraflarda koʻrsatilgan masalalar chuqur yoritilgan.

Tadqiqotchi “Mehrobdan chayon” romanining til xususiyatlarini tahlil qilish shu bilan birga Qodiriyning oʻziga xos soʻz tanlashi, soʻz qoʻllashi, badiiy tasvir vositalaridan foydalanishi asosida namoyon boʻluvchi badiiy til mahoratini ochib berishdan iborat asosiy maqsadiga erisha olgan.

Ochilova Ozoda Baxtiyorovnaning “Mehrobdan chayon” romanining lingvopoetik xususiyatlari mavzusida yozgan magistrlik dissertatsiyasi tugallangan, Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi tomonidan belgilab qoʻyilgan talablarga toʻla javob beradi, binobarin, uning muallifi 5A 120102 – Lingvistika (oʻzbek tili) mutaxassisligi boʻyicha filologiya magistri akademik darajasiga loyiq, deb hisoblayman va ishni ochiq himoyaga tavsiya qilaman.

Ilmiy rahbar

Azamat Primov,

**UrDU oʻzbek tilshunosligi kafedrasi
dotsenti, filologiya fanlari nomzodi**

